

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021. I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMUY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UDK: 378.091.33:811.111

KURBANOVA NIGINABONU PARDA YEVNA

**INGLIZ TILI MASHG'ULOTLARIDA BO'LAJAK IQTISODCHILARNING
KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI**

Тошкент - 2024

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. BO'LAJAK IQTISODCHILARNI INGLIZ TILI DARSLARIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	12
1.1. Ingliz tili mashg‘ulotlarida bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning strategik mohiyati.....	12
1.2. Bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda kompetensiyaviy yondashuv va CEFR talablari asosida takomillashtirishning zarurati.....	36
1.3. Bo‘lajak iqtisodchilarning ingliz tili mashg‘ulotlarida, kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning amaliyotdagi holati.....	53
I bob bo‘yicha xulosalar.....	61
II BOB. BO'LAJAK IQTISODCHILARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI.....	64
2.1. Bo‘lajak iqtisodchilarning ingliz tili darslarida kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	64
2.2. Bo‘lajak iqtisodchilarning ingliz tili darslarida kasbiy kompetentligini takomillashtirishdagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar.....	81
II bob bo‘yicha xulosalar.....	101
III BOB. BO'LAJAK IQTISODCHILARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIK DARAJASI.....	104
3.1. Bo‘lajak iqtisodchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari metodikasi	104
3.2. Bo‘lajak iqtisodchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalari va samaradorlik darajasi	113
III bob bo‘yicha xulosalar.....	127
Umumiyl xulosalar.....	129
ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.....	131

KIRISH

KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zaruriyati. Jahonda iqtisodiy landshaft doimiy ravishda rivojlanib, bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompitentligini oshirishda iqtisodiy ta’limning hozirgi holati va bo‘lajak iqtisodchilarning xalqaro iqtisodiy masalalarni bilish, iqtisodiy o‘zgarishlarni tahlil qilish, muloqot va axloqiy qarorlarni qabul qilish ko‘nikmalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “2020-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti global iqtisodiy tarmoqlarni qurish va xalqaro iqtisodiy ta’lim tashabbusini shakllantirishda bo‘lajak iqtisodchi kadrlarning malakasini oshirish” loyihasini ishlab chiqqan. Xalqaro iqtisodiy ta’lim jarayonini rivojlantirishda bo‘lajak iqtisodchilarning xalqaro miqyosda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha yondashuvlar tatbiq etilmoqda.

Dunyoda iqtisodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, jamoaviy ish va tengdoshlarning fikr almashinushi afzalliklarini ko‘rsatishda hamkorlikdagi ta’lim loyihalari samaradorligini oshirish bo‘yicha ustuvor ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yuqori malakali iqtisodchi mutaxassis kadrlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalardan kreativ foydalanish, zamonaviy jamiyatda texnologik iqtisodiyotni amalga oshirishning real tarmoqlari, sanoat korxonalari xodimlarining kasbiy bilimlarini oshirishni va xorijiy til ko‘nikmalarini oshirishni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiy ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar asosida kasbga yo‘naltirilgan o‘qitish yondashuvini joriy qilish, bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “O‘quv jarayoniga mutaxassislarning bir necha xorijiy tillarni bilish, talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirish, ta’lim jarayoni mazmunini innovatsion takomillashtirish, optimallashtirish, iqtisodiyot yo‘nalishlarining bo‘lajak iqtisod, moliya, buxgalteriya, raqamli iqtisodiyot kabi mutaxassislar uchun kasbiy motivatsiya berish, investorlar, tadbirkorlarning hamkorlik qilish oliy ta’lim

mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha shart-sharoitlarini yaratish”ga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli, 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6097-som Farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4623-som, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5117-som qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-som Qarori¹ hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 46 b.; O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi 576 – sonli “Ilm – fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz; O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-sonli «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. www.lex.uz; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ–4884-som Farmoni www.lex.uz; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-som “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekaborda PQ–1975-som Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori www.lex.uz; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ – 2909 - sonli «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. www.lex.uz; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-som «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovil islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora – tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va amalga oshirish yo‘llari” doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar vositasida xorijiy til ta’limi jarayonini loyihalash, talabalarning didaktik tayyorgarligini kuchaytirishning ma’naviy-axloqiy va psixologik tizimi, pedagogik faoliyatni rag‘batlantirish, bo‘lajak o‘qituvchi mutaxassislar kasbiy tafakkur va tashabbuskorligini rivojlantirish masalalari U.Sh.Begimkulov, U.B.Bobojanova, M.M.Vaxobov, M.Djusupov, X.S.Muxitdinova, I.A.Nishonov, Sh.Q.Mardonov²ning ilmiy tadqiqotlarida tadqiq etilgan.

Ta’lim sohasidagi bo‘lajak mutaxassislar kasbiy kompetentligining turli komponentlarini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari A.Musurmanova, K.J.Risqulova, U.K.Nasirova, M.A.Nazarova, G.T.Makhkamovalarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘sligi (MDH) mamlakatlari va xorijiy olimlar tomonidan bo‘lajak kasb egalarining kommunikativ kompetensiyani innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari, turli fanlar o‘quv faoliyatida kasbiy kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishning konseptual pedagogik texnologiyalari, dasturiy hamda didaktik ta’minotini takomillashtirish A.L Morozova., Ye.I Passov, Raven Dj., N.Xomskiy, kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakat farovonligini ta’minlashda ingliz tili darslarida bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasini

² Begimkulov U.Sh. “Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti”: Ped.fan.doktori diss., - 2007.- 305 b; Bobojanova U.B., Hasanova N.B. Ona tilini o‘qitishning umumdidaktik va oziga hos prinsiplari //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 8. – S. 772-782; Vaxobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta’lim paradigmasi sifatida. /Zamonaviy ta’lim/ Sovremennoye obrazovaniye. 2016-yil 10-son, 3- 7 b; Djusupov M. Звуковые системы russkogo i kazaxskogo языков. Slog. Interferensiya. Obuchiye proiznosheniyu. – T.: Fan, 1991. – 240 s; Muxitdinova X.S. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda o‘quv-biluv materiallarini konsentrallar asosida tarkiblash va ular bilan bosqichli ketma-ketlikda ishlashning didaktik jixatlari// O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2020. — № 3 (32). — S. 87–100; Nishonov I.A. O‘rta maktablarda chet tili o‘qitishning ba’zi bir masalalari //Oriental Art and Culture. – 2021. – T. 2. – №. 4. – B. 580-583;

takomillashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish davr talabidir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy tadqiqot rejasining 2020-1-DE01-KA107-005433- raqamli "Yevropa Ittifoqi hamda O'zbekiston Oliy Ta'lim muassasalari o'rtaida xalqaro tajriba almashinuvi doirasida Boxumdag'i Rur universiteti (Germaniya) o'rtaсидаги kredit safarbarligi" mavzusi (2020-2022) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali bo'lajak iqtisodchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari:

ingliz tili darslarida bo'lajak iqtisodchilarining "kasbiy kompetentligi", "kasbiy kompetensiya komponentlari", "kompetensiyaviy yondashuv", kompetentlikni takomillashtirish borasidagi xorijiy tajribani, (tajribalilik, o'ziga ishonch, malakaviy ko'nigmaga ega bo'lish) tushunchalarining mazmun va mohiyatini ingliz tili fanlar yo'nalishida, CEFR talablari asosida aniqlash;

ingliz tili darslarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish bo'yicha amaliyotda mavjud muammolarni zamonaviy talab va ehtiyojlar asosida o'rganish orqali bo'lajak iqtisodchilarining kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish;

"Just in time" konsepsiysi, "Sketch Engeen" xalqaro platformasi asosida ingliz tili darslarida bo'lajak iqtisodchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha o'quv modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish;

bo'lajak iqtisodchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda ijobjiy natija beradigan turli xil "autentik", "realiya" materiallardan, "feys tu feys" va "Bloom's taxonomy" yondashuvi hamda g'oyalaridan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti ingliz tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Guliston davlat universiteti, Jizzax politexnika instituti (7-aprel, 2022-yil, №139-AF), Toshkent moliya institutlaridan (23-noyabr, 2023-yil, №5/3111) jami 350 nafar (2-3 bosqich bakalavr) talabalari ishtirot etdi.

Tadqiqotning predmetini ingliz tili darslarida bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi mazmuni, shakl, usul, vositalari hamda texnologiyalarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid pedagogik va ilmiy metodik manbalar, didaktik materiallar, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-me’yoriy hujjatlar va o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish hamda tahlil qilish, nazariy (analitik va sintetik), diagnostik (so‘rov, test, guruhli va individual suhbatlar, kuzatish), bashoratli (umumlashtirish, baholash), pedagogik tajriba-sinov va suhbat (matematik-statistik tahlil qilish, natijalarini grafik tasvirlash va b.q.) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini oshirish tizimi natijadorligini rivojlantirishda maxsus ingliz tili komponentlari jamlanmasidan iborat bo‘lgan korpusdan foydalanish monitoringini yuritish tizimini modellashtirishning texnologik xususiyatlari aniqlangan;

bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaliy-pedagogik sharoitda ingliz tili o‘qituvchilarining iqtisodiyot fanlari bo‘yicha tegishli bilimlarini oshirishning tizimli mexanizmi takomillashtirilgan;

bo‘lajak iqtisodchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli talabalarning iqtisodiy bilim darajasini diagnostik aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ingliz tili darslarida kasbiy tajribaga ega bo‘lgan talabalar “o‘quvchi-markazda” yondashuvi

asosida kasb tajribasiga ega bo‘lmagan talabalar bilan prezentatsiyalar orqali “student-klass” amaliy mashg‘ulotlar mexanizmi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak iqtisodchilar kasbiy qobiliyatini oshirish uchun ingliz tili kursi sillabusi mezonlari, daraja va ko‘rsatkichlariga o‘zgartirishlar kiritilgan;

oliy ta’lim muassasalari iqtisodiyot yo‘nalishlarining iqtisod, moliya va buxgalteriya, raqamli iqtisodiyot kabi mutaxassisliklari uchun maxsus “The ECONOMISTS’ WORLD” nomli o‘quv uslubiy qo‘llanma ishlab chiqilgan;

ingliz tili darslarida iqtisodiyot yo‘nalish talabalarining kasbiy kompetentligini oshirishga qaratilgan innovatsion muloqot mashqlari (oriyentatsion intervyu, individual, juft va guruhli fikrlash va almashish, hikoya qilish, hikoyaga asoslangan rolli o‘yinlar), o‘yinlar (auksion, kutilmagan nutq, cho‘l oroli, graffiti o‘yinlari), AKT (padlet.com, web-sayt. net, jeopardy) innovatsion dasturiy ta’mioti yaratilgan;

ingliz tili darslarida bo‘lajak iqtisodchilar kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish bo‘yicha ingliz tili fanidan interfaol nazariy va amaliy mashg‘ulotlar ishlanmalari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot jarayonida foydalanilgan atamalar, yondashuvlar, ilmiy ma’lumotlar pedagogik ta’lim sohasidagi mamlakatimiz hamda xorijlik olimlarning nazariy taklif va tavsiyalariga asoslanganligi, OTMning bakalavr va magistraturadagi ingliz tili dars jarayoni, o‘quv-uslubiy ta’mioti (malaka talabi, o‘quv reja, o‘quv dasturi, o‘quv adabiyotlar) va me’yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rganilgani, ishlab chiqilgan topshiriqlar, o‘yinlar, metodik yo‘riqnomalar, innovatsion texnologiyalar hamda amaliy tavsiyalarning tajriba-sinov orqali amaliyotda qo‘llanganligi, tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik jihatdan tahlil qilinib xulosa chiqarilganligi, shuningdek, olingan natijalar samaradorligi tegishli tuzilmalar tomonidan ma’qullanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, “kompetensiya”, “kasbiy kompetensiya”,

“bo‘lajak iqtisodchi kompetensiyasi” kabi atamalarning ilmiy-nazariy ma’nosi, oliv ta’limning iqtisodiyot yo‘nalishidagi talabalarining ingliz tili darslarida kasbiy kompetentlik tamoyillariga asoslangan holda kasbga tayyorlash texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ingliz tili darslarida bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini oshirish imkoniyati kasbga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslangan uslubiy mexanizmning (mazmuni, shakl, usul va vositalar, mashqlar va topshiriqlarning samaradorligini belgilovchi mezonlar va baholash tizimi) ishlab chiqish natijadorligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy tavsiyalardan ingliz tili fanlari mazmunini takomillashtirish, bo‘lajak iqtisodchilarni kasbiy kompetentligini tahlil qilish va iqtisodiyot kurslari o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak iqtisodchilarning ingliz tili mashg‘ulotlarida kasbiy kompetentligini takomillashtirish texnologiyalari bo‘ycha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini oshirish tizimi natijadorligini takomillashtirish maqsadida maxsus ingliz tili komponentlari jamlanmasidan iborat bo‘lgan korpusdan foydalanish monitoringini yuritish tizimini modellashtirishning texnologik xususiyatlari bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “The Economist’s World” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 28-noyabrdagi 272-sonli buyrug‘iga asosan berilgan 02/01-01-169 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tili mashg‘ulotlarida bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini oshirish shart- sharoitlari, bo‘lajak iqtisodchilarni tayyorlashda iqtisodiy kompetensiyalarni rivojlantirish, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasidan foydalanish asosida o‘quv faoliyatini sifat jihatidan takomillashtirish imkoniyati yaratilgan;

bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaliy-pedagogik sharoitda ingliz tili o‘qituvchilarining iqtisodiyot fanlari bo‘yicha tegishli

bilimlarini oshirishning tizimli mexanizmini shakllantirish “Business English” nomli o‘quv qo‘llanmasiga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim fan va innovatsiya vazirligining 2021-yil 18-avgustdagи 356-sonli buyrug‘iga asosan 356/7-257-raqamli guvohnomasi). Natijada, bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini ingliz tili mashg‘ulotlarida takomillashtirishning izchilligi, uzviyligi va tizimliligi ta’minlangan;

bo‘lajak iqtisodchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli talabalarning iqtisodiy bilim darajasini diagnostik aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan bo‘lib, bo‘lajak iqtisodchilarning ingliz tili mashg‘ulotlarida kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasini shakllantirish uchun yaratilgan elektron dastur asosida Jizzax politexnika institutida tajriba-sinov ishlari olib borildi. (2022-yil 7-apreldagi №139AF-dalolatnomasi). Natijada, bo‘lajak iqtisodchilarning ingliz tili mashg‘ulotlarida ingliz tilida iqtisodiy atamalar va me’yoriy iqtisodiy hujjatlarning formatini o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish samaradorligi oshishiga erishilgan;

bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ingliz tili darslarida kasbiy tajribaga ega bo‘lgan talabalar “o‘quvchi-markazda” yondashuvi asosida kasb tajribasiga ega bo‘lmagan talabalar bilan prezentatsiyalar orqali “student-klass” amaliy mashg‘ulotlar mexanizmi takomillashtirilgan. Ushbu indikatorlar Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida (2023-yil 20-oktyabrdagi dalolatnomasi). Natijada, malakaga ega bo‘lgan talabalarda iqtisodiy kasbiy kompetentlik, bilim va ko‘nikmalar oshgan va ularning kursdoshlari yangi ma’lumotlarga “talaba tili”dan soddalashtirilgan holda ma’lumot yetkazish orqali ega bo‘lishgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy-metodik ishlar, jumladan, 2 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta multimediali elektron dastur, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 15 ta (6 tasi

respublika ilmiy jurnallarida va 9 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda) maqola va tezis tarzida nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 150 sahifadan iborat.

I BOB. BO‘LAJAK IQTISODCHILARNI INGLIZ TILI DARSLARIDA KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning strategik mohiyati

Keyingi yillarda mamlakatimizda tillarni o‘qitish sohasida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda, bunday o‘zgarishlar natijasida ko‘plab davlatlar bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatalmoqda. Amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish va tatbiq etish bo‘lajak iqtisodchilarning ushbu yangiliklarga o‘rganish darajasiga har tomonlama bog‘liq ravishda yuzaga kelib, mamlakatimiz ta’lim tizimida shakllangan innovatsion pedagogik shart-sharoitlar va til ta’limi funksiyalarini o‘rgatish qobiliyati, shuningdek, millatlar va madaniyatlararo munosabatlar yordamida faollashadi. Ana shu jihatdan, mazkur masalalarni yana bir marta ko‘rib chiqish alohida ahamiyat kasb etadi, bu jarayonda chet tillar bo‘yicha mutaxassis-kadrlar tayyorlashning mazmun-mohiyati, shakl va usullarini shakllantirishni taqozo etadi.

Zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassisni tayyorlash sohasida pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri Bo‘lajak iqtisodchilarning kompetentligi masalasi bo‘lib qolmoqda. Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda ijtimoiy tajriba muntazam ravishda o‘zgarib, o‘qitish/o‘rganish tizimi qayta qurilmoqda, pedagogika sohasida dasturli yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda hamda ularning ahamiyati yildan-yilga ortib, yetuk mutaxassis-kadrga bo‘lgan ehtiyoji darajasi ortib bormoqda.

Mazkur masalaning mohiyatini anglashga ilmiy-nazariy qarashlarning tadqiqi va tahlili “kasbiy pedagogik kompetensiya”ga tasnif berish imkonini beradi. Bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy pedagogik kompetentligini o‘rganilgan va egallangan bilim, ko‘nikma, malakalar va pedagogik obyektlar bilan ishslash usullari tizimi tashkil etadi, professionallikning maxsus turi sifatida alohida ko‘rsatiladigan mazkur kompetentlik Bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy faoliyatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim muassasalari Bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini

shakllantirish jarayonida ma'lum darajalarini aniqlab olish zarurati tug'iladi, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda asosiy mezonini bilish talab etiladi, buning uchun ushbu tushunchaning yetakchi va tarkibiy qismlarining shakllanish darajalarini aniqlash lozim. Demak, shu asosda ma'lum bo'ladiki, uning yuqori, o'rta va past darajalari mavjud. Kasbiy kompetensiya tushunchasi: nazariy, amaliy, tadqiqot va kasbiy shakllanishda ma'lum bosqichlar o'qituvchilarining pedagogik mahoratidan tashkil topadi, ularni quyidagicha qayd qilish mumkin: dastlabki bosqich, asosiy bosqich, yakuniy bosqich, shuningdek, axborot-motivatsion bosqich, faoliyat bosqichi, qidiruv-prognostik bosqichi, refleksiv-loyihalash bosqichi ham mavjud.

Biroq, jamiyat rivojlanishi bilan kasbiy ta'limni tashkil etish masalalari tobora murakkab va har tomonlama xarakterga ega bo'lib, bu har qanday murakkablik muammolarini hal qilish uchun yetarlicha kompetentli yangi darajadagi mutaxassislarni tayyorlash vazifalari birinchi o'ringa chiqishini belgilaydi.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz kompetensiya hodisasini mutaxassisning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida ko'rib chiqishimiz kerak, buning uchun biz turli manbalarda keltirilgan ushbu tushunchaning ta'riflariga to'xtalamiz.

Kasbga yo'naltirilganlik ta'limi lug'ati kompetensiyani ma'lum bir ijtimoiy-kasbiy maqomdagи shaxslarning bilimlari, ko'nikmalari va tajribalarining ular bajaradigan vazifalar va hal qilinadigan muammolarning haqiqiy qiyinchilik darajasiga muvofiqligi o'chovi sifatida belgilaydi. "Malaka" atamasidan farqli o'laroq, malakani tavsiflovchi sof kasbiy bilim va ko'nikmalarga qo'shimcha ravishda tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash qobiliyati, muloqot qobiliyati, ma'lumotni o'rganish, baholash, mantiqiy fikrlash, tanlash va baholash qobiliyati kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi [100, p.130].

"Kompetentlik" tushunchasi ilmiy-tadqiqot adabiyotida kasbiy muammolarni hal qilish uchun qobiliyat, xabardorlik, hokimiyatga asoslangan kompetensiya, bilim, tajribaga ega bo'lgan shaxs sifatida talqin etiladi [2,4,17,27,75,115].

F.Yu. Krichevskiy rus adabiyotida "kompetensiya"ning umume'tirof etilgan

ta’rifi ishlamaganligini ta’kidlab, ushbu konsepsiyaning belgilarini keltiradi: muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilimlarning mavjudligi, ushbu bilimlarning amaliyot uchun ahamiyatini tushunish, operatsion ko‘nikmalar majmui va kasbiy faoliyatga ijodiy yondashuv [59].

R.X.Gilmeyeva ushbu hodisani yanada kengroq talqin qilish zarurligini e’tirof etadi. Muallifning fikricha, kompetensiya kasbiy kompetensiya tuyg‘usidan ajralmasdir [27]. Bunday talqin ushbu tadqiqotning xarakteriga mos keladi, bu esa ushbu konsepsiyaning xususiyatlari haqida batafsilroq to‘xtalishni talab qiladi.

Kasb-hunar ta’limi lug‘atida biz quyidagi ta’rifni topamiz: “Kasbiy kompetensiya – jamiyat uchun zarur bo‘lgan mehnat taqsimoti va bozor mexanizmlariga mos keladigan mehnat faoliyatining o‘ziga xos turlarida o‘zini to‘liq anglashga imkon beradigan jamiyat uchun muhim bo‘lgan fazilatlarni umumiy ta’lim asosida shakllantirish” [100, 262-bet].

O‘z tadqiqotlarini kasbiy kompetensiya fenomeni bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishga bag‘ishlagan olimlar buni turli yo‘llar bilan izohlashadi.

Shunday qilib, R.X.Gilmeyevaning fikriga ko‘ra, kasbiy kompetensiya tushunchasi bilim, ko‘nikma, tajriba va shaxsiy fazilatlarning uyg‘unligi, ya’ni mutaxassisning kasbiy ishida yuqori natijaga erishish uchun muhim bo‘lgan potensial imkoniyatlarning mavjudligini nazarda tutadi [27, 34-bet].

V.G.Afanasev kasbiy kompetensiya muammosiga to‘xtalib, uni mutaxassisning funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari majmui sifatida belgilaydi [7].

T.G.Braje mutaxassisning kasbiy malakasi nafaqat ixtisoslashgan (asosiy) ilmiy bilimlar bilan, balki mutaxassisning qadriyat yo‘nalishlari, uning faoliyati motivlari, uning atrofidagi dunyosida o‘zini anglashi, uslubi bilan belgilanishini ta’kidlaydi, u ishlaydigan odamlar bilan munosabatlari, uning umumiy madaniyati, ijodiy salohiyatni rivojlantirish qobiliyati, deb aytadi [18].

N.N.Lobanova o‘qituvchi faoliyati prizmasi orqali kasbiy kompetensiyani hisobga olgan holda, kasbiy kompetensiya, birinchi navbatda, “ishning barqaror samarali tabiat, obyektiv va subyektiv xarakterdagi turli qiyinchiliklarning

beqarorligi sharoitida qobiliyat, kasbiy muammolarni yetarli, oqilona yechimini topish, maqsadli harakatlarni ta'minlash bilan ifodalaydi va jtimoiy-ekologik va qabul qilingan qarorni amalga oshirishda iqtisodiy oqibatlarga olib kelishini ta'kidlaydi”[75,15-bet]. Lobanovaning fikricha, kasbiy kompetensiya amalga oshiriladigan kasbiy faoliyatning natijalari va samaradorligi ko‘p jihatdan faoliyatga ijobjiy munosabatda kasbiy va axloqiy javobgarlikning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Ushbu muammoga bag‘ishlangan olimlarning asarlarida “kasbiy kompetensiya” tushunchasi “professionallik” tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Eslatib o‘tamiz, “kasb” ildiz so‘zi ham lotin tilidan kelib chiqqan (lat. Professio - profiteon - men buni o‘z ishim, deb e’lon qilaman). Shunday qilib, barqaror ibora, hatto atama sifatida biz kasbiy axloqni ko‘rib chiqishimiz mumkin, uning ta’rifi axloqning o‘ziga xos talablariga asoslanadi, bu turli xil xususiyatlar bilan bog‘liq [4, 18-bet].

“Kompetentli” so‘zi bilan birgalikda eng ko‘p ishlatiladigan so‘z bu – “mutaxassis” so‘zi. Shuning uchun, “kompetentli” tushunchasining mazmunini to‘liqroq ochib berish uchun mutaxassisiga hamroh bo‘lgan bir qator boshqa tushunchalarni ko‘rib chiqish foydali bo‘ladi.

Avvalo, bu “malaka” va “professionallik” tushunchalari. Malaka, professionallik va kompetensiya shaxsning kasbiy rivojlanishidagi darajadagi tushunchalar - pastdan yuqoriga, mas’uliyat va axloq darajasining oshishi bilan bog‘liq degan fikr mavjud [4, 18 - bet]. Ularning barchasi bajariladigan faoliyat turiga qarab bir darajali bo‘lishi mumkin, ayniqsa javobgarlik va axloq toifalari - bu universal qadriyatlarga tegishli bo‘lgan lavozimga, faoliyat turiga bog‘liq bo‘lmagan xususiyatlar. Xuddi shu mutaxassis haqida aytishimiz mumkinki, u eng yuqori malakali mutaxassis, yuqori malakali va malakali mutaxassis. Axir, lotincha “kualis” “malaka” – “sifat jihatidan nima” degan ma’noni anglatadi: 1) biror narsaning sifatini aniqlash, biror narsani baholash va siz bilgанингиздек, сифат тоифаси меҳнатни ва гар qanday mehnatning ishchisi va mutaxassisini baholash uchun xosdir; 2) tayyorgarlik darajasi, har qanday mehnatga yaroqlilik darajasi mehnat turi,

ya’ni har qanday mehnat turiga, shu jumladan, o’rta va yuqori malakani talab qiladigan: biz ta’lim darajasidan qat’i nazar, har qanday mehnat turiga kasbiy muvofiqligi haqida gapiramiz. Xuddi shunday, professionallik tushunchasi har qanday toifadagi ishchilar uchun xosdir. Kompetensiya tushunchasiga kelsak, u muayyan toifadagi mutaxassislarga xosdir, ularning mehnat tabiatini qaror qabul qilish bilan bog’liq, ya’ni kompetentli qaror qabul qilish, biror narsani baholash (bu menejerlar, mutaxassislar va diagnostiklar) yoki ma’lum bir bilim sohasini chuqr bilish (olimlar, o’qituvchilar, san’atshunoslar). Shu bilan birga, ba’zi mutaxassislarga nisbatan “kompetentli” atamasi ishlatilmaydi, ammo ular haqida: “yeng yuqori malakali mutaxassis”, “professional”, “usta” (uchuvchi, dirijor, jarroh, rassom). Va bu ularning professionallik darajasi bo‘yicha kompetentli deb ataladigan mutaxassislardan kamligini anglatmaydi [4, 19-bet]. Yana bir narsa, agar kompetensiya nafaqat o’zi, faoliyati, balki boshqa odamlar to‘g‘risida qaror qabul qilish (masalan, menejer) kompetensiya bilan bog’liq bo‘lsa, unda ushbu qarorning oqibatlari uchun uning javobgarligi oshadi.

Biroq, bu murakkab, tizimli hodisa bo‘lib, kasbiy kompetensiyaga ko‘pincha bir qator tarkibiy qismlarning yig‘indisi sifatida qaraladi [17,50,62,63,86,].

N.V. Kuzmina o‘qituvchining kasbiy mahorati haqida gapirganda, uni quyidagi tarkibiy qismlarning birligi deb biladi:

- maxsus va kasbiy kompetensiya;
- uslubiy kompetensiya;
- differensial va psixologik kompetensiya;
- auto-psixologik kompetensiya;
- ijtimoiy-psixologik kompetensiya [63].

Albatta, har bir faoliyat turi o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ma’lum bilimlarni, shuningdek, ko‘nikma va tajribani talab qiladi. Biroq, o‘qituvchining yuqori samaradorligini belgilaydigan bir qator omillar universaldir. Ushbu omillardan biri kasbiy kompetensiya deb nomlanishi mumkin. Yuqoridagi tarkibiy qismlarni iqtisodchi faoliyati nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqamiz:

Maxsus va kasbiy kompetensiya – bu ilmiy bilim va amaliy ko‘nikmalarning mohirona kombinatsiyasi. Iqtisodiyot sohasidagi mutaxassisning maxsus kompetensiyasi ikki tomonni o‘z ichiga olgan ilmiy kompetensiyaga asoslanadi: iqtisodiy fanni bilish (uning tarixi, metodologiyasi, metodologiyasi taddiqotlari, tushunchalar tizimiga ega bo‘lishi); shuningdek, olingan bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalari va qobiliyatlar.

Metodik kompetensiya eng qisqa vaqt ichida yaxshi natijalarga erishishni ta’minlaydigan kasbiy faoliyat metodologiyasini erkin egallashni o‘z ichiga oladi.

Differensial psixologik kompetensiya boshqaruv darajasidagi mutaxassislarga xosdir, chunki u bo‘ysunuvchilarning individual xususiyatlari, ularning qobiliyatları, iroda va xarakterning kuchli tomonlari, afzallikkleri va kamchiliklari to‘g‘risida xabardorlikni, shuningdek, ushbu xususiyatlarni jamoaviy faoliyatni tashkil etishda hisobga olish va ulardan kompetentli foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Auto-psixologik kompetensiya iqtisodchining kasbiy o‘zini takomillashtirish usullari, shuningdek, o‘z shaxsiyati va faoliyatining kuchli va zaif tomonlari, o‘z ishining sifatini oshirish uchun o‘ziga nisbatan nima va qanday qilish kerakligi to‘g‘risida xabardorligidan iborat. Otopsixologik fazilatlarning shakllanishi “ijtimoiy” aqlning rivojlanish darajasiga bog‘liq [63, p.106]. N.V. Kuzmina aqliy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlariga, javob berish va ijtimoiy tajribani to‘plash samaradorligiga, o‘zini anglash qobiliyatiga, shuningdek, shaxslararo voqealarni bashorat qilishga asoslangan barqarorlikni ijtimoiy aql deb ataydi. Ijtimoiy intellektning shakllanishiga hissiy xususiyatga ega, ruhiy holatlarga, intilishlarga va qadriyatlarga sezgirlik, boshqalar orasida ham, o‘zida ham sezgirlikning o‘ziga xos mavjudligi yordam beradi [63c.106].

Kommunikativ kompetensiya G.I.Metelskiy tomonidan maxsus tadqiqot mavzusi bo‘lgan [86]. Uning tadqiqotida muloqot kompetensiya o‘z-o‘zini anglashning muhim elementi sifatida ko‘rib chiqildi.

Natijadorlikning past darajadagi mutaxassislarning o‘z-o‘zini anglashi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: ularning kamchiliklarini cheklangan bilish va afzalliklar sonini oshirib yuborish; ularning intellektual va axloqiy-irodaviy

fazilatlari, kasbiy qobiliyatlarini va qobiliyatlarini to‘g‘risida xabardorlikning yetarli emasligi, ularni qayta baholashga moyilligi; asosan rahbarlardan kelib chiqadigan o‘z faoliyatini baholashga yo‘naltirish; ularning muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarining sabablarini tushunmaslik; uning ishida istaklarning past va yetarli bo‘lmagan darajasi. Ushbu toifadagi mutaxassislarning o‘zlari haqidagi bilimlari, ehtimol, informatsion rol o‘ynar, ammo ular o‘z-o‘zini takomillashtirishga olib kelmaydi.

O‘rta mahsuldorlik darajasidagi mutaxassislar o‘zlarining shaxsiyatini xilmal-xil tomonlarini yanada yetuk o‘z-o‘zini anglash va introspeksiyaga asoslangan holda faol aks ettirishga xos bo‘lib, subyektlar hamkasblari va bo‘ysunuvchilar bilan o‘zaro munosabatlarda namoyon bo‘ladigan faoliyatining afzalliklari va kamchiliklarini baholashda tanqidiyligi bilan ajralib turadi. Natijada, ular o‘zlarining axloqiy fazilatlarini, tashkiliy va kommunikativ ko‘nikmalarini yetarlicha baholaydilar. Biroq, o‘zlarining ijodiy muvaffaqiyatsizliklarining sabablarini to‘g‘ri tan olmaslik ularning istaklarini yetarlilik darajasini pasaytiradi. Shunga qaramay, shaxsiyat tuzilishidagi ba’zi o‘zgarishlar va faoliyatni sezilarli darajada qayta qurish mutaxassislarning aks etishi tartibga solish funksiyasini bajarishni boshlaganligidan dalolat beradi.

Yuqori darajadagi mutaxassislarning o‘zini o‘zi bilishi tajribaning barcha tarkibiy qismlarining uyg‘un kombinatsiyasi, boshqa odamlarni va o‘zini bilish asosida paydo bo‘ladi. Ular eng munosib o‘zini o‘zi qadrlash, o‘z shaxsiyati va faoliyatining afzalliklari va kamchiliklariga alohida sezgirlik, ijodiy muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini tushunish qobiliyati bilan ajralib turadi. Guruh mutaxassislari o‘zlarining kasbiy qobiliyatlarini mohirona tashxislashlari tufayli o‘z harakatlarini muvaffaqiyatli tartibga soladilar va kasbiy muammolarni hal qilishda yuqori darajadagi istaklarga erishadilar. O‘z-o‘zini takomillashtirish istagi ularni faol tartibga soluvchi xarakterga ega bo‘lgan chuqur va har tomonlama o‘z-o‘zini bilishga undaydi.

Mutaxassisning o‘zini o‘zi bilishi – bu o‘z shaxsiyati va faoliyatining turli tomonlarini mutaxassis tomonidan yetarli darajada idrok etish va tushunishga

yordam beradigan refleksiv gnostik vazifalarning ma'lum bir majmuini hal qilish jarayoni. Talablarning yo'nalishi va xususiyatini hisobga olgan holda, avtopsixologik kompetensiyani shakllantirish bilan bog'liq gnostik vazifalar shartli ravishda uch guruhga bo'linadi: a) idrok-refleksiv; b) diagnostik va s) bashoratli.

Yuqori darajadagi mutaxassislar o'zlarining shaxsiy fazilatlarining namoyon bo'lishini sezish va ularning o'zgarishini ko'rish, o'zlarining kasbiy faoliyati natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish, uni boshqalarning ishi bilan taqqoslash qobiliyati bilan ajralib turadi.

Ijodiy faollik va mahoratni namoyon etadigan samarali mutaxassislar o'ziga xos bilim va ko'nikmalarni, xarakter va qobiliyatlarni aniq baholashga qodir, ularning qiyinchiliklari, ishdagi muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarining sabablarini aniq ko'rishadi. Shuni ta'kidlash kerakki, kasbiy faoliyatdagi o'z muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarining sabablarini, ayniqla shaxslararo muloqot darajasida aniqlash barcha mutaxassislar guruhlari uchun eng qiyin diagnostika vazifasidir.

Bashoratli ko'nikmalar bashoratning to'liqligi va aniqligida ifodalanadi: ularning ishdagi muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari, xarakterologik neoplazmalar, kasbiy tajribadagi o'zgarishlar, munosabatlar tizimidagi o'zgarishlar, konstruktiv va tashkiliy sohalardagi qiyinchiliklar.

Ijtimoiy-psixologik kompetensiya deyarli har qanday malakali kasbiy faoliyat muloqot jarayoni ekanligiga asoslanib, har qanday mutaxassis, shu jumladan, iqtisodiyot sohasidagi faoliyatning ajralmas qismidir. Uning yakuniy natijasi professional, kasb-hunar ta'limi muassasasini bitirgan, o'z kasbiy munosabatlarini ishlab chiqarishda qanday qurishni biladigan yoki bilmaydigan mutaxassisning muloqot madaniyatida to'planadi.

Ijtimoiy-psixologik kompetensiya N.V.Kuzmina tomonidan "shaxsning shaxslararo munosabatlar tizimida atrofdagi odamlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati. Ijtimoiy-psixologik kompetensiyaning bir qismi ijtimoiy vaziyatlarda harakat qilish, boshqa odamlarning shaxsiy xususiyatlari va hissiy holatlarini to'g'ri aniqlash, ular bilan ishslashning yetarli usullarini tanlash va o'zaro ta'sir jarayonida

ushbu usullarni amalga oshirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi”, deya ta’riflangan [63,88-bet].

Shu bilan birga, mahorat “subyekt tomonidan o‘zlashtirilgan, olingen bilim va ko‘nikmalar majmui bilan ta’minlangan harakatni amalga oshirish usuli” deb tushuniladi [63,88-bet].

Mutaxassisning ijtimoiy-psixologik kompetensiyasi u ishlaydigan guruhlarda sodir bo‘ladigan muloqot jarayonlarida, guruhlar ichida sodir bo‘ladigan jarayonlarda, muloqot jarayoni qanday va qay darajada yordam berishini yoki aksincha, kerakli natijalarga erishishga to‘sinqinlik qilishini bilishni o‘z ichiga oladi [63, 88-bet].

V.P.Myasishchev va B.G.Ananev tomonidan taklif qilingan muloqot jarayonining tuzilishi mutaxassisning ijtimoiy-psixologik kompetensiyasi tarkibida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-idrok, muloqotning ichki tomonini aks ettiruvchi va kommunikativ, muloqotning tashqi tomonini aks ettiruvchi ikkita komponentni ajratishga imkon beradi [5,91].

Kasbiy kompetensiya tuzilmäsining ushbu tarkibiy qismi doirasida bir qator tadqiqotchilar kommunikativ kompetensiyani har qanday Soha bo‘yicha mutaxassisni tayyorlash sifatining ko‘rsatkichlaridan biri sifatida ko‘rib chiqadilar va chet tilini uning shakllanish omillaridan biri sifatida ajratadilar [32,33,43,49,69,109,112,136].

Shunday qilib, chet tillarini o‘qitish jarayonining uning kommunikativ jihatidan kasbiy kompetensiyani shakllantirish bilan bog‘liqligi to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin. N.I.Gez, I.A.Zimnyaya, A.A.Leontev, V.A.Skalkin, M.N.Skatkin, S.K.Flomkina, N.V.Shilak kabi o‘qituvchi va metodistlar ushbu jarayonni o‘rganishga bag‘ishladilar. Hozirgi zamon iqtisodchilari maxsus kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim. Ushbu kompetensiyalarga quyidagilar kiradi: kommunikativ, sotsiolingvistik, ta’limiy-kognitiv, lingvistik-madaniy, ijtimoiy va strategik, lingvistik-metodologik kabi kasbiy kompetensiyalar.

Bo‘lajak iqtisodchilarning lingvistik kompetensiyasi uning til tizimini bilish va chet tilida muloqotga kirishish qoidalarini tushunishini anglatadi. Sotsiolingvistik

kompetentlikka ona tili va chet tili madaniyati kiradi. Mazkur kompetensiya ma'lum lingvistik shakllarni tanlashga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi.

Bu jarayonda bo'lajak iqtisodchilarning lingvistik va madaniy bilimlari ko'zda tutiladi. Uning asosiy xususiyatlari tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va ularning nutqiy muloqotda qo'llay olishi hisoblanadi.

Bo'lajak iqtisodchilarning kommunikativ kompetensiyasi til bilimlarini idrok qilish qobiliyatini nazarda tutadi. Shu asosda chet tilidagi matnlarni yaratish o'qituvchiga kommunikativ vazifa qilib qo'yiladi. Ushbu kommunikativ kompetensiyada talabalarning muloqot jarayoni ishtirokchilari sifatida harakat qiladigan kompetentligi, matnlarni yaratishi tushuniladi.

Bo'lajak iqtisodchilarning o'qish orqali ma'lum bilimlarni egallash kompetentligi o'qish texnikasini egallash va chet tillarni o'rganish strategiyasi, talabalar uchun yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash va uni rivojlantirishni o'zida aks ettiradi.

Bo'lajak iqtisodchilarning lingvistik kompetentligida talabalarning aqliy bilimlar va nutqiy faoliyatini tashkil etish, ularning nutqni rivojlantirish bo'yicha pedagogik faoliyati, nutqni nazorat qilish va boshqalar muhim hisoblanadi, ularga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ijtimoiy kompetensiya - Bo'lajak iqtisodchilarning istak va qobiliyati, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishishini aks ettiradi. Ushbu jarayonda strategik funksiyalar, keyingi faoliyatida yordam beradigan lingvodidaktik strategiyalarni ishlab chiqish, ta'limning yangi texnologiyalarini tanlash masalasida o'qituvchi va talabalarning yosh xususiyatlarini inobatga olish shart ekanligini ta'kidlash kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan lingvistik va kommunikativ kompetensiyalardan tashqari, N.L.Moskovskayaning fikriga ko'ra, Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligi quyidagi kompetensiyalarni o'z ichiga oladi: umumiyl madaniy, psixologik-pedagogik, mavzuiy-uslubiy va axborot-texnologik kompetensiyalar bo'lib, ularni konseptual komponentlar, deb ataymiz [52; 27-b.].

Bu yerda metodist olima, I.A.Zimnayaning quyidagi mulohazalarini aytib o'tish kerak: "o'qituvchilik kasbini tanlagan kishi o'zi uchun mas'uliyatni o'z

zimmasiga oladi, u o‘qitadi va tarbiyalaydi, shu bilan birga o‘zi uchun, o‘zining kasbiy tayyorgarligi, haqiqiy o‘qituvchi va tarbiyachi bo‘lish uchun mas’uldir” [43; 72-b.].

Zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyalari ta’limda modernizatsiyalashni talab qiladi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni muhim o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida o‘qitishga ta’sir etuvchi tizimli o‘zgarishlar, o‘quv predmetining mazmuni, baholash tizimi va ta’lim texnologiyalaridan foydalanish tobora dolzarblashib bormoqda. Ular doimiy rivojlanib va yangilanib boradi.

Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida “kasbiy kompetentlik” o‘qitish sifatining ko‘rsatkichi sifatida qaraladi, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining tayyorligi belgilangan darajasiga qarab, ta’limning asosiy strategik maqsadi sifatida kasbiy funksiyalarni bajarish orqali o‘zining tarbiya va o‘z kasbiy tayyorgarligiga qarab o‘qituvchilar yordamida mazkur konsepsiya aniqlashtiriladi va kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirish ilgari suriladi.

Ta’kidlash kerakki, chet tillarni puxta o‘zlashtirishda strategiyalar juda katta rol o‘ynaydi. Ular ta’lim-tarbiya tizimini samarali va natijali bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi, ushbu jarayonni yaxshilashga, barcha xususiyatlarini takomillashtirishga qaratiladi. Strategiyalar metodologik tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Ular “nutq ma’lumotlarini qayta ishslashning o‘ziga xos usullari majmuini ifodalaydi, strategiyalar lisoniy va tushunchaviy axborotni xotirada tushunish, o‘zlashtirish, saqlashni va uni nutqda til orqali ko‘paytirishni ta’minlaydi” [48; 109-b.].

A.N.Shamov fikriga ko‘ra, bu tushunchani “talabalar tomonidan xorijiy tildagi so‘z birikmalarini qo‘llash va idrok qilish jarayonida nutqiy muloqot vazifalarini hal qilish uchun leksik axborotni olish va saqlash, so‘zlarni jamlash, xotiradan chiqarish jarayonini optimallashtirish uchun ishlatiladigan harakatlar va operatsiyalar”, deb ta’riflaydi [80; 215-b.].

Ayrim olimlar til o‘rganish strategiyasini “talabalar tomonidan til tizimi va nutq qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha bilimlarni tushunish, yodlash va ulardan

foydanish uchun ishlataladigan intellektual texnika va sa'y-harakatlarning kombinatsiyasi”, deb hisoblaydi [85; 23-b.].

R.P.Milrudning fikriga ko'ra, ta'lim strategiyalari “o'z ta'limotini tashkil etishga oid afzal yechimlar”, deb yuritiladi [141; 78-b.].

Ana shundan kelib chiqib, yuqorida aytib o'tilgan o'qitish strategiyalari o'quv-tarbiya tizimini soddalashtirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda talaba-yoshlarning psixologik hamda shaxs xususiyatlarini, chet tilini o'rgatishning o'ziga xos o'quv-bilish usullarini hisobga olish kerak. Mazkur sohaning yetakchi olimlari strategiyalarni ikkiga bo'lib o'rganadilar. Ular o'zlarining ilmiy izlanishlarida bu tushunchani asosiy va yordamchi turlarini tadqiq qiladilar. Tadqiqotchilar asosiylarini quyidagicha ta'riflaydi: 1) ovoz, harakatlar, uyushmalar yordamida mantiqiy bog'lanishlarni yaratishga qaratilgan strategiyalar; 2) qiyosiy tahlil qilish, o'rganilganlarni umumlashtirishga qaratilgan strategiyalar; 3) yuz ifodalari va imoshoralar yordamida til vositalari yetishmasligini bartaraf etish, til kodlarini almashtirish, sinonim va parafrazlardan foydanish, til vositalaridan foydanishga qaratilgan strategiyalar. Quyidagilar yuqoridagilarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi: 1) maqsadni belgilash, ishni rejalashtirish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini hurmat qilish faoliyati mashqlari va uning natijalari; samarali ish uchun sharoit yaratishga qaratilgan strategiyalar; 2) motivatsion va psixologik holatlarni bartaraf etish; tasdiqlash va muvaffaqiyatga erishish uchun o'z-o'zini rag'batlantirish; hissiy o'z-o'zini nazorat qilishga qaratilgan strategiyalar; 3) sheriklarni o'qitish, hamdardlik, boshqa madaniyatlarga kirib borish va suhbatdoshning qobiliyatları, imkoniyatlari va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda hamkorlik va uni o'z ichiga olgan ijtimoiy strategiyalar. Qayd etilgan strategiyalar chet tilini o'qitishning murakkab jarayonida ma'lum darajadagi funksiyalarni bajarib keladi.

Tilning va ta'lim-tarbiyaning rivojlanishini aks ettiruvchi o'zgacha qarashlar dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari mahsuli bo'lib, ular ushbu rivojlanishning mihim o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi.

Ma'lumki, o'qituvchi shaxsi ta'lim-tarbiya ishlarida har doim yetakchilik

qilgan, shuning uchun uning bilim saviyasini oshirish, kasbiy mahoratini o'stirish muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda ta'lim-tarbiya tizimining taraqqiyoti asosan o'qituvchi bilimi, pedagogik mahoratini oshirib borishga bog'liq bo'lib, bu jarayonda yangi pedagogik va axborot texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarda "kompetensiya" tushunchasi nisbatan yaqinda keng tarqaldi. Shunday qilib, 1960-yillar oxiri va 1970-yillar boshida G'arbda, 1980-yillar oxirida esa rus adabiyotida maxsus yo'nalish-ta'linda kompetentlik yondashuvi paydo bo'ladi. O'qitish metodikasining fan sifatida shakllanishida "kompetensiya" so'ziga yetarli izoh keltirilmagan. Uning ma'nosini aniqlashtirishda tadqiqotchilar tomonidan har xil fikr-mulohazalar bildirilgan.

Tadqiqotchi Jon Raven o'z ilmiy izlanishlarida har tomonlama barkamol mutaxassisning kasbiy sifatlarini ochib berishga harakat qilgan. U shunday yozadi: "kompetensiya kasbiy faoliyatni olib borishda muhim hisoblangan qobiliyatni anglatadi u yetuk mutaxassisning bilimi, malaka va ko'nikmalaridan tashkil topadi. Shu bilan birga, u mulohaza yuritish usullari, mas'uliyatni anglab yetishni ifodalaydi [58; 204-b.].

Keyingi yillarda N.V.Kuzmina [47], G.V.Zaxarova [105] va N.D.Galskova [34; 103]ning asarlari paydo bo'ldi, ular kompetensiyani "shaxs mult", deb belgilaydi. I.L.Bim [28; 129], I.A.Zimnaya [40], A.K.Markova [49], T.I.Kapitonova [45], A.N.Shamov [112], A.N.Shukin [94] va G.T.Maxkamova [106]lar hozirgi vaqtda kompetentlik muammosini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Ushbu olimlar asarlarida kompetentlik tushunchasi professionalizm tushunchasi bilan uzviy bog'liq holda tasvirlangan.

Bu davrda kompetentlik tushunchasi va uning turlarini belgilash muammosi bilan birga "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari o'rta sidagi munosabatlar haqida savol tug'iladi.

Ko'plab ilmiy izlanuvchilarda "kompetensiya" tushunchasi qatorida ilmiy adabiyotlarda har xil ta'rif berilgan "kompetentlik" tushunchasiga ham izoh berilgan. "Kompetensiya" va "kompetentlik" atamalari o'qitish usullari bo'yicha

tadqiqotlarda keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Psixologiya-pedagogika bo‘yicha tadqiqot ishlarida (T.I.Kapitonova [45], V.V.Safonova [62], V.V.Serikov [65], I.A.Zimnaya [134], N.F.Koryakovseva [46], N.V.Kuzmina [47], G.K.Selevko [142], A.V.Xutorskoy [150; 151] va hokazo), shuningdek, pedagogik amaliyotda ushbu atamalar, muhim muammo sifatida tadqiq qilinmoqda. Shu jihatdan ko‘plab olimlar bu sohada o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan, ularning mazkur tushunchalar bo‘yicha tavsiflari turlicha bo‘lib, ular bir-biridan farq qiladi. Tadqiqotchilarining birinchi yo‘nalishi V.V.Trofimova [73], A.N.Shukin [83], E.N.Solovova [71], V.V.Serikov [66; 143] kabilar tushunchalar ma’nosini aniqlash, kompetensiyalardan amalda foydalanishga katta e’tibor qaratish kerakligini va muhim ahamiyat kasb etishini aytib o‘tadilar. I.A.Zimnaya [42], T.V.Chernikova [67], A.V.Xutorskoy [77], V.A.Slastenin [68], V.A.Bolotov [130] kabi olimlar ikkinchi yo‘nalish tarafdarlari hisoblanib, ular kompetentlikni birlamchi kategoriya sifatida belgilaydi. Metodist olim I.A.Zimnaya [41] kompetensiya tushunchasini insonning ayrim ko‘rinmas bilimlari, qarashlarini ifodalaydigan tizim sifatida namoyon bo‘lishi, deb tasavvur qiladi.

Tadqiqotchi A.V.Xutorskoy kompetensiyani Bo‘lajak iqtisodchilarining kasbiy pedagogik faoliyatiga yordam beradigan, talabaning esa bilimlarni egallashi uchun “ijtimoiy talab” deb tushunadi. Olimning fikriga ko‘ra, kompetentlik – “ma’lum ijtimoiy muhit hisoblangan kasbiy faoliyat davomiyligi va natijalaridan kelib chiqqan holda, kompetentlik, talabaning individual xususiyatlari tizimiga ega bo‘lishni anglatadi” [77; 110-b.]. Olim ushbu tushunchani kasbiy malaka, ko‘nikma, qobiliyat va ulardan ma’lum kasbiy faoliyatda foydalanishga tayyorlik, kompetentlikning mutaxassislik sifatidagi faoliyatga alohida e’tibor berish ko‘rinishida qaraydi. G.K.Selevko [63], V.V.Safonova [61], G.S.Trofimova [74], S.F.Shatilov [82] kabi olimlar ushbu sohada tadqiqotlar olib borishgan va bu tushunchani holatni ifodalaydigan faoliyat, deb hisoblaydilar. Shuningdek, ular kompetentlikni ma’lum holatlarda kasbiy malaka va ko‘nikmalardan foydalanish qobiliyati, deb tushunadilar. Demak, bu narsa “kasbiy faoliyat bilan band bo‘lish qobiliyatining darajasi sifatida namoyon bo‘ladi” [64; 82-b.].

Tadqiqotchilar Z.M.Svetkova [78], A.N.Shamov [80], E.N.Solovova [72], A.A.Ashurov [95] kompetentlik tushunchasini kasbiy pedagoglikning darajalaridan biri ko‘rinishida tatbiq etadilar, bu narsa o‘qituvchi kasbiy faoliyatining asosini tashkil qiladi. Bu sohada mavjud bo‘lgan ilmiy qarashlarga tayangan holda, kasbiylikni ifodalaydigan xususiyatlar ijtimoiy-kasbiy ixtisoslik, kasbiy qobiliyat, nutq madaniyati va temperament hisoblanadi.

E.M.Vereshagin [32], V.G.Kostomarov [32], F.M.Rashidova [19] kabi olimlar kasbiy kompetensiyani kasbiy bilim, malaka, ko‘nikmalar hamda psixologik xususiyatlarni namoyon qilish darajasi deb belgilashadi, ushbu fazilatlar kasbiy pedagogik faoliyat yuritish uchun muhim omillar hisoblanadi.

Ushbu sohada V.A.Slastenin ham fikr yuritib, quyidagilarni ta’kidlaydi: “Bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi. U Bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyasini ma’lum darajadagi yondashuv nuqtayi nazaridan insonning turli darajadagi pedagogik vazifalarning turli sinflarini hal qilish qobiliyati”, deb hisoblaydi [144; 8-12-b.].

Bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasi ta’lim-tarbiya ishlarida qatnashayotgan shaxslar o‘rtasidagi muloqotga kirishish qobiliyatini anglatadi. Bunday muloqot shaxsiy insoniy munosabatlar asosida tashkil etiladi. Chet tili o‘qituvchilarining kasbiy mahorati va tayyorligi natijasida talabalarning kasbiy-pedagogik va o‘zaro muloqotini rivojlantirishga erishiladi.

“Pedagogik kommunikativ kompetentlikni o‘qituvchi tomonidan kognitiv, xulq-atvor va emotiv darajalarda egallah, umuman, ta’lim jarayonida ular bilan bevosita o‘zaro hamkorlikda talabalarning yuqori darajadagi tayyorgarligi, axloqiy tarbiyasi va gumanistik sifatlarini rivojlantirishni ta’minlaydi” [75; 78-b.].

M.N.Ermolenko va V.A.Mijerikov kabi olimlar “Bo‘lajak iqtisodchilarning professional malakasi” atamasidan foydalanadi va uni “o‘qituvchi, pedagogning shaxsiy qobiliyatları, o‘zi yoki ta’lim muassasasi ma’muriyati tomonidan shakllantirilgan pedagogik vazifalarni mustaqil va yetarlicha samarali hal qilish imkonini beradi”, deb hisoblaydi [50; 14-b.].

Ba’zi olimlarning tadqiqotlarida kasbiy kompetentlik tushunchasi “shaxsning ma’lum faoliyat bo‘yicha qilgan ishlari, ta’lim-tarbiya funksiyalarining modellashtirilishi va yechimini topish, shu bilan birga, ularning hal etilishi natijadorligini bashorat qilish qobiliyati va unga tayyorligi” sifatida namoyon bo‘ladi, deb ta’kidlanadi.

V.M.Sokolov, V.V.Sokolova va L.N.Zaxarovalarning fikriga ko‘ra, “kasbiy mahoratni komil inson bo‘lib shakllanayotgan shaxsni ijtimoiylashtirish, yuzaga kelgan muammolarni yechimini topish qobiliyati, o‘z mutaxassisligini taraqqiy ettirish orqali jamiyatga shaxsning integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar bilan ta’minalash, faoliyatdagi ma’naviy tajriba, o‘zini faol amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish, deb tushunish lozim” [38; 54-b.].

Ushbu olimlar Bo‘lajak iqtisodchilarning asosiy pedagogik vazifalarini amalga oshirishni ta’minalovchi kasbiy pedagogik mahoratni aniqlaydilar. Shundan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish tavsiya qilinadi:

I. Ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik vazifalarni aniqlash:

1) Axborotga qaratilgan vazifa lingvistik va ekstraliningvistik ma’lumotlarni yetkazish maqsadlarini belgilash bilan bog‘liq.

2) Motivatsion-rag‘batlantiruvchi vazifa o‘qituvchi tomonidan talabaning bilish va nutq faoliyatini rag‘batlantirish usullarini topishni izlashni o‘z ichiga oladi.

3) Rivojlantiruvchi vazifa, bu yerda har bir talabaning chet tilidagi matnni o‘qib tushunish qobiliyati darajasini, berilgan mavzuning imkoniyat va xususiyatlarini inobatga olgan holda talaba shaxsini, uning kasbiy bilim kompetensiyalari va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

4) Tarbiyaviy funksiyasi talabalarning har tomonlama barkamol taraqqiyotini ta’minalash; ularning ma’naviy, estetik tarbiyasi; talabaning ijtimoiy va hayotiy pozitsiyasini belgilovchi qadriyatli yo‘nalishlar tizimini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

II. Operativ va tuzulmaviy vazifalar:

1) Konstruktiv-rejalashtirish vazifasi loyihalash faoliyatining uch asosiy turini o‘z ichiga oladi: a) konstruktiv-ma’naviy; b) konstruktiv-operativ; v) konstruktiv-moddiy.

2) Tashkiliy vazifa Bo'lajak iqtisodchilarning konstruktiv-rejalshtirish faoliyati bilan organik bog'langan holda tashkilotchilik ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

3) Kommunikativ o'qitish shundan iboratki, o'qituvchi o'quv jarayonini kommunikativ lingvistik amaliy talablar asosida qurishi kerak.

4) Tadqiqot vazifasi boshqa o'qituvchilar tajribasini o'rganishda alohida talabalar, talabalar guruhlarini o'rganishda, ularning pedagogik faoliyati natijalarini tahlil qilish va sharhlashda o'quv materiali va o'quv qo'llanmalarida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak iqtisodchilarni yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga tayyorlash o'quv rejasidagi barcha fanlar: ijtimoiy, psixologik-pedagogik, lingvistik, psixologik-metodik jihatdan amalga oshirilishi kerak. Ular talabalarni tanlangan kasbni egallash uchun zarur bo'lgan ilmiy bilim va kasbiy muhim ko'nikmalarning muayyan tuzilmasi bilan jihozlashlari lozim [83; 178-b.]

N.D.Glaskova muhim kasbiy ko'nikmalarni "pedagogik qobiliyatni, psixologik va uslubiy tomondan to'g'ri tashkil etilgan madaniyatlararo muloqotda ishtirok etish qobiliyatini aniqlash talabalarning shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirish", deb tushunadi. [35; 162-b.]

Shuni aytish lozimki, Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligi tuzilishini uning kasbiy ongi va pedagogik fazilatlari taraqqiy qilishi asnosida ayrim komponentlar yordamida ochib berilishi mumkin, Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligi "sintezlash, mazmuniy va tarkibiy qismlarning bog'liqligi, psixologik-pedagogik, metodologik, kommunikativ, filologik, umumiy madaniy, axborot, ijtimoiy va boshqaruv kompetensiyalari orqali amalga oshiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir".

Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini baholash doimo olimlar va metodistlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. E.I.Passov o'qituvchi uslubiy ko'nikmalarining besh turini belgilaydi (dizayn, moslashtirish, tashkiliy, kommunikativ va tadqiqot) va bo'lajak iqtisodchilarning besh shaxsiy xususiyatlari

(umumiyl fazilatlar, psixologik zukkolik, amaliy va psixologik fikr, psixologik xushmuomalalik, boshqalarga tanqidiy talab)ni ko'rsatib o'tadi. Uslubiy ko'nikmalar va shaxs xususiyatlarini E.I.Passov kasbiy mahoratning uch darajasida uslubiy savodxonlik darajasi, uslubiy hunar darajasi va uslubiy mahorat darajasida ko'rib chiqadi [55; 92-b.].

Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy faoliyatida ijtimoiy-madaniy bilim, ko'nikma va qobiliyatlarning muhim ekanligini ta'kidlab, unda kasbiy muammolar bo'yicha madaniyatlararo munozaralarda, madaniyatlararo kasbiy muloqotda bevosita qatnashish talab etiladi, V.V.Safonova ushbu yo'nalish mutaxassislari orasida ikki madaniyatli kasbiy va pedagogik kompetentlikni rivojlantirish zarurligini belgilaydi. Muloqot o'z tarkibiga til, nutq, lingvomadaniy, madaniy va mavzuiy kompetensiyalar kiradigan integrativ, bikultural hodisa hisoblanadi [60; 76-b].

Kasbiy kompetensiya kabi murakkab hodisani o'rganish uning shakllanishi va rivojlanishining tashqi va ichki omillarining o'zaro ta'siri nuqtayi nazaridan uning shakllanish jarayonini jiddiy tahlil qilmasdan mumkin emas. Birinchisi, jamiyatning rivojlanish darajasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari, shuningdek, albatta, kasbhunar ta'limi tizimi, uning mazmuni, o'quv jarayonini tashkil etish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi. Ushbu omillarning barchasi ushbu ilmiy mavzuga nisbatan alohida ko'rib chiqish va tahlil qilishni talab qiladi.. Subyektiv omillar haqida gapirganda, biz birinchi navbatda shaxsning aqliy xususiyatlarini nazarda tutamiz.

Kasbiy faoliyatning psixologik asoslarini o'rganishga B.G.Ananев, A.G.Velsh, V.V.Davidov, Ye.R.Zeyer, S.B.Kaverin, Yu.A.Korelyakov, A.N.Leontev, B.F.Lomov, V.N.Myasishev, V.L.Osovskiy, S.L.Rubinshteyn, V.D.Shadrikov, R.X.Shakurov va boshqalarning tadqiqotlari bag'ishlangan.

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish masalalarini tashqi va ichki ta'sirlarni xatti-harakatlar bilan bog'laydigan aqliy hodisalarni bilmasdan yoritib bo'lmaydi. V.D.Shadrikovning so'zlariga ko'ra, kasbiy faoliyat "... talaba oldida normativ tasdiqlangan faoliyat usuli shaklida paydo bo'ladi. Kasbni o'zlashtirish jarayonida

odam usulni belgilaydi va normallashtiradi, uni individual faoliyat uslubiga aylantiradi. Kasbni egallashning ichki tomoni faoliyat subyektining individual fazilatlari asosida, ularni faoliyat motivlari, maqsadlari va shartlaridan kelib chiqqan holda qayta tashkil etish orqali faoliyatning psixologik tizimini shakllantirishdir. Faoliyat jarayonida individual fazilatlar, uning talablari ta'siri ostida, ushbu talablarga moslashish orqali rivojlanadi” [134,11-bet].

N.V.Kuzminaning so‘zlariga ko‘ra, shaxsning kasbiy mahoratining asosiy tizimli shakllantiruvchi omili mutaxassis izlayotgan istalgan natijaning tasviridir. Unga erishish zarurati, unga erishish bilan bog‘liq faoliyat, unga erishish choralarini tahlil qilish, uni olishga yordam beradigan va to‘sinqinlik qiladigan sabablarni izlash va shaxsning professionalligini shakllantirish [63, 112-bet]. Shunday qilib, kasbiy kompetensiya darajasida faoliyatni rivojlantirish quydagilarni o‘z ichiga oladi: faoliyat maqsadini shakllantirish; faoliyatning axborot bazasini o‘zlashtirish; faoliyatning ijro etuvchi qismini yaratish; kasbiy va muhim fazilatlar tizimini tarbiyalash[133, 34-68-betlar]. Yuqorida sanab o‘tilgan tarkibiy qismlarning har biri muhim tizimni tashkil etuvchi bo‘g‘in bo‘lib, batafsilroq ko‘rib chiqishga loyiqdir.

“Inson hayotiga nazar tashlab, biz ruhiy hodisalar qanday qilib uning to‘qimalariga shartli ravishda yashash sharoitlariga bog‘liqligini va odamlarning xatti-harakatlarini belgilaydigan bu sharoitlar o‘zgarib borayotganini ko‘ramiz”[109,87-bet]. Va keyin: “motivlar, munosabatlar, munosabat – bu idrok, fikrlash va boshqalarni o‘rganishda hisobga olinishi kerak bo‘lgan zaruriy jihat; bu holda biron-bir jarayonni to‘liq, aniq o‘rganish mumkin emas” [109,88 - bet], deb yozadi S.L.Rubinshteyn.

Kasbiy faoliyat bilan bog‘liq omillarni baholash, ularning qobiliyatlarini, shuningdek, faoliyatini hisobga olgan holda ehtiyojlarni qondirishga qodir bo‘lgan kishi kasbni qabul qilishga yoki qabul qilmaslikka qaror qiladi va agar qabul qilinsa, qaysi darajada va qaysi jihatdan. Bu, shuningdek, kasbiy kompetensiyani shakllantirish sifatiga ta’sir qiladi [33].

Professionallashtirishning psixologik-pedagogik konsepsiysi va mutaxassisning shaxsiyati va kasbiy mahoratini tavsiflashning tegishli psixologik

modeli zarur kasbiy motivlar tuzilishini tavsiflash blokini o‘z ichiga oladi [44,46,80,112].

Kasbning ahamiyatini anglash, uning ijtimoiy talabi ko‘p jihatdan ta’limning muvaffaqiyatli xususiyatini belgilaydi va yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni kafolatlaydi. So‘nggi yillarda kasbiy xulq-atvor motivlari quyidagilarga taqsimlandi:

- kasbning maqsadini tushunish motivlari;
- o‘z navbatida faoliyat-protsessual va faoliyat-samarali motivlarni birlashtirgan kasbiy faoliyat motivlari.

Protsessual nuqtayi nazardan faoliyatga qiziqish quyidagilarga imkon beradi:

- uni amalga oshirishning maksimal puxtaligiga erishish, bu olingan natija sifatida aks ettirilib, shaxsning professionalligini oshirishga yordam beradi;
- kasbiy muloqot motivlari (kasbning jamiyatdagi obro‘sni, ijtimoiy hamkorlik va kasbdagi shaxslararo muloqot).

Samarali professional muloqot har qanday soha mutaxassisining ijtimoiy-psixologik kompetensiyasiga erishishning eng muhim shartidir;

- kasbda shaxsning namoyon bo‘lish motivlari, shu jumladan, kasbda shaxsning rivojlanishi va o‘zini o‘zi anglashi, shuningdek, kasbda shaxsning rivojlanishi [133, 75-bet].

Yuqoridagi sabablarni har tomonlama hisobga olish va xabardor qilish mutaxassisning kasbiy mahoratini shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan har qanday ilmiy tadqiqotning asosidir.

Faoliyatning axborot asosi odatda faoliyatning obyektiv va subyektiv sharoitlarini tavsiflovchi va uning natijalariga muvofiq faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan ma’lumotlar majmui sifatida tushuniladi. Birinchi bosqichda o‘qituvchining vazifasi kasb-hunar ta’limi talabalarda faoliyatning yakuniy natijasi to‘g‘risida tasavvurni shakllantirishdan iborat. Kasbiy faoliyatning samaradorligi ko‘p jihatdan faoliyatning axborot asoslarining yetarliligi, aniqligi va to‘liqligi bilan belgilanadi. Uning shakllanishini uchta asosiy darjasasi mavjud: xissiy-perseptiv, kognitiv, majoziy-operativ [133, 49-bet].

Xissiy-perseptiv darajada idrok etish mexanizmlarining shakllanish qonuniyatlari o'rganiladi, ularning yordamida professional va muhim ma'lumotlarni olib yuradigan signallar aks ettiriladi.

Kognitiv darajada signallarning kasbiy ahamiyati o'rganiladi, ya'ni sezgi organlari tomonidan ishlab chiqarish faoliyati uchun yetkazilgan ma'lumotlarning qiymati aniqlanadi.

Obrazli-operativ darajada individual axborot xususiyatlarini yaxlit tasvirlarga birlashtirish qonuniyatlari o'rganiladi, ularning asosida dasturlash va faoliyatni tartibga solish amalga oshiriladi [133,50-bet].

Faoliyatning axborot bazasini shakllantirishning haqiqiy jarayonida bu jarayonlarning barchasi o'zaro bog'liqdir. Shunday qilib, sezilgan signallarning amaliy ahamiyatini aks ettirmasdan sezgi-idrok mexanizmlarini shakllantirish mumkin emas. Hissiy tajriba elementlarini farqlashni takomillashtirish ko'p jihatdan qabul qilingan ma'lumotlarning ahamiyatini anglashga bog'liq va hissiy-idrok mexanizmlarining rivojlanishi ularning sezgi organlari tomonidan yetkazib beriladigan ma'lumotlarning qiymati belgilanadigan faoliyatga qo'shilishi bilan bog'liq [133, 54-58-betlar].

Kasbiy faoliyat tuzilishining uchinchi elementi qaror qabul qilish mexanizmidir. Kasb tanlash to'g'risida qaror qabul qilish, kasbiy faoliyatning shaxsiy ma'nosini belgilash mutaxassislikni o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish va kasbiy kompetensiyani yanada shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. V.D.Shadrikovning fikriga ko'ra, qaror qabul qilish blokini shakllantirish qarorlarni ishlab chiqishning hal qiluvchi qoidasini ishlab chiqish va ularga ustunlik berish bilan bog'liq [134, 65-bet].

Umuman olganda, kasbiy muhim fazilatlar haqida gapirganda, biz uning samaradorligiga ta'sir qiluvchi faoliyat subyektining individual fazilatlarini nazarda tutamiz.

Biroq, kasbiy kompetensiyani shakllantirish omillarini aniqlash tashqi sharoitlarni chuqur va har tomonlama tahlil qilmasdan, ularning kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirishga ta'sirisiz mumkin emas.

Radikal iqtisodiy islohot, bozor iqtisodiyotiga o‘tish insonlarning turmush darajasini yaxshilash vositasi sifatida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu bizning ko‘p tarmoqli iqtisodiyotimizni raqobatbardosh munosabatlarga jalg qilishni o‘z ichiga oladi, bu esa yuqori samarali texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni talab qiladi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muvaffaqiyati insonga, uning bilim va tajriba bilan qurollanishiga, iste’dodi va mas’uliyatiga, kasbiy mahorat darajasiga bog‘liq. Inson ishlab chiqarish omilining rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning haqiqiy omili tezroq yaxshilanadi va samaraliroq ishlatiladi. Inqirozdan chiqish yo‘li ta’limga sarmoya kiritish bilan boshlanadi.

“Ta’lim tizimi” tushunchasi murakkab va ko‘p darajali hodisadir. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish asoslari aynan kasbiy ta’lim muassasalari devorlarida va ushbu jarayon qanchalik samarali amalga oshirilayotganiga va mutaxassisning keyingi kasbiy shakllanishiga bog‘liq. O‘z navbatida, o‘quvchining shaxsiga samarali ta’sir qilish shartlarini tashkil etish umuman ta’lim tizimining tuzilishi va qonuniyatlarini puxta bilmasdan turib mumkin emas.

“Ta’lim” atamasi ta’rifining asosiy so‘zi, shubhasiz, “tizim” so‘zidir, chunki tizimsiz, tasodifiy olingan bilim va ko‘nikmalarni ta’lim, deb hisoblash mumkin emas. Shu munosabat bilan ushbu hodisani har tomonlama tahlil qilish uchun biz ilmiy tadqiqotning asosiy usullaridan biri sifatida tizimli yondashuvdan foydalananamiz.

Tizimli tadqiqotning asosiy konseptual apparati sovet faylasuflari I.V. Blauberg, Ye.G.Yudin va boshqa olimlarning asarlarida berilgan. Ularning ishlarini tahlil qilishdan kelib chiqadiki, tizim ajralmas xususiyatlar va qonuniyatlarga ega bo‘lgan barqaror birlik va yaxlitlikni tashkil etuvchi o‘zaro bog‘liq elementlar majmui sifatida taqdim etiladi [141].

Pedagogik hodisalarini tahlil qilishga tizimli yondashuvni ishlab chiqish

Yu.K.Babanskiy, V.I.Juravlev, N.F.Talizina, N.V.Kuzmina, V.P.Bespalko va boshqalar tomonidan amalga oshirildi. Ular ta’lim tizimini ta’lim, yosh avlod va kattalar ta’limi maqsadlariga bo‘ysunadigan o‘zaro bog‘liq tarkibiy va funksional tarkibiy qismlar majmui sifatida belgilaydilar.

Har qanday tizim o‘zaro bog‘liq obyektlarning yaxlit majmuini ifodalaydi va elementlardan, atrof-muhit bilan va yuqori darajadagi tizimlardan iborat. Tizimni o‘rganish strukturani, uning elementlari o‘rtasidagi eng muhim muloqotlarni o‘rganish va ularning butun tizimni xatti-harakatlariga ta’sirini aniqlashdan iborat [130,36-bet].

O‘zbekiston Respublikasi hukumatining tarkibiy va investitsiya siyosati, iqtisodiyotdagи tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish prognozlari va dasturlari hamda uning tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadi, iqtisodiyotni inqirozdan chiqarish, uni barqarorlashtirish va yanada rivojlantirishning asosiy strategik yo‘nalishi ichki va tashqi bozorlarda mahalliy tovarlarning zarur darajada raqobatbardoshligini ta’minlash bo‘lishi mumkin.

Ishlab chiqarishning istiqbolli yo‘nalishlarining ushbu darajaga chiqishini belgilovchi eng muhim omillar yangi ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish, o‘zlashtirish va joriy etish, mavjud texnologiyalar va uskunalarni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishning resurs va energiya sarfini sezilarli darajada kamaytirishni, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori ekologik xususiyatlarini va texnologiyalarga ekologik talablarni ta’minlashdir [47, b. 3].

Ushbu dasturlarni amalga oshirish tegishli kadrlar ta’minotini talab qiladigan keng ko‘lamli innovatsion, ilmiy-tadqiqot, tajriba-tajriba va amalga oshirish ishlarini joylashtirish zarurati bilan bog‘liq. Shu sababli, iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlari va tarmoqlari bo‘yicha muhandislik-innovatsion, iqtisodiy va ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash yaqin va uzoq istiqbolda asosiy vazifaga aylanishi kerak.

Oliy ta’lim muassasalari ilmiy-tadqiqot va muhandislik-innovatsion ishlarga qobiliyat va moyillikka ega yoshlarni intensiv izlash va tanlashni nazarda tutuvchi tegishli kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan dasturlar va texnologiyalarni, fundamental tayyorgarlik darajasini oshirishga, kasbiy va ijodiy fazilatlarni rivojlantirishga, texnologiyalar va vositalarni loyihalash va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishi zarur innovatsion jarayonning butun tizimini real amalga oshirishga asoslangan yangi ilmiy-texnik yechimlarni, mutaxassislarni tayyorlash modellarini izlash - dizayndan tortib muhandislik dizayni va iste’molchida rivojlanishni amalga oshirishgacha.

Oliy ta’lim mazmunini shakllantirishga ta’sir etuvchi uchinchi omil-bu shaxsnинг manfaatlarini qondirish, rivojlanish, madaniyatga ega bo‘lish, ta’limni o‘zgartirish va davom ettirish, kasblarni o‘zgartirish va hokazolarni va bu yerda biz ushbu jarayonda “ingliz tili” fanining imkoniyatlari haqida gapirishimiz mumkin[47,S. Z].

Shunday qilib, kasbiy kompetensiyani shakllantirishning eng samarali jarayonini tashkil qilish uchun ushbu hodisa o‘quv jarayonini tashkil etish uchun asosiy ilmiy va uslubiy talablarga qanchalik javob berishini hisobga olish kerak. Ushbu talablarni kasbiy kompetensiyani shakllantirish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqamiz.

Rivojlangan professional malakali mutaxassisni shakllantirish eng muhim shartidir. Ma’lumki, kasbiy tayyorgarlikning sifati bevosita kelajakdagи mutaxassislarning umumiy ilmiy bilimlarining xususiyatiga bog‘liq. Kasbiy ta’lim tizimida ushbu talabga rioya qilish dunyoning zamonaviy ilmiy rasmining yaxlitligi bilan bog‘liq; ta’limning uzluksizligi, butun tizimning moslashuvchanligi, bu nafaqat talabalarning mustaqil qaror qabul qilishga tayyorligini, balki ularni turli xil professional vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu talab, birinchi navbatda, me’yoriy-huquqiy bazada: o‘quv dasturlarida, shuningdek, turli xil qo‘llanmalarda amalga oshiriladi[25, 22-bet].

1.2.Bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyalarini transformatsiya qilishda kompetensiyaviy yondashuv va CEFR talablari asosida takomillashtirishning zarurati

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, xalqaro mehnat taqsimotida munosib o‘rin egallah, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlash muammolari ko‘p jihatdan vaziyatga qarab ishchi kuchining bilim, ko‘nikma va malaka ish qobiliyatiga bog‘liq. Kelgusida amalga oshirishimiz kerak bo‘lgan buyuk maqsadlarga erishish uchun avvalo yuqori malakali, zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashimiz kerak.

Bugungi kunda ta’lim tizimi “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonunga muvofiq isloq qilinib, unda asosiy e’tibor yuqori darajadagi kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka ega bo‘lgan kundan boshlab dunyoning barcha davlatlari bilan ko‘p tomonlama hamkorlik aloqalarini o‘rnatdi. Bugungi kunga davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar kun sayin yanada mustahkamlanmoqda. O‘zbekiston dunyoning nufuzli tashkilotlariga a’zo bo‘ldi, mamlakatimiz jahon integratsiyasi jarayonlarida faol ishtiroy etmoqda. Yuqorida keltirilgan barcha jabhalarda xorijiy til alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa xorijiy tillarga bo‘lgan qiziqish va e’tiborni yanada oshdi.

Bugungi globallashuv davrida O‘zbekistonda barcha sohalar kabi iqtisod sohasi ham jadallik bilan rivojlanmoqda. Mamlakat rivojini iqtisodiy tarmoqlar rivojlanishisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Mamlakatimizda turli qo‘shma korxonalarning barpo etilishi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, shartnomalar imzolash kabi iqtisod sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, mamlakatimiz aholisining turmush tarzini yanada yaxshilashga va yangi ish o‘rinlarini barpo etishga qaratilgan. Ayni paytda ushbu soha vakillarining chet ellik investorlar, hamkorlar, mutaxassislar va ekspertlar bilan xorijiy tillarda erkin muloqot qila olishlari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, biz ta’lim berayotgan talabalar ertaga jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida o‘z munosib o‘rnilarini egallaydilar va bu esa sifatli ta’lim jarayoni

bilan uzviy bog‘liqdir. Moliya-iqtisod yo‘nalishida xorijiy til ahamiyati haqida Y.N.Buzina, O.P.Dovger, A.A.Chunixina va boshqalar o‘z izlanishlarini olib borganlar⁵³. D.V.Kadochnikov iqtisodga oid tezisida tilni iqtisod bilan bog‘lab quyidagi fikrlarni keltiradi. “Agar til va ijtimoiy-iqtisodiy haqiqat o‘rtasidagi aloqa o‘rganilsa, iqtisodiy nazariyada tilga – iqtisodiyotning bir qismi sifatida, tilga – iqtisodiy hodisa sifatida, til holatiga – bozor munosabati sifatida, til siyosatiga – iqtisodiy element sifatida yondashiladi”⁵⁴. Iqtisodchilar nafaqat nazariy-iqtisodiy bilimlarni egallashi, xorijiy til ko‘nikmalarini ham egallashi kerak. Til, faqat adabiyotlarni o‘rganish bilan cheklanish noto‘g‘ridir. Turli xil tadqiqot dasturlarida, til, aqliy va biologik hodisa sifatida o‘rganish, axborot almashish tizimi sifatida talqin qilinadi. Til o‘zaro muloqot qilish jarayonida jamiyatda rivojlanadi va bir vaqtning o‘zida samarali hamkorlikning zarur shartlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Axir, iqtisodiy nazariya, keng ma’noda, mahsulot ishlab chiqarish, tarqatish, almashish, iste’mol qilishni samarali tashkil etishga qaratilgan. Ishtirokchilar uchun umumiy til qobiliyatları o‘zaro maqbul natijaga erishish uchun yagona shart emas, balki zarur hisoblanadi. Umumiy til qobiliyatları bo‘lmasa, potensial kontragentlar vositachilarga murojaat qilishlari kerak. Bundan tashqari, vositachilar tildan tilgacha bo‘lgan tarjimonlar, shuningdek, turli xil madaniy va til muhitida (logistika, ma’muriy, axborot va hokazo) oriyentatsiya ko‘nikmalari mavjudligini nazarda tutadigan xizmatlarning keng doirasini ta’minlaydigan shaxslar yoki tashkilotlar kabi ko‘rinishda bo‘ladi. Vositachilarga murojaat qilish qo‘srimcha xarajatlar bilan o‘zaro ta’sir qilishni o‘z ichiga oladi, ular odatiy tarjimadan bir muncha farqlanadi va murakkab vositachilik xizmatlari uchun xarajatlarning katta qismini tashkil qilishi mumkin. Iqtisod yo‘nalishida xorijiy tilning ahamiyati shundaki, til bilish qobiliyati, bozorga kirish o‘z egasiga tovarlar va resurslarni bozorga olib kirish imkonini beradi (ham sotuvchi, ham manba, ham xaridor sifatida), ishlab chiqarish jarayoni ham ma’lum darajada til bilan bog‘liq. Buning sababi shundaki, tovarlar va ishlab chiqarish omillarining (ishchi kuchi, texnologiya) muhim elementi yozma matnlar va og‘zaki nutq (og‘zaki ma’lumot) bo‘lib, unda jarayon faqat resurslar bilan to‘liq tashkillashtirilishi mumkin emas.

O.P.Dovgerning fikricha, chet tilini bilish bozor iqtisodiyoti sharoitida mutaxassislarga qo‘yiladigan muhim talablardan biri bo‘lib qoldi. Iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislar uchun amaliy ko‘nikmalar, og‘zaki va yozma ravishda chet tilida biznes aloqalari qoidalarini bilish, shuningdek, professional sohada xorijiy nutq so‘zlashuvidan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari yaratilishi kerak⁵⁵. Shu munosabat bilan olimlarni til sohasidagi nazariy va amaliy yutuqlarini boyitish uchun, xorijiy materiallarni o‘rganish iqtisod yo‘nalishida mutaxassislarning xorijiy til bo‘yicha kasbiy bilimlari darajasini kengaytirishga harakat qilinmoqda. Bugungi kunda universitet ta’limida chet tilini kasbiy va shaxsiy kompetensiyalar asosida o‘qitish, bitiruvchilarning kasbiy faoliyatida samarali natijalarga erishayotganini aniq ko‘rsatdi.

A.A.Chunixina ingliz tilidagi muloqot strategiyalarini o‘qitish jarayonini iqtisodiyot sohasi mutaxassislariga xos bo‘lgan faoliyat turlarida strategiyalarining ishslashini hisobga olish asosida amalga oshirilishi kerak, deb hisoblaydi. Shuning uchun u mutaxassisligi “Iqtisod” yo‘nalishi talabalariga o‘zaro kommunikativ kompetensiyalar asosida o‘qitish uslubiy model, ya’ni maqsad, nazariya, texnologiya, baholash va samaradan iborat komponentlar blokini ishlab chiqqan. Olimning fikriga ko‘ra, o‘zaro muloqot strategiyalarini rivojlantirish quyidagi mezon va ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi:

- 1) kommunikativ strategiyalarning lingvistik jihatlariga ega bo‘lish;
- 2) kommunikativ strategiyalarning lingvokulturaviy jihatlariga ega bo‘lish⁵⁶.

Shuningdek, A.A.Chunixina iqtisodiyot sohasida kommunikativ hamkorlikni o‘rnatishning maxsus usullariga quyidagi ko‘rsatkichlarni keltiradi:

- 1) kommunikativ strategiyalarning pragmatik jihatlariga ega bo‘lish;
- 2) kommunikativ strategiyalarning ijtimoiy jihatlariga ega bo‘lish⁵⁷.

Yuqoridagi tadqiqotlarni o‘rganishda moliya-iqtisod yo‘nalishi talabalarining kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, nutq faoliyati turlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish va ushbu maqsadga erishishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni yanada kengaytirishi lozim.

Shuni ta’kidlash kerakki, ayni vaqtida hamma fanlarni o‘qitish jarayonida

kompetensiyaviy yondashuv keng tatbiq etilmoqda, chunki talabaga fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma berishning o‘zi yetarli emas, balki olingan bilimni amaliyatda qo‘llay olish zarurati ustuvorligi ko‘zga tashlanib qoldi. Shu o‘rinda tadqiqot uchun belgilab olingan kompetensiyaviy yondashuv haqida mavjud qarashlar vafikrlar bilan tanishish joizdir.

Xorijiy tillarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rganish masalasi XX asrning boshlarida g‘arbda asosiy yechimini kutayotgan masalalardan bo‘lib, R.Uayt, N.Xomskiy, Dj.Raven, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, G.E.Beliskaya, E.I.Passov, I.A.Zimnyaya, V.V.Safonova, N.D.Galskova, N.I.Gez va boshqalarning ishlarida keng tatbiq etildi⁵⁸.

Til ta’limi jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning uzviy qismi bo‘lgan kompetensiyalarini shakllantirish masalasi E.I.Ogaryev, E.O.Ivanova, I.O.Morozova A.A.Verbitskiy, M.P.Epifanova, V.V.Safonova, A.L.Morozova, A.G.Shtarina, T.P.Popova, G.V.Perfilova, N.Grishanova, I.Zimnyaya, V.I.Baydenko, L.Petrovskaya, A.Markova, L.Alekseyeva, N.N.Abakumova, S.E.Shishov, Yu.G.Tatur, N.S.Saxarova, O.E.Lebedovlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan⁵⁹.

Respublikamizda chet tillarni yondashuv asosida o‘qitish bo‘yicha S.I.Kazakbayeva, D.Sh.Olimova, M.A.Berdiyeva, D.A.Kurbanbayev, G.T.Mahkamova, K.D.Riskulova, O.A.Qo‘ysinovlar tadqiqotlar olib borishgan⁶⁰.

“Yondashuv” atamasi adabiyotda ham keng ma’noda, ham tor ma’noda ishlatilishi mumkin. So‘zning keng ma’nosidagi yondashuv haqida gapirganda, biz ushbu konsepsiyaning uchta tarkibiy qismini nazarda tutamiz:

Lingvistik tarkibiy qism – o‘rganish uchun til vositalarini qanday tanlashimiz;

Didaktik komponent –biz qanday texnika va texnologiyalarini qo‘llaymiz, o‘quv materialini ishlab chiqishni qanday tashkil qilamiz;

O‘qitishning psixolingvistik asoslari – talabalar va o‘qituvchilarning o‘rni qanday, ularning o‘zaro munosabatlari qanday, talabalar tomonidan til materialini idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlari qanday hisobga olingan⁶¹.

Ushbu atama tillarni o‘qitish metodikasi yo‘nalishiga AQShning Michigan universiteti professori Edvard Meyson Entoni tomonidan kiritilgan. Atama til xususiyati va uning qonuniyatlarini ifodalash maqsadida qo‘llanilgan, unga quyidagicha ta’rif berilgan: “Yondashuv til o‘rgatish va o‘rganish xususiyatlariga taalluqli tushunchalar yig‘indisidir. Yondashuv aksiomaviydir. U o‘qitiladigan predmet mazmunini ifodalaydi”⁶².

Yondashuv til o‘qitish, o‘rganish xususiyatlari, uni pedagogik jarayonga joriylantirish imkoniyati to‘g‘risidagi nazariy tomongan ochib berilgan to‘xtamdir. Entonining fikricha, “Yondashuv til haqidagi, uni o‘rganish va o‘rgatish xususiyatlarini inobatga olib takomillashtirilgan tamoyil yoki tushunchalar yig‘indisi bo‘lib, u metodga moslashtiriladi yoki nazariy jihatdan unga asoslanadi. Ya’ni, yondashuv atamasi orqali chet tili o‘qitish amaliyoti va tamoyillari manbaasi bo‘lib xizmat qiladigan til va til o‘rganish haqidagi nazariya sifatida ifodalanadi. Yondashuv til o‘qitish sistemasi zamiridagi fundamental komponent bo‘lib,

o‘qitishning umumiyl metodologik asosi sifatida gavdalanadi va o‘quv fanining maqsadi, vazifalari hamda ta’lim jarayonida ularni amalga oshirish imkoniyatini ta’minlaydigan ta’lim mazmuni haqidagi mavjud nuqtayi nazarlar bilanxarakterlanadi”⁶³.

Metodistlardan M.N.Vyatutnevning fikricha, “Yondashuv o‘quv fanining mazmuni haqidagi qarashlarni umumiylashtiradi, konkret bilim sohasidagi tadqiqotning umumiyl metodologik asosi sifatida foydalaniladi”. M.N.Vyatutnev til o‘rganishning lingvistik omillarini inobatga olgan holda zamonaviy metodlarni tasniflash uchun yondashuvlarni 6 ta turga: 1.grammatik, 2.to‘g‘ri, 3.bixevoiristik, 4.o‘quv, 5.kollektiv, 6. kommunikativ individuallashgan turlarga ajratadi. A.N.Shukin tadqiqotida yondashuv tilga nisbatan ikki guruhgaga bo‘linadi: o‘qitish ob’ekti va o‘qitish vositasi⁶⁴.

Chet til o‘qitish metodikasida yondashuvning yagona klassifikatsiyasi mavjud emas. Olim M.Lyaxovitskiy psixolingvistik yondashuvlarni:

bixevoiristik; induktiv ongli; ongli (kognitiv);

integrativ jihatdan klassifikatsiyalaydi.

Bixevoiristik – til tashqi qo‘zg‘atuvchilarga javoban nutqiy avtomatizmlarni shakllantirish usuli orqali o‘rganiladi;

Induktiv ongli – til nutq namunalarini tahliliy kuzatish natijasida til qonuniyatlari va ularni nutqda qo‘llash usullarini egallash orqali o‘rganiladi;

Ongli (kognitiv) – til egallangan bilimlar asosida nutqiy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish izchilligida o‘rganiladi;

Integrativ – til o‘qitish jarayonida ongli va g‘ayrishuuriy komponentlarni muvofiqlashtiradi, ya’ni chet tillari bilim, malaka va ko‘nikmani bir vaqtning o‘zida egallash asosida o‘rganiladi⁶⁵.

Kompetensiyaviy yondashuv chet tillarni o‘rganayotgan talaba uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda talaba chet tilini egallash jarayonida kommunikant hamda kognezant (axborot sohibi) maqomiga ega bo‘lishi talab qilinadi. Ushbu talablar asosida chet tilni egallagan talaba kelajakda o‘rganayotgan xorijiy tilda muloqot yurituvchi hamda tili o‘rganilayotgan mamlakatlar haqida muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lgan bilim, malaka hamda ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan barkamol shaxs bo‘lib yetishadi.

1996-yil 27–30-mart kunlari Bernda o‘tkazilgan simpoziumda, Yevropa kengashi tomonidan ta’lim tizimini isloq qilish uchun asosiy kompetensiyalarni (key competences) aniqlash, samarali natijalarga erishishga imkon berishi muqarrar ekanligi alohida e’tirof etiladi. N.Xomskiyning izdoshi V.Xutmaxerning (Walo Hutmacher) o‘z ma’ruzasida “kompetensiya”ni anglash, “nima ekanligini bilaman”dan ko‘ra “qanday qilishni bilaman” ma’nosiga yaqin, degan fikrini simpozium ishtirokchilari bir ovozdan ma’qullahgan⁶⁶.

“Competence” atamasi “to compete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma’noni bildiradi⁶⁹. Termin o‘zbek tiliga tarjima qilinganda, uning lug‘aviy ma’nosi quyidagicha beriladi: vazifani muvaffaqiyatli bajarish, layoqat, nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo‘llash, yuqori kasbiy malaka, iqtidorni namoyon etish, malaka, qobiliyat.

J.J.Jalolovning aytishicha; “kompetensiya” o‘zbek tilida olimlar tarafidan turlicha talqin qilingan, ya’ni umumiylar ma’nolarda ifoda etilgan⁷⁰. J.J.Jalolov

fikricha “layoqat”, T.Q.Sattorov tomonidan “omilkorlik”, pedagogika va lingvistika yo‘nalishida “mahorat”, psixologiyada esa “malaka”, deb qo‘llanilgan⁷¹. Bugungi kunda olimlar tomonidan “kompetensiya” termini tadqiqot obyekti sifatida ilmiy tadqiqi yanada kengaymoqda. Zamon talabi sifatida e’tibor qaratilgan, har qaysi sohada tarbiyalanayotgan bo‘lajak mutaxassislar filologik yoki nofilologik oliy o‘quv yurtida ta’lim olar ekan, biror xorijiy tilni o‘zlashtirish jarayonida qator kamchiliklar ko‘zga tashlanmoqda va mavjud yondashuvlarni yanada takomillashtirish lozim.

“Kompetensiya” atamasi o‘zbek tilining izohli lug‘atida (lotincha competere) layoqatli, munosib bo‘lmoq, biror tashkilotdagi mas’ul shaxsning vakolati va shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi ma’nosini anglatishi ifodalangan.

“O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” (K harfi)da “kompetensiya” atamasi quyidagicha berilgan: lotincha competo – erishayapman, loyiqlaman, munosibman, biror muayyan davlat organida faoliyat olib boruvchi shaxsning vakolatlari, huquq, burchlari va biror sohadagi bilimlar va tajriba ma’nolari ko‘rsatib o‘tilgan⁷².

“Kompetensiya” iborasi har sohada keng qo‘llaniladigan termin bo‘lib, ta’lim, xodimlarni tanlash, mehnat natijasini baholash, ta’limning muvaffaqiyatligini ta’minalash, professional yo‘naltirilganlik kabi masalalarini o‘z ichiga qamrab oladi. Ilmiy izlanishlar natijasida paydo bo‘lgan va o‘tgan asrning 60–70-yillarida AQShning mehnat bozorida barcha talablarga mos mutaxassislarni tarbiyalashga asoslangan ta’lim jarayonida ko‘proq ommalashgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, bo‘lajak mutaxassislarni “kompetensiya”si, “kompetentlilik”, ya’ni noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday boshqarishi, muloqotga kirishishi, raqobatchilari bilan munosabatda qanday yo‘l tutishi, muammoli yoki noaniq vaziyatlarda masalalarini yechishda ziddiyatli murakkab jarayonlarda harakatlanishi bilan bog‘liq. Yevropa ta’lim fondining glossariysida “kompetentlilik” terminiga umumiy mazmun berilgan va u quyidagicha: “kompetentlilik” biron-bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ma’lum bir kasbda qo‘llaniladigan standartlar bo‘yicha bajara olish qobiliyatidir⁷³.

X.A.Mamatqulov olib borgan ilmiy izlanishlari davomida “kompetentlilik” va “kompetensiya” tushunchalarining mazmun-mohiyatini o‘rganib, ushbu tushunchalarning aynan o‘xhash, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tushunchalar sifatida qo‘llanilishi hamda bir qator xususiyatlari bilan farqlanishini qayd etadi⁷⁴.

Yevropalik olim R.P.Mirlud ham “kompetensiya” va “kompetentlilik” haqida o‘z maqolasida quyidagilarni bayon qiladi; “kompetentlilik” shaxsiy kategoriya tarzida o‘rganila boshlangan, “kompetensiyalar” bo‘lsa, o‘quv dasturlaribirliklariga aylangan va kompetensiyaning anatomiyasi sifatida tashkil qilingan⁷⁵.

M.Vahobov tadqiqotida “kompetensiya deganda, o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarda qo‘llay olish layoqati tushuniladi”, deb keltiriladi⁷⁶.

U.U.Jumanazarovning ta’kidlashicha, kompetensiya tarkibiga kundalik hayotga, tevarak-atrofga oid turli-tuman ma’lumotlar orqali tinglab-tushunish, gapishtirish, o‘qish, yozuv hamda fonetik, leksika, frazeologiya, grammatikaga mansub malakalarga oid barcha bilimlarni kundalik amaliyotda qo‘llay olish jarayoni kiradi. Bu kompetensiyalar negizida egallangan bilim va malakalar, soha talabalarining kundalik amaliy vaziyatlarda, maxsus pedagogik faoliyatlarida ingliz tilini mustaqil qo‘llay olishiga asos bo‘la oladi⁷⁷.

A.V.Xutorskiy fikricha, “kompetentlilik” – ta’limda, talabaning fanlararo bo‘lgan bilimlari kompleksi va ko‘nikmalardan o‘zi anglagan holda foydalanaolish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan tayyorgarlik sifatining yaxlit tavsifidir⁷⁸.

M.T.Axmedova kompetentlilik deganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasini tushunilishini ta’kidlagan⁷⁹.

Akademik I.A.Zimnyayaning fikricha “kompetentlilik” – ta’lim jarayonining samarali natijasi bo‘lib u insonning ijtimoiy-kasbiy faoliyatida bilimga asoslangan intellektual va shaxsiy tajribasi hamdir⁸⁰.

Dj.Raven fikricha, “kompetentlilik” – o‘z harakatlariga javobgarlikni tushungan holda, birorta sohaga oid bilim, ko‘nikma, fikrlash vositalarini o‘z

ichiga olgan holda konkret harakatlarni samarali bajarish yuzasidan maxsus harakat, deb qaraydi⁸¹.

N.A.Muslimov va bir qator olimlar kompetensiyani o‘rganish (mashq qilish) natijasida vujudga kelishini, kompetentlilik esa faoliyatda nazariy bilimlardan foydalanishda, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etishda namoyon bo‘ladi, degan qarashni ilgari suradi⁸².

A.K.Markova talabaning kompetentliligi uning bilim va ko‘nikmalari, psixologik pozitsiyalari, uning shaxsiga oid xususiyatlarni o‘z ichiga oladi, deb aytadi⁸³.

Yu.E.Rahimovaning ta’kidlashicha, kompetentlilik – bu integrativ tavsif bo‘lib, tizimlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malaka hamda shaxsga oid fazilatlarni ifodalaydi, ular bozor sharoitida raqobatbardosh bo‘lish imkonini beradi⁸⁴.

Ye.I.Ogoryov fikricha, “kompetentlilik” – insonni shunday maxsus faoliyat obyekti sifatida tavsiflaydiki, unda shaxsning qobiliyatlari rivojlanishi, uni malakali ish bajarishga, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishga va muammoni ijobiy hal qilishga olib keluvchi harakatlarni rejalshtirish va bajarishga imkon beradi⁸⁵.

N.S.Saxarova aytishicha, “kompetentlilik” – kompetensiya tushunchasidan farq qilib, biror harakatni bajarish, biror masala yuzasidan qaror qabul qilish yoki biror narsa haqida fikr yuritishga imkon beruvchi bilim, ko‘nikma va hayotiy tajribaga ega bo‘lish yoki insonga oid kompetensiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan, shaxsga oid kompleks zaxira yig‘indisidir. N.S.Saxarova mazkur zaxiralar yig‘indisini quyidagilarga ajratgan:

- biror soha bo‘yicha atrof-muhit bilan ijobiy harakatga kirishni ta’minlovchi va buning uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan, shaxga oid kompleks zaxira;
- o‘z kasbiga qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish yoki shaxsning o‘z kasbiy faoliyatini sifatli amalga oshirish istagiga ega bo‘lish;
- mutaxassisning paydo bo‘luvchi muammolarni mustaqil yechishga imkon beruvchi ta’lim darajasi yoki uning shaxsiy pozitsiyalarini belgilash;
- mutaxassisning faoliyat sohasidagi belgilangan me’yor va standartlarga qo‘yilgan talablarga mos kelishi⁸⁶.

G.K.Selevko, “kompetentlilik”ka (faoliyat usullari), psixologik xususiyatlar va qadriyatlarga oid tushunchalar, deb ta’rif beradi⁸⁷.

N.N.Azizzodjayeva tadqiqotida mutaxassisni tayyorlash modeli nafaqat uning bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan belgilanuvchi kasbiy kvalifikatsiyasini, shuningdek, zamonaviy xalqaro amaliyotda tayanch kompetensiyalar deb tavsiflanuvchi shaxsga oid sifatlar va tizimli shakllantirilgan universal mahorat va qobiliyatlarni ham o‘z ichiga olishi keltirilgan⁸⁸.

Yu.G.Tatur “kompetentlilik” – shaxsning biror sohada muvaffaqiyatlifaoliyat olib borishi uchun o‘z potensiali, ya’ni kuchini (bilim, ko‘nikma, tajriba vashaxsga oid sifatlar) amalda qo‘llashi, qobiliyati va intilishini ta’riflovchi yaxlit xususiyat, deb ta’kidlaydi⁸⁹.

O.Musurmonova tadqiqotida kompetentlilik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir, deya keltirilgan⁹⁰.

Xorijlik va vatanimiz olimlarining “kompetentlilik” va “kompetensiya” haqida bildirgan fikrlarini o‘rganib tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, berilgan ta’riflar mazmun-mohiyati jihatidan bir-birini to‘ldiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv hayotiy vaziyatlarda ortib borayotgan murakkablik va dinamika bilan tavsiflanadi. Bu shuni anglatadiki, odamlar murakkab dinamik muhitda yashashlari va ishlay olishlari kerak. Ta’lim insonga notanish vaziyatlarda yangi muammolarni hal qilishga yordam berish yo‘llarini o‘rgatadi. Ularni kelajakda nimalarga duch kelishi va har qanday vaziyatda o‘rganganlarini qo‘llashi mumkinligi haqida o‘rgatish muhimdir. Shu sababli, ta’lim bizga turli ko‘nikmalarni doimiy ravishda rivojlantirishga imkon berishiga qaratilgan.

Kompetensiyaviy yondashuvda chet tilining kommunikativkompetensiyasini shakllantirish va o‘rganishga ahamiyat qaratiladi, ona tilida so‘zlashuvchilar bilan chet tilida shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish qobiliyati chet tilini haqiqiy amaliy bilishni nazarda tutadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning boshqa muhim taraflaridan biri bu

pedagog-o‘qituvchilarning xorijiy til bo‘yicha doimiy izlanishda bo‘lishi, kommunikatsiya yangiliklaridan xabardor bo‘lishi va doimiy izlanishda bo‘lishini nazarda tutadi. Kompetensiyaviy yondashuvning maqsadi ta’lim sifatini ta’minlashdir. Tadqiqotchi olim B.Xodjayevning ilmiy ishida kompetensiyaviy yondashuv doirasida ta’limning 3 ta an’anaviy elementi hisoblangan bilim, ko‘nikma va malakaga yana 3 ta unsur amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlilikni ilgari suradi.⁹¹

Yuqoridagi olimlarning fikrlari va qarashlarini o‘rganib, “kompetensiya”, “kompetentlilik”, “kompetensiyaviy yondashuv” haqidagi o‘rganib, tavsif va tahlil qilib, ularga o‘z nuqtayi nazаримиздан kelib chiqib, quyidagicha ta’rif beramiz:

“Kompetensiya” – bu talaba o‘rganayotgan xorijiy tildagi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi va ularni maliyotga joriy etish jarayonidir.

“Kompetentlilik” – bu kishi ijtimoiy-kasbiy hayotida bilimga asoslanib, harakatni bajarish, biror masala yuzasidan qaror qabul qilish yoki biror narsa haqida fikr yuritish jarayonidagi bilim, ko‘nikma va hayotiy tajriba asosida muvaffaqiyatli natijaga erishishidir.

“Kompetensiyaviy yondashuv” xorijiy tilda mustaqil muloqot qilishga o‘rgatish maqsadida, o‘z fikrini bayon etish va kommunikatsion aloqani amalga oshira olish, kommunikativ kompetensiya komponentlarini o‘zida mujassamlashtirgan bilim, ko‘nikma va malaka to‘plashdir.

Hozirga qadar olimlar tomonidan “nutq faoliyati turlari” ilmiy tadqiq etilgan, ushbu mavzular tadqiqotchilar o‘rtasida keng muhokamaga tortilgan bo‘lsada, mutaxassisligi chet tili bo‘lmagan moliya-iqtisod yo‘nalishi talabalarining xorijiy til “nutq faoliyati turlarini CEFR talablari asosida (B2) darajasida takomillashtirish mavzusi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Kelajakda mutaxassis muloqot qilish qobiliyatini egallashi va buning uchun uning tuzilishini tushuna olishini o‘rganib, tajriba-tahlil qilmoqchimiz. Ayni vaqtda, chet tili darslarida o‘zaro muloqot jarayonini shakllantirish, o‘qitish jarayonini takomillashtirish zarurati ortgani, mavjud o‘qitish metodikasini takomillashtirishga

ehtiyoj sezilgani; chet tilini o‘rganish jarayonida “moliya-iqtisod” yo‘nalishidagi talabalarning o‘zaro muloqot jarayoni tushunchalarning mohiyati va mazmunini ochib berish ehtiyojini hisobga olish; “moliya-iqtisod” yo‘nalishidagi talabalarga chet tilini o‘qitish modelini ishlab chiqish ushbu tadqiqot ishining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Chet tillarini o‘rganish jarayoni ayni vaqtda talabalarning o‘zlashtirish jarayoni bilan bog‘liq. Uzluksiz ta’lim jarayonida CEFR talablarini qo‘llash va bosqichma-bosqich takomillashtirish bugungi kelib ancha ommalashdi. OTMlarga kirish imtihonlarida ham ularning ahamiyati haqida yuqorida aytib o‘tgandik. CEFR darajasiga ega bo‘lib talaba bo‘lgach ushbu jarayon nihoyasiga yetmaydi, aksincha CEFR talablari asosida talabalarni bilimini bosqichma-bosqich takomillashtirilib boriladi. Shu o‘rinda uning paydo bo‘lishi va hozirgi kunga rivojlanishi, takomillashish bosqichlariga e’tibor qaratishni joiz deb hisobladik.

CEFR-Yevropa Kengashi tomonidan Inson huquqlari Konvensiyasidan keyin ikkinchi eng ko‘p tarjima qilingan hujjatdir. Til o‘qitishning yangi davrida yetakchi bo‘lgan CEFR qimmatli va innovatsion sistemadir. CEFR shunchaki metod yoki sistema emas, balki turli metodologik qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan jarayondir. Yevropa madaniy konvensiyasining 2-moddasiga binoan, Yevropa Kengashi a’zolari bir-birining tillarini rag‘batlantirish orqali fuqarolar o‘rtasida muloqotni rag‘batlantirishlari kerak. 1960-yildan buyon yaratilgan til loyihalari tilda erkin muloqot qila olish uchun tilni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, markaziy o‘rinda o‘quvchi turishi, faol va ijobiylar yondashuvlar asosida harakatlanishni talab qiladi.

Maqsad sari harakatlanishda barcha o‘rganuvchilarining o‘ziga xos kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olish va uni metodologiyaning vazifalari bilan uzviylashtirish, asoslanishi uchun boshqa tillarni (ona tilidan tashqari) o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratildi. O‘z-o‘ziga ishonch va motivatsiyaga asoslangan talabalarning mustaqil harakatlanishiga erishish va bu holatni rag‘batlantirish uchun yondashuvlarni yaratish va talabalarning chet el yoki ikkinchi tilda so‘zlashish, bilim darjasasi, quyi darajada bo‘lsa ham uni

takomillashtirish uchun amalga oshirishi mumkin bo‘lgan hamma imkoniyatlarni qo‘llash masalasi ilgari surildi. Van Ek tomonidan, birinchi marta 1975-yilda Yevropa Kengashi tomonidan Yevropada kattalarga tillarni o‘rganish uchun yagona kredit tizimidan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish loyihasi doirasida chop etilgan⁹². Loyiha guruhi o‘qituvchilarga o‘zлari javobgar bo‘lgan talabalarning ehtiyojlarini tahlil qilishda va tegishli o‘quv maqsadlarini aniq shakllantirishda ko‘maklashish maqsadida konseptual vositalarni ishlab chiqish vazifasini oladi.

Ta’lim maqsadlari, asosan, talabalarning o‘zлari va hayotlari bilan bir xil bo‘ladi. Shu bilan birga, keng ko‘lamli ta’lim tizimi talabalarning umumiyligi ehtiyojlariga asoslangan bo‘lishi kerak. Bugungi kunda butun dunyodagi eng katta til o‘rganuvchilar guruhi boshqa mamlakatlardagi odamlar bilan ijtimoiy muloqotga tayyorgarlik ko‘rish, kundalik masalalar bo‘yicha axborot va fikr almashish uchun nisbatan sodda tarzda til o‘rganishni va chet elda mustaqil darajada kundalik hayotning zarur ishlarini olib boradigan kishilardan tashkil topgan. 1975-yildan boshlab, “threshold” darjasiga barcha turdagisi o‘quv rejalarini ishlab chiquvchilar tomonidan keng qo‘llanila boshlandi: o‘quv dasturlarini isloh qilish, imtihonlarni ishlab chiqish, darsliklarni yozish va kurslarni ishlab chiqishni qamrab oldi. “Ma’lumki, har bir fan darsligi o‘quv jarayonini boshqarib turuvchi me’yoriy hujjat bo‘lib, u aslida ta’lim jarayonining ssenariysi sifatida namoyon bo‘lishi kerak”⁹³. Funksional va semantik tasniflash tilni o‘rganish va o‘qitishning belgilangan doirasida to‘liq assimilyatsiya qilindi. Keyin muayyan tushunchalar bilan bog‘liq vaziyatlar va mavzularni tanlash vaqtini tekshirishga imkon yaraldi, shuningdek, muayyan vaziyatlar bilan kamroq bog‘liq bo‘lgan umumiyligi tushunchalar va funksiyalar doirasi borasida birmuncha ishlar amalga oshirildi.

1990-yilga kelib, tilni o‘rganish, o‘qitish va baholash uchun keng qamrovli asosni ishlab chiqish zarurati yanada ortdi. CEFRni rivojlantirish g‘oyasi Shveytsariya ma’muriyati bilan hamkorlikda Ryushalikonda 1991-yil 10-16 noyabr kunlari tashkil etilgan Yevropa Kengashining “Yevropada tillarni o‘rganishda shaffoflik va izchillik” katta simpoziumida ilgari surilgan edi. 1992-yilda Shveytsariyada tadqiqot guruhi, ya’ni ishchi guruh tashkil etildi.

Amalda, mingdan ortiq identifikatorlar dastlabki o‘lchovlardan olingan bo‘lib, ular bir-biriga o‘xhash, ravshanlik va diqqatni jalg qilish uchun yo‘naltirilgan, til o‘qituvchilarining katta guruhlari (talabalar va o‘qituvchilar tajribasi asosida) identifikatorlar ta’riflashi kerak bo‘lgan toifalar bo‘yicha tartiblangan, keyin ularning ravshanligi, aniqligi va dolzarbligidagi muammolar uchun tanqid qilingan va til bilimi guruhlari bo‘yicha tartiblangan. Chet tilini o‘rganuvchilarning til profillari (o‘quv dasturi yoki til kursining rasmiy muhitida maqsadli tilni o‘rganish) va ikkinchi tilni o‘rganuvchilarning til rejimlari (kundalik foydalanish nuqtayi nazaridan maqsadli ravishda tilni o‘rganish, rasmiy ta’lim bilan yoki rasmiy bo‘lmagan holda) o‘rtasida umumiy xususiyatlar va farqlar mavjudmi? - degan savol nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega. Misol uchun, subyekt-fe’l kelishuvidan muvaffaqiyatli foydalanishda CEFR shkalasi va tavsiflovchi sxemani har qanday holatda foydalanishida ajratish muhimdir.

CEFR dunyo miqyosida katta ta’sirga ega bo‘lib, uning rivojlanishi va qamrovi davom etmoqda. Ko‘pgina mamlakatlarning ta’lim vazirliklari o‘zlarining milliy imtihonlarini CEFRning bir yoki bir nechta darajasida o‘tkazishlarini talab qilmoqda. Ko‘p ta’lim muassasalari (universitetlar, shu jumladan, imtihon komissiyalari) imtihonlari CEFRning muayyan darajalarida o‘tishini belgilab qo‘yilgan. Imtihonlar uchun Yevropa Kengashi CEFR (Yevropa Kengashi, shuningdek, Figueraz, Norz, Takala, Van Avermet va Verhelzt)⁹⁴ CEFR bilan imtihonlarni bog‘lash bo‘yicha qo‘llanma chiqargan bo‘lsa-da, qator ko‘zga tashlangan kamchiliklar yuzasidan hozirgi vaqtida ham CEFR sistemasi CEFRning hozirgi shaklida bir qator bo‘limlarda o‘ziga xoslik va izchillik yetarli emasligini va ampirik tadqiqotlar bilan yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmagani ta’kidlab o‘tilgan⁹⁵.

Ko‘plab ta’lim muassasalari, xususan, oliy o‘quv yurtlari va universitetlar, ularning o‘quv dasturlari CEFR bilan mos kelishini va ularning bitiruvchilari CEFR darajasiga javob bera oladigan bo‘lishini ta’kidlaydilar. Til bilish darajasini aniqlash yondashuvi lingvistik samaradorlikka erishish nafaqat lingvistik bilimlarga bog‘liq, balki uni amalda qo‘llash muhimroq degan fikrni aks ettirdi. Ushbu nuqtayi nazar,

Yevropa Kengashining til o‘rganish maqsadlarinianiqlashtirish, belgilash bo‘yicha ishining keyingi bosqichida, qamrov doirasi va darajalarga bo‘lishda alohida ahamiyat kasb etdi. CEFRning rivojlanishida tilni o‘rganishdagi asosiy xususiyatlar, grammatik-tarjima uslubi, funksional-semantik yondashuv va kommunikativ yondashuv asos sifatida tanlangan. CEFR, shuningdek, turli mamlakatlardagi, xususan, Yevropada ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni osonlashtiradigan tillarni o‘rganish uchun umumiy xalqaro tuzilmaga bo‘lgan ehtiyojning natijasidir. CEFR nashr etilganidan buyon o‘tgan yillar mobaynida bir nechta hujjatlar paydo bo‘ldi. CEFR bilan bog‘liq loyihalar va CEFR bilan ishslash uchun dasturlarni ishlab chiqish, milliy va mintaqaviy tillar uchun mos daraja tavsiflarini ishlab chiqish konsepsiysi ham keng tarqalgan. Ushbu o‘zgarishlar va tegishli natijalar kelajakda ham davom etadi, bu strukturaning evolyutsiyasi CEFRning dolzarb bo‘lib qolishini o‘qitish vao‘rganishda yangi yangiliklarni takomillashtirish imkonini beradi. CEFR nafaqat Yevropada, balki dunyoning qator mamlakatlarida sinovdan o‘tkazilib ta’lim jarayoniga moslashtirilgan. CEFR til o‘qitish va o‘rganishning xalqaro standartidir⁹⁶. Shuningdek, CEFR orqali ta’limni kuchaytirishda til o‘qitish madaniy kontekstni ham qamrab olishini ta’kidlash joizdir. CEFR aniq harakatga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llaydigan tilda mustaqil tuzilma ekanligini, CEFR lingvistik ko‘nikmalarni tinglash, o‘qish, og‘zaki muloqot, og‘zaki ishlab chiqarish va yozishni qamrab olishi til qobiliyatida oltita umumiy asosiy daraja asosida tasvirlangan. CEFRning ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi nafaqat Yevropa mamlakatlari, balki boshqa mamlakatlarning ta’lim sistemasida ham muhim o‘rin egallagan, British council bilan hamkorlikda qator loyihalar ishlab chiqilgan va olib borilgan, ulardan ko‘zlangan asosiy maqsad, oliy ta’limda o‘qishini davom ettiruvchilarining bilimini B2 daraja yoki undan yuqoriroq darajaga olib chiqishni maqsad qilgan.

Britaniya kengashi ta’lim jarayonini o‘rganish uchun bir necha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazdi (bu jarayon qator mamlakatlar, Rossiya, Turkiya, O‘zbekiston, Makedoniyada ham olib borildi). Ushbu tadqiqotlarning barchasi, katta yoki kichik darajadagi loyihalar, asrning boshidan buyon o‘tgan yillardabutun dunyo

bo‘ylab universitet ta’limini xalqarolashtirishga qaratilgan va til o‘rganishda mavjud muammolarni o‘rganishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustda 610-sonli “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida CEFR sertifikati mavjud bo‘lgan abituriyentlar kirish imtihonlarida imtiyozga ega bo‘lganliklari, xorijiy tillarga yurtimizda katta imkoniyatlar yaratilayotganligini ko‘rsatib turibdi. CEFRni yurtimizga kirib kelishi va qamrovi haqida ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages – Umumiy Yevropa Til Ko‘nikmasi Qolipi) tizimi butun Yevropa bo‘ylab ishlatiladigan tillarni o‘rganish, o‘rgatish va baholashga doir masalalarni qamrab olgan. Hozirgi davrda, globallashuv va zamonaviy texnologik vositalar yordamida odamlarning bir-birlari bilan oson aloqa o‘rnatishlari natijasida CEFR tizimi nafaqat Yevropada, balki Sharq davlatlarida ham keng tatbiq etilayapti. Bugungi kunda CEFR tizimi asosida olinadigan imtihonlar ko‘p hollarda ingliz tilini o‘qitish, o‘rganish va baholashda foydalanilayapti. Chunki butun dunyo ingliz tilida muloqot olib bormoqda va bu til birinchi raqamli jahon tiliga aylanib ulgurgan. CEFR tizimi “Yevropa Konsulligi” tomonidan 1989–1996-yillarda amal qilgan “Language Learning for European Citizenship” (“Yevropa Fuqaroligi uchun Til O‘rganish”) dasturi tarkibiy qismi sifatida qayta mukammallashtirilib 2001-yilning noyabr oyidan boshlab CEFR Yevropa tillarini bilish darajasini baholashda asosiy mezon sifatida qabul qilingan⁹⁷. CEFR tizimi tillarni bilish darajasini uchta: A, B va C guruhlarga ajratgan holda baholaydi. CEFR darajalari sifatida berilgan baho quyidagilarni anglatadi:

- A1 va A2 darajalar – tilni endi o‘rganayotgan, boshlang‘ich bosqichdagি foydalanuvchi, B1 va B2 darajalar – tildan erkin foydalana oladigan, o‘rtachadan yuqori darajadagi foydalanuvchi;
- C1 va C2 darajalar – tilni mukammal darajada biladigan foydalanuvchilar;

Xalqaro standartlar asosida mamlakatimiz ta’lim tizimida davlat ta’lim standarti bo‘yicha chet tillarni o‘rganishda quyidagi talablar belgilangan:

- o‘quv fanining maqsad va vazifalari;

- chet tilini o‘qitish va o‘rganishning mazmuni;
- ta’limning barcha bosqichlarida ta’lim muassasalari bitiruvchilarining majburiy tayyorgarlik darajalariga qo‘yiladigan talablar⁹⁸.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish, til o‘rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish masalasiga yangi talqinda yondashildi⁹⁹.

Mutaxassisligi chet tili bo‘lgan talabalar uchun belgilangan talab C1 darjasini bo‘lsa, nomutaxassislik oliy o‘quv yurtlarida bitiruvchi talabalar B2 darajasini egallashlari lozim. CEFR tizimining asosiy maqsadi ingliz tilini bilish va egallah darajasini aniqlash, baholash, bir so‘z bilan aytganda, xorijiy tildan foydalanish va xorij sharoitida muammosiz muloqot qila olishdir. CEFR tizimi uzoq yillardan beri qo‘llanilib kelayotgan an‘anaviy uslub, ya’ni o‘qituvchi shaxsini darsda dominantlik qilishini oldini olgan holda darsda til amaliyotini markazlashuviga olib keladi. Qo‘srimcha qilib aytganda, an‘anaviy uslubda faqatgina o‘qituvchi ingliz tili haqidagi ko‘nikmalarini ohib bergen va afsuski bu holat ko‘pincha talabalarning juda ham chegaralangan ma’lumot olishlarini keltirib chiqargan. Ammo CEFR tizimidan foydalanish hozirgi kunda talabalarga til haqida muxtasar bilim va ko‘nikmalarni ulashib, talabalarni tilga bo‘lgan qarashlarini kengaytirmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, CEFR – Yevropadagi barcha gaplashiladigan, amalda bo‘lgan tillarni bilish darajasini aniqlash, o‘rganish va o‘rgatish usullarini targ‘ib qiluvchi til ko‘nikmasi qolipidir. Yurtimizdagи me’yoriy huquqiy hujjatlar bilan bir qatorda umumjahon belgilangan mezonlari ham mavjud, ularni fan taraqqiyotiga ta’siri haqida ham so‘z yuritish maqsadga muvofiqdir. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 26-moddasida shunday deyiladi. “Har bir inson ta’lim olish huquqiga ega. Ta’lim olishda hech bo‘lmaganda boshlang‘ich va umumiylar ta’lim tekin bo‘lishi lozim. Boshlang‘ich ta’lim majburiy bo‘lishi kerak. Texnik va hunar ta’limi hammaning qurbi yetadigan darajada bo‘lishi, oliy ta’lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun yetarli imkoniyat doirasida bo‘lmog‘i kerak.

Ta’lim inson shaxsini to‘la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog‘i lozim.

Demak, yuqorida “kompetensiya”, “kompetentlilik” “kompetensiyaviy yondashuv”ga keltirilgan ta’riflar, fikrlar va izlanishlardan kelib chiqib, kompetensiyaviy yondashuv talabalarga atrof-muhitdan qat’iy nazar, o‘z tezligida malakani egallah qobiliyatiga asoslangan holda oldinga siljish imkonini beradi. Ushbu yondashuv turli xil o‘rganish qobiliyatlarini qondirish uchun moslashtirilgan va talabalarni yanada samarali natijalarga erishishiga xizmat qiladi. Aloqa vositasi sifatida nutq faoliyati turlari, nazariy qonuniyatlar asosida emas, balki amaliy o‘rganish, tilni amaliyotda qo‘llashni nazarda tutadi. O‘zaro munosabatlar o‘rnatalishi jarayonida chet tili (ingliz tili) o‘qituvchisi va talabalar o‘rtasida muloqot jarayonining kengaytirilishi til o‘qitish sifatini oshiradi. CEFR talablari asosida o‘qitishni takomillashtirish jarayonida ham, shaxsiy kommunikativ qobiliyatdan to‘g‘ri foydalanish va amalda qo‘llay olish, ta’lim olishning bosh mezoni hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotda, kontekstda xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida shu til va o‘z ona tili madaniyati orqali qiyosiy tarzda o‘rgatish ham foydadan holi emas, bunda didaktik-metodik shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Shunda, bir butun yaxlit tizimlilikda kommunikativ qobiliyatlar shakllantiriladi.

1.3.Bo‘lajak iqtisodchilarining ingliz tili mashg‘ulotlarida, kasbiy kompetensiyalarini transformatsiya qilishning amaliyotdagi holati

Bugungi kunda talabalar o‘rtasidagi chet tili o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshganligi kuzatilmoqda. Olimlarning tahliliy munosabatlarida chet tilini o‘rganishda kommunikativ kompetensianing pastligi, madaniyatlararo nomutanosiblikda tilni to‘liq o‘zlashtirilishiga to‘sqinlik ko‘rsatadi. Shu jihatdan chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi talabalarda “nutq faoliyati turlari”ni, ya’ni kundalik, ilmiy va kasbiy faoliyat sohasiga oid bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Xorijiy tillar integrallashgan til ko‘nikmalar, og‘zaki nutq amaliyoti (tinglash va gapirish), yozma nutq amaliyoti, kommunikativ grammatika, kommunikativ

leksika (so‘z boyligini oshirish), diskurs (matn) tahlili, o‘rganilayotgan ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida, mustaqil ta’lim ko‘nikmalari, sohaning dolzarb muammolari, kasbiy etika, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish, biznesdagi yozma muloqot yuritish, o‘rganilayotgan ixtisoslik tarixi, yo‘nalishlari, sohaning dolzarb muammolari, kasbiy etika, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish, biznesdagi yozma muloqot yuritish, o‘rganilayotgan ixtisoslik tarixi, yo‘nalishlari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

Ba’zi talabalar belgilangan talablar asosida mavzuni talab darajasida o‘rganishda ko‘nikma hosil qilishda to‘siqlarga uchrashmoqda. Bir vaqtning o‘zida yuzaga kelayotgan muammolarni yechimini topish va natija sifatli bo‘lishini ta’minalash bir muncha murakkab jarayondir.

Ilmiy tadqiqot ishiga asos qilib, bu jarayonga osonroq va tezroq natijaga erishish, ta’lim olayotgan talabalarga mashg‘ulot davomida mavzuni mukammalroq yetkazish masalasida ularning “nutq faoliyati turlari”ni takomillashtirish jarayoniga ahamiyat qaratishni tanladik.

Tadqiqotning asosiy yo‘nalishi ko‘proq moliya-iqtisod sohasiga qaratilganligini hisobga olgan holda bo‘lajak moliyachi va iqtisodchilarni til malakalarini shakllantirishda ayni kunlarda ko‘proq nimalar asos qilib olinganini ko‘rib chiqamiz.

“Nutq faoliyati turlari”ni o‘qitish ma’lum ma’noda ta’lim oluvchilarning umumiyl intellektual salohiyati hamda ularning xorijiy tilni o‘rganish layoqatiga bog‘liq. Olimlar “Nutq faoliyati turlari” tahlilida talabalarning nutq faoliyati turlari avval ana’naviy yondashuvga asoslanib, unda asosan so‘z boyligi va talaffuziga e’tibor qaratilishi natijasida amaliyotda soha yo‘nalishlari bo‘yicha til kompetensiyasining pastligi kuzatilishi keltiriladi.

Nofilologik OTM talabalarni horijiy aloqa qilish qobiliyatini takomillashtirishda interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish imkoniyatlari amalda

ko‘p qo‘llanmagani sabab, nazariya va amaliyotda, chet tilida o‘qitiladigan talabalarning xorijiy tildagi nutq faoliyati turlari bo‘yicha bilimlarini shakllantirish muammolari to‘liq o‘z yechimini topmagan.

Oliy o‘quv yurtlarida chet tilini o‘qitish jarayonida talabalarning kommunikativ, lingvistik, grammatik kompetensiyalarining shakllantirish mohiyati tahlil etilganda oldingi metodlarning samarasizligi kuzatiladi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi, talabalarning mavjud nutq faoliyati turlarini takomillashtirishda nimalarga e’tibor qaratish kerak?

Bir qancha tadqiqotchilar nutq faoliyati turlari haqida ilmiy-izlanishlar olib borishgan, til asosiy hisoblangan OTMlarda ulkan yutuqlarga erishilganligiga qaramasdan, iqtisod yo‘nalishida bu mavzu nazariya va amaliyotda bugungi kunga qadar to‘liq ochib berilmagan.

Bugungi kunga qadar metodika yo‘nalishida texnologiyalar asosida o‘qitish bo‘yicha I.L.Bim, G.A.Kitaygorodskaya, R.P.Mirlud, E.S.Polat, G.V.Rogova, V.M.Riverz, J.S.Richardz, E.M.Rojerslar ilmiy izlanishlar olib borgan¹⁰⁰.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida shuni ta’kidlashimiz lozimki, xorijiy tilni o‘rgatishdan asosiy maqsad – kundalik hayotlari, ilmiy va kasbiy faoliyatlar davomida chet tillaridan erkin foydalanuvchi mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan. Shu bilan birga, ularda vatanparvarlik hissini rivojlantirish, mustaqil izlanish, bilim va malakalarini darsdan tashqari, OTMni bitirganlardan keyin ham rivojlantirish hamda umumbashariy va sohaga oid ilmiy mavzularda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Ingliz tili mashg‘ulotlarida, nutq faoliyati turlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitishning amaliyotdagi holati haqida so‘z yuritilar ekan, manbalar tahlili natijasida, talabalarning DTS va namunaviy, ishchi o‘quv dasturlari asosida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi o‘rganilganda, nazariya va amaliyot nomutanosibliklar mavjudligi ko‘zga tashlandi (1.5-jadval)¹⁰¹.

1.5-jadval

Nazariya va amaliyotda bir-biriga mos kelmaydigan qarama-qarshiliklar tasnifi

Birinchi navbatda	talabalarning “nutq faoliyati turlari”ni tenglikda paydo bo‘lishi yoki takomillashuv jarayonida muammoni hal qilish uchun jamiyat tomonidan ehtiyojlarni, intilishlarni obyektiv ravishda oshishi va shu bilan birga, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasining pastligi
Ikkinchi navbatda	chet tilini o‘qitish va o‘rganish jarayonida vujudga kelayotgan nutqiy, grammatik qiyinchiliklarni hisobga olib talabalarning umumiy kompetentligini oshirish zaruratining kuzatilishi
Uchinchi navbatda	“nutq faoliyati turlari”ni shakllantirishda interfaol texnologiyalarning ta’lim jarayonida va ta’lim tizimida kam ishlatilishi va mavjudlari ham anchagina eskirgan va yangilanishga muhtojligi
To‘rtinchi navbatda	chet tilini o‘qitishda interaktiv usullar (metodlar)dan foydalanmaslik, zerikarli odatiy mashg‘ulot; bu esa o‘z o‘rnida o‘qituvchi va talaba o‘rtasida o‘zaro munosabatlar konsepsiyasiga asoslanmaslikka olib kelishi va uzilish sodir bo‘lishini amalda namoyon etishi
Beshinchi navbatda	talabani o‘zining intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini o‘zi tarbiyalashga yo‘naltiruvchi muloqot yoki suhbat (nutq) jarayonini o‘qituvchi tarafidan takomillashtirilmasligi
	murojaat shakllari, xushmuomalalik va hokazo. Turli madaniyatlardagi kommunikatsiyaning noverbal elementlari: xatti- harakatlar, imo-ishoralar ustida ishlashni davom ettirish. Elektron muloqotlarning chet tilida yozish xususiyatlari

Pragmatik kompetensiya	<p>Taqdimot qilish mahoratini yanada takomillashtirish.</p> <p>Fikrlarni mos tarzda og‘zaki va yozma nutqda mantiqan bog‘lash.</p> <p>Turli ijtimoiy, ta’lim va mutaxassislik doiralarida mos ravishda tilni tegishlirasmiylik darajada qo‘llashni anglash.</p> <p>Muloqot jarayonida nutqni bo‘lish, aniqlik kiritish, boshqacha talqin etish, jumlalarni tuzatish, to‘ldirish va boshqa strategiyalari</p>
-------------------------------	--

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan qarama-qarshiliklar va ularni yechimlarini topish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, yuqoridagi kabi holatlar xorijiy tillarni o‘qitishda ta’lim sifatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi aniq. Biz ilmiy ishimizning tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida aniqlangan va jadvalda qayd etilgan kamchiliklarni qamrab olishga harakat qildik.

Ko‘pgina adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muloqotni tashkil etish muammolari chet tillarni o‘qitish sohasida doimiy qiziqish uyg‘otadi. Buning sababini esa turlicha holatlar bilan izohlashgan. Eng avvalo yuzaga kelayotgan birinchi to‘siq bu talabalarni turlicha o‘zlashtirish imkoniyati, ma’lumotni bir vaqtning o‘zida turli darajada o‘zlashtirilishi va o‘rganuvchi talabalarning turli xarakter va temperament (jismoniy va psixologik holat)ga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotchilar muvaffaqiyatli o‘qitish natijalari uchun yuqori salohiyatga ega bo‘lish kerak ekanligini ta’kidlashadi.

Ta’lim sohasining xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishda paydo bo‘layotgan yangi termin, tushunchalarni anglash, ko‘nikmalarning shakllantirilishi jarayoni bir muncha murakkab bosqichdir. Ilmiy-metodik jihatdan asosiy muammolardan biri tilning o‘ziga xos xarakterini aks ettiradigan leksik, grammatik birlıklarning xorijiy til ta’limi davomida o‘z ona tilisi bilan solishtirib o‘rganish holatida tajribalarning kamlidigidir. Berilgan mavzuni ba’zi holatlarda talabalar o‘zlashtirish jarayonidan

oldin tub mohiyatini anglashda ham ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Qayd etilgan vaziyatlarga yechim topishda qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam berishda, nutq qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra o‘qitishda natija muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun yuqori salohiyat bo‘lishi yoki shakllantirilishi lozimligini unutmaslik shart. Xorijiy tilni o‘zlashtirishda interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish imkoniyati orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini, ulardagi nutq sifati va nutqning to‘g‘riligini aniq, ravshan, ta’sirchan, mantiqli, bahsli dalillar bilan ta’minalash foydadan holi emas.

Jahon hamjamiyati ingliz tilini asosiy va ikkinchi til sifatida o‘qitishda bir qator yangi fikrlar, nazariy va amaliy loyihamalar ustida izlanishlar olib bormoqdalar. Yevropa oliv o‘quv yurtlarida metodika va pedagogika sohasi mutaxassislarini tomonidan xorijiy tillarni o‘rganishda CEFR asosida tinglovchilarining bilim va malakalarini shakllantirish yo‘naltirilgan tadqiqot ishlari kengaytirilmoqda. Shu jumladan, mamlakatimizda xorijiy til ta’limini modernizatsiya qilish va CEFR talablari asosida, bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish masalasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-maydag‘i “Chet tillar bo‘yicha ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar”ga ko‘ra, Oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘limgan fakultetlari bakalavriat bosqichi bitiruvchilar to‘rt yillik tahsillari nihoyasida o‘rgangan chet tili bo‘yicha B2 darajani, ya’ni chet tilini o‘rganishning mustaqil muloqot darajasini egallashlari ko‘zda tutilgan¹⁰².

Yuqorida keltirilgan jadvalda chet tilini bilishga qo‘yilgan talablar va talabning mazmuni asosida OTMlar uchun fan dasturi ishlab chiqiladi. Keltirib o‘tilgan jadvalda til ta’limi mazmuni, nutq faoliyati turlari uchun belgilangan me’yorlar keltirib o‘tilgan. Pragmatik kompetensiya nutqiy muloqotni qo‘yilgan yoki ko‘zlangan maqsadga mos tashkil qila bilish va kerakli axborotni olish yoki

berishda til vositalaridan to‘g‘ri foydalana bilish layoqatini bildirsa, strategik kompetensiya muloqot jarayonida kelib chiqadigan qiyinchiliklarda nutqiy vaziyatga tegishli o‘zgartirishlar kiritish orqali mushkul vaziyatdan chiqib ketish layoqatini ifodalaydi¹⁰³.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan maqsadlarni amalga oshirilishida quyidagi vazifalar belgilanadi:

- DTSi talabidan kelib chiqib talabaning nutqiy (o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), til (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetentsiyasini rivojlantirish;
- ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatga bog‘liq mavzular yuzasidan og‘zaki va yozma ravishda bayon etish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;
- umumbashariy va milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, madaniyatlararo bag‘rikenglik va millatlararo hamdo‘stlik hislarini singdirish;
- ilmiy va kasbiy faoliyatda qo‘llaniladigan atamalarni o‘rgatish;
- talabalarning ilmiy va sohaviy yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarini tashkil etish.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyida keltirilgan talablar qo‘yiladi. Davlat ta’lim standartlariga ko‘ra chet tili bo‘yicha B2 daraja talabi asosida quyidagi kompetentsiyalarni egallash ko‘zda tutilgan, yani:

- xorijiy tillardagi gap tuzilishi va gapdagi so‘zlarning tartibi to‘g‘risida;
- xorijiy tillarda so‘zlarining uslubiy qo‘llanishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;
- xorijiy tillarning tovush xususiyatlarini, nutq tovushlari va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni;
- xorijiy tillar sintaksi talablari asosida mazkur tillarda to‘g‘ri gap va bog‘langan matn tuzishni;
- kasbiy terminologiyani, og‘zaki va yozma nutq xususiyatlarini bilishi va ularidan foydalana olishi;

- o‘z sohasi doirasida xorijiy tilda fikr ifodalay olish, ilmiytexnik adabiyotlardan foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak;

- egallagan bilimlardan kasbiy va ilmiy faoliyatda unumli foydalanish malakalarga ega bo‘lishi kerak.

“Chet tillar bo‘yicha ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar”ga asosan oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘Imagan fakultetlari bakalavriat bosqichi bitiruvchilari chet tili bo‘yicha B2 darajasini egallahslari shart. Unga ko‘ra talabalar B2 darajada o‘zlashtirishlari uchun nutq faoliyati turlarini quyigacha egallahslari lozim:

O‘qish: (tanishib chiqish, sinchiklab qarab chiqish), yozuv, tinglab tushunish va gapisish; talaba o‘rganayotgan sohasiga oid adabiyotlar bilan tanishib chiqishi va o‘zi uchun qiziqarli va kerakli bo‘lgan axborotni tushunishi, publitsistik, ilmiy-ommabop, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni o‘qishi va kerakli axborotni olishi lozim. Mashg‘ulotlarda yuqorida aytilgan malakalarni shakllantirish va o‘stirish juda murakkab bo‘lganligi uchun ularni mustaqil ish jarayonida sinchiklab, ko‘z yugurtirib qarab chiqib o‘qish turlari orqali tashkil qilinadi. Ushbu o‘qish turlarini nazorat qilish-matnni butunlay tarjima qilish yoki uning tanlab olingan qismlarini tarjima qilish bilan amalga oshiriladi.

Tanishib chiqib o‘qish mustaqil ish turi sifatida uyda o‘qish shaklida olib boriladi. O‘qishning bu turi uchun autentik yoki adaptatsiya qilingan adabiy, ilmiy-ommabop adabiyot tanlab olinadi. Tekshirish shakllari: o‘qiganini mazmunini tushunganligi bo‘yicha savol-javob ishlari, ajratib olingan masalalar bo‘yicha axborot olish, bahs-munozaralar o‘tkazish, axborotga reja tuzish va h.k.

Qarab chiqib, qidirib topish uchun o‘qish. O‘qishning bu turida ommaviy-siyosiy, publitsistik matnlar, gazeta va jurnal materiallari beriladi va har bir darsda qisqacha axborot olinadi. Talaba bitta gazeta maqolalari asosida axborot beradi yoki mavzu bo‘yicha bir qancha gazeta va jurnallardan axborot tayyorlaydi.

Tinglab tushunish: hajmi turlicha bo‘lgan audio-va videomatnlarni tinglab tushunish, savollarga javob berish, gapirib berish, annotatsiya yoza olish;

Gapisish: talabalarning dialogik va monologik nutqlari bo‘yicha mustaqil

ishlari auditoriyada o‘rgatilgan matnlar, o‘quv materiallari asosida tashkil qilinadi. Gapirish bo‘yicha mustaqil ish sifatida mavzu asosida ma’lumot tayyorlash, matn mazmunini gapirib berish, o‘rganilgan leksik materiallar asosida hikoyalar tuzish, berilgan muammoli masala va vaziyatlarni muhokama qilish kabi topshiriqlar berish mumkin. Gapirish malakasini rivojlantirib borish uchun multimediadasturlarini va texnologiyalarini qo‘llashga asosiy e’tibor qaratiladi;

Yozuv: Yozuv bo‘yicha mustaqil ish o‘z ichiga o‘rganilayotgan tilda fikrni bayon qila olish ishlarini oladi. Bunda mustaqil ish mazmuniga quyidagilar kiradi:

- annotatsiya, referat, rezyumelar tuza olish;
- og‘zaki ravishda nutq hosil qilish uchun reja yoki tezis tuzish;
- turli xatlar, tabriknoma, takliflar, ish yuzasidan xatlar tuza olish;
- o‘qishga va ishga qabul yuzasidan arizalar yoza olish;
- sohaga oid turli hujjatlarni to‘ldirish;
- bayon, insho, esselar yoza olish;
- kasbi bo‘yicha ish yuritish ishlarini (yozuvlarini) olib borish.

Talaba 1200 belgidan iborat kichik hajmdagi inshoni yoza olishi kerak. Yuqorida xulosalardan kelib chiqib, chet tilini o‘qitishni takomillashtirish uzlusiz ravishda yangi yondashuvlar, usullar va metodlar ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Ayni paytda, talabaning chet tilini o‘rganishini shakllantirish bilan birga boshqa turdagi shaxsiy va kasbiy rivojlanish kompetensiyalariga e’tibor qaratish lozim. Bir vaqtning o‘zida talabalarning xorijiy til ta’limi bo‘yicha kommunikativ qobiliyatini, shaxsiy kompetentliklari bilan uzviylashtirish zaruriydir. Xorijiy tilni interfaol innovatsion metodlar yordamida o‘rganish, nutq jarayonini takomillashtirishga, talabalarni aloqa qobiliyatlarini yaxshilanishiga xizmat qiladi. Til ta’limini rivojlantirishda madaniyatlararo munosabatlarga ham, ya’ni sotsiolingvistik kompetensiyalarga diqqat qilish zarur. Talabalarning xorijiy tillarni o‘qitish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliyot tajribalarini tahlil qilib shuni aytish mumkinki, talabalarning xorijiy til bilish qobiliyatlarini takomillashtirishda

kompetensiyaviy yondashuvga ko‘p ahamiyat qaratilmayapti. Ularni o‘z ustilarida mustaqil ishlay olishlari, mavjud bilimlarini amaliyatda qo‘llashlarini ta’minlay olish uchun ilmiy-pedagogik yangiliklarni yanada boyitish kerak. Bu esa, o‘z navbatida yuzaga kelgan muammolar va mavjud qarama-qarshiliklarni samarali yechishga yordam beradi.

I bob bo‘yicha xulosalar

Kompetensiyaviy yondashuv talabalarga atrof-muhitdan qat’i nazar, o‘z tezligida ko‘nikma yoki malakani egallash qobiliyatiga asoslangan holda oldinga siljish imkonini beradi. Ushbu yondashuv turli xil o‘rganish qobiliyatlarini qondirish uchun moslashtirilgan va talabalarni yanada samarali natijalarga erishishiga xizmat qiladi.

Aloqa vositasi sifatida nutq faoliyati turlari, nazariy qonuniyatlar asosida emas, balki amaliy o‘rganish, tilni amaliyatda qo‘llashni nazarda tutadi. O‘zaro munosabatlar o‘rnatalishi jarayonida chet tili (ingliz tili) o‘qituvchisi va talabalar o‘rtasida muloqot jarayonining kengaytirilishi til o‘qitish sifatini oshiradi. CEFR talablari asosida o‘qitishni takomillashtirish jarayonida ham, shaxsiy kommunikativ qobiliyatdan to‘g‘ri foydalanish va amalda qo‘llay olish, ta’lim olishning bosh mezoni hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotda, kontekstda xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida shu til va o‘z ona tili madaniyati orqali qiyosiy tarzda o‘rgatish ham foydadan holi emas, bunda didaktik-metodik shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Shunda, bir butun yaxlit tizimlilikda kommunikativ qobiliyatlar shakllantiriladi.

Moliya-iqtisod yo‘nalishi talabalarining kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, nutq faoliyati turlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish va ushbu maqsadga erishishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni yanada kengaytirishi lozim, chunki talabaga fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma berishning o‘zi yetarli emas, balki olingen bilimni amaliyatda qo‘llay olish zarurati ustuvorligi ham muhim hisoblanadi.

Bo‘lajak iqtisodchilarning ingliz tili mashg‘ulotlarida, nutq faoliyati turlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitishning amaliyotdagi holati haqida bo‘lib,

tajriba-sinov ishlarida kuzatilgan amaliyot va nazariyadagi mavjud kamchiliklar va qarama-qarshiliklar tasnifi, CEFR talablari asosida chet tili bo'yicha B2 daraja uchun ta'lim mazmuni va o'qitilayotgan adabiyotlar tahlili, mavzular va ularga ajratilgan vaqt taqsimoti haqida jadvallardan namunalar, DTS asosida qilingan tahlillar keltirib o'tilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning turli strategiyalar asosida shakllantirish o'z ahamiyatiga ega. Shu bilan bir qatorda, muqobil metodologik yechimlar, umuman, o'qitishning eski usullaridan voz kechish, yangi innovatsion metodlar orqali samarali natijalarga erishishga imkon yaratadi. Oliy o'quv yurtlarida xorijiy tili ta'limini tashkil etishning markaziy muammolari ularga mos keladigan ta'lim mazmunini belgilash masalasidir. Maqsad obyektiv ehtiyojlar bilan belgilanadi, ijtimoiy tartibini ifodalaydi, ta'limning mazmunini va uning tashkil etilishini ta'minlaydi. Ushbu yo'nalishdagi kommunikativ jihatlarni kuchaytirish filologik yoki nofilologik o'quv yurtlarida o'quv maqsadlari va o'qitish mazmunini o'zgartirishda aks etadi.

Chet tilini o'qitishni takomillashtirish uzluksiz ravishda yangi yondashuvlar, usullar va metodlar ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Ayni paytda, talabaning chet tilini o'rganishini shakllantirish bilan birga boshqa turdagи shaxsiy va kasbiy rivojlanish kompetensiyalariga e'tibor qaratish lozim. Bir vaqtning o'zida talabalarning xorijiy til ta'limi bo'yicha kommunikativ qobiliyatini, shaxsiy kompetentliklari bilan uzviylashtirish zaruriyidir. Xorijiy tilni interfaol innovatsion metodlar yordamida o'rganish, nutq jarayonini takomillashtirishga, talabalarni aloqa qobiliyatlarini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

II BOB. BO‘LAJAK IQTISODCHILARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA KASBIY KOMPETENSIYASINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI

2.1. Bo‘lajak iqtisodchilarning ingliz tili darslarida kasbiy kompetensiyasini transformatsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlari

Pedagogik adabiyotlarda qayta-qayta ta’kidlanganidek, kasb-hunar maktabi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – mutaxassislar tayyorlashning umumiylar darajasini oshirishdir. Shu bilan birga, o‘qitish maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi va mutaxassislarning ma’lum bir jamoasiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak, bu asosan o‘quv vositalarini to‘g‘ri tanlash bilan belgilanadi. Ushbu tanlov o‘quv jarayonining butun yo‘nalishini belgilaydi, ya’ni:

birinchidan, leksik mazmuni, tarkibiy shakli va kasbiy yo‘nalishi nuqtayi nazaridan, o‘qitishning xarakteri, shu asosda predmeti ham unga bog‘liq. O‘qitish tilining qamrovi va murakkabligi o‘quvchilarning ehtiyojlari, bilim darjasasi va qobiliyatiga mos kelishi kerak;

ikkinchidan, o‘quv vositalarini tanlash ko‘p jihatdan o‘qitish metodikasi va shaklini belgilaydi;

uchinchidan, o‘quv materiallarining mazmun komponenti o‘quv jarayonining motivatsion komponentini aks ettiruvchi shaxs ehtiyojlarini qondirish nuqtayi nazaridan muhim element hisoblanadi [88, 38-b.].

Biroq, o‘quv vositalarini tanlash o‘qituvchi uchun juda ko‘p muammolarni keltirib chiqaradi. Chunki, bir tomondan, biz juda ko‘p turli xil darsliklarni, jumladan, ingliz tilidagi iqtisodiyotga oidlarini ko‘rmoqdamiz, ikkinchi tomondan, ushbu qo‘llanmalarining ma’lum bir ta’lim muassasasining hech biri ma’lum bir guruh talabalarini o‘qitishning maqsad va vazifalariga yuz foiz mos kela olmaydi.

Shunday qilib, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetarli ma’lumotga ega bo‘lmagan boshlang‘ich kurs talabalarini o‘qitish til komponenti bilan bir qatorda kasbiy asosiy tushunchalarning qulay tavsifini jamlagan o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi, bu nafaqat bilim asoslarini shakllantirishga yordam beradi, balki kasbiy

bilimlar bilan bir qatorda mutaxassisning til va iqtisodiy tayyorgarligining integratsiyasi tamoyilini amalga oshirishni ham aks ettiradi.

Ushbu tadqiqot yo‘nalishiga maksimal darajada mos keladigan o‘quv qo‘llanmasini ishlab chiqish jarayonida, ya’ni “xorijiy til” fani orqali kasbiy kompetensiya asoslarini shakllantirishda iqtisodiy yo‘nalishdagi ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish vositalarining turlarini batafsilroq ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Ushbu qismda biz iqtisodchilarga ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha nashr etilgan materiallarning ikkita asosiy guruhini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi toifaga leksik-grammatik tizim sifatida iqtisodiy mazmundagi o‘quv materiallarini tanlash asosida chet tilini o‘qitishga qaratilgan qo‘llanmalar kiradi.

Bu borada quyidagilarni nazarda tutamiz:

1. Darslikdan tashqari ish daftari, audio kurs va ba’zan video kursni o‘z ichiga olgan o‘quv paketi: o‘quv-uslubiy majmua (O‘UM) [145,146,162,167,171,172,176,181]. Bunday qo‘llanmalar materialni taqdim etishning ma’lum bir usuliga asoslanadi: strukturaviy (1-sx), funksional (2-sx) va vaziyatli (3-sx) (2.1-ilovaga qarang). Qoidaga ko‘ra, darslikning yo‘nalishi uning mazmuniga qarab belgilanishi mumkin.

Bu turdagи barcha o‘quv qo‘llanmalari bir xil maqsadlarni ko‘zlagan bo‘lsada, u yoki bu usuldan foydalanish o‘ziga xos urg‘ularni qo‘yib chiqadi. Darsliklarni yaratuvchilar o‘quv jarayonining har bir bosqichini material bilan ta’minalashni maqsad qilganlar, bu ideal holda o‘qituvchiga faqat darslikda keltirilgan ma’lumotlardan foydalanish imkonini beradi. Ba’zi darsliklarda darslar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minalaydigan syujet chizig‘i mavjud, boshqalari o‘quv materialini taqdim etishning modul usuliga namuna sanalib, o‘qituvchiga eng dolzarb masalalarga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Biroq, bunday darsliklar iqtisod fakultetlari talabalarining o‘ziga xos ehtiyojlarini hisobga olmaydi va ko‘pincha rus tilida o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidan orqada qoladi yoki sezilarli darajada o‘zib ketadi, bu esa bir tomondan, yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini sekinlashtiradi,

ikkinchi tomondan, o‘quv jarayonini, ayniqsa, boshlang‘ich bosqichda tashkil etishga jiddiyroq talablarni qo‘yadi.

2. Qo‘srimcha materiallar ham darslik yoki o‘quv majmuasi sanaladi, lekin oldingi qo‘llanmalar guruhidan farqli o‘laroq, ular o‘rganishning barcha tomonlarini qamrab olishni maqsad qilmaydi [143,150,152,153,159,161,166,178,183]. Ba’zi qo‘llanmalar inson faoliyatining muayyan sohasiga, masalan, uchrashuvlar va muloqotga qaratilgan. O‘qituvchi ushbu qo‘llanmalardan chet tili darslarida qo‘srimcha materiallar sifatida o‘rganishning ma’lum til tomonlarini birlashtirish uchun foydalanadi deb taxmin qilinadi, bu kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishning zaruriy sharti bo‘lib, tadqiqotimiz maqsadiga erishish omillaridan biri hisoblanadi.

3. Kasb-hunarga yo‘naltirilgan qo‘llanmalar chet tilini yuqori ixtisoslashtirilgan yo‘nalishdagi o‘quv materiallari, masalan, bank ishi, import-eksport operatsiyalari, buxgalteriya hisobi va hokazolar asosida o‘qitishga qaratilgan. Bunday o‘quv qo‘llanmalarda asosiy e’tibor chet tilini o‘zlashtirishga emas, balki darslik mavzusi bo‘yicha bilim olishga qaratilgan. Shu bilan birga, ularda o‘rganilayotgan mavzu doirasida og‘zaki va yozma nutqni o‘rgatish bo‘yicha qator uslubiy vazifalar ham berilgan [142,150,157,169,180].

Biroq, ushbu turdagi o‘quv qo‘llanmalarini tanlash juda ehtiyyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Masalan, agar bank ishi yoki xalqaro munosabatlarni iqtisodiyot sohasida chuqurroq o‘rganuvchi ixtisoslashtirilgan guruhlarda ulardan foydalanish samarasi ancha yuqori bo‘lsa, talabalarni boshlang‘ich bosqichda o‘qitishda bu turdagi o‘quv vositalaridan foydalanish noo‘rin bo‘ladi.

4. Ma’lumotnomalar turidagi adabiyotlar ham zarur o‘quv vositalarining tarkibiy qismi hisoblanadi. U birinchi navbatda talabaning so‘z boyligini boyitishga qaratilgan, lekin ko‘pincha foydali - tarkibiy yoki funksional - qo‘srimcha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Lug‘atlar va ma’lumotnomalar bilan ishslash ko‘nikmalari talabalarning mustaqil ishi samaradorligini belgilaydi [142,144,170,185,182,184].

5. Mustaqil ish uchun qo‘llanmalar talabalarning til va kasbiy malakalarini

shakllantirishning zarur sharti bo‘lib, mutaxassislar e’tiborini tobora jiddiyroq jalgilmoqda. Bu turdagи o‘quv faoliyatini tashkil etish uchun maxsus bir qancha qo‘llanmalar ishlab chiqilgan [160,164,165,168,174]. Umuman olganda, batafsil tushuntirishlar va kalitlar bilan birga mashqlar ko‘rinishidagi vazifalarni o‘z ichiga olgan har qanday qo‘llanma xuddi shu maqsadda ishlatilishi mumkin.

Biroq, ko‘pchilik talabalar tez orada boshqa stimullar mavjud bo‘lмаган holatda cheksiz leksik va grammatik mashqlarning monoton bajarilishidan charchashadi. Maxsus ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanmalar mustaqil ish jarayonini auditoriyadagi darslar kabi qiziqarli qilish maqsadini ko‘zlaydi. Shu bilan birga, ular audio va video kurslarni o‘z ichiga oladi bunga misol so‘nggi paytlarda o‘rgatuvchi kompyuter dasturlari keng tarqalgani.

Ikkinchi toifa bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan va chet tili bo‘yicha o‘quv qo‘llanma sifatida foydalanish uchun mo‘ljallanmagan o‘quv ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi [147,148,154,158,163,173]. Ular biznes sohasidagi professionallar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bo‘lajak iqtisodchilar uchun o‘zlarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida qimmatli bilim manbai bo‘lib, axborotning yuqori sifati va ishonchlilagini kafolatlaydi. Bundan tashqari, ular tilni o‘rgatish vositalari va haqiqiy materiallar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglatadi.

Ular tarbiyaviy maqsadlarga mo‘ljallangan bo‘lib, autentli nutq namunasi sifatida foydalanish mumkin bo‘lmashligiga qaramay, birinchi toifaga kiritilgan o‘quv qo‘llanmalariga nisbatan, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan qo‘llanmalar ko‘proq real hayotni eslatadi. Ular ilgari ish tajribasiga ega bo‘lмаганлар uchun alohida ahamiyatga ega, chunki ular eng keng tarqalgan biznes vaziyatlari, xatti-harakatlari va tartiblari, shuningdek, muammolarni hal qilishda hamkorlik asoslari haqida tushuncha beradi. Shu bilan birga, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun o‘quv materiallaridan foydalanish kommunikativ yo‘nalganlikka ega bo‘lishi kerak.

Masalan, ishbilarmonlik o‘yini bir guruh talabalarga ingliz tilida biznes muammosini muhokama qilish jarayonida kasbiy kompetensiyani shakllantirish

nuqtai nazaridan muloqot qilish ko‘nikmalarini oshirish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi.

Iqtisodiy yo‘nalishdagi ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish jarayonida ushbu turdagи o‘quv qo‘llanmalaridan qo‘srimcha material sifatida foydalanish odatiy holdir.

Ushbu turdagи o‘quv vositalarining bir nechta turlari quyida keltirilgan:

1. Video qo‘llanmalar tijorat faoliyatining turli sohalariga (masalan, uchrashuvlarni qanday samarali o‘tkazish, savdoni tashkil etish, mahsulot taqdimotini ishlab chiqish) va biznesning shaxsiy rivojlanishiga (masalan, mijozlar bilan qanday muloqot qilish, hamfikrlar jamoasini yaratish, yaxshi rahbar bo‘lish) qaratilgan. Bundan tashqari, ular biznes sohasida amaliyot qilish uchun imkoniyatlar yaratadi (masalan, kompaniya boshqaruvi loyihasini ishlab chiqish). Materialni taqdim etishning noan’anaviy uslubi, uning dolzarbliги talabalarning chet tiliga ham, bo‘lajak mutaxassisligiga ham qiziqishini oshirishga yordam beradi.

2. Ishbilarmonlik o‘yinlarini ikkita asosiy guruhgа birlashtirish mumkin - kontekst ichidagi va kontekstdan tashqari [182, b. 124]. Ushbu o‘yinlarning katta ahamiyati shundaki, kasbiy va kommunikativ bilan bir qatorda, chet tili orqali ijtimoiy kompetensiyanı rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi.

Autent materiallar – bu haqiqiy hayotdan olingan va ta’lim maqsadida yaratilmagan har qanday ma’lumot manbalari. Bu matnli, vizual yoki audio materiallar bo‘lishi mumkin; autent ta’lim vositalari, shuningdek, bizni kundalik hayotda o‘rab turgan voqeliklarni, masalan, chiptalar, taomnomalar, jadvallar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan ularning eng samaralisini bat afsil ko‘rib chiqaylik. Buning uchun autent manbalarni tahlil qilish jarayonida biz uchta savolga javob berishga harakat qilamiz:

1. O‘rganilayotgan material kimga qaratilgan?
2. Uning o‘qitish maqsadlari nimalardan iborat?
3. Materialdan qanday foydalanish mumkin?

Materialdan foydalanish usullari, birinchi navbatda, uning turi va mazmuniga

bog‘liq bo‘lsa, undan foydalanish samaradorligi esa talabaning til, kasbiy, kommunikativ ehtiyojlari, shuningdek, uning qiziqishlari bilan belgilanadi.

1. Matnli materiallar.

Yozma autent nutqning namunasi sifatida materialni taqdim etishning eng keng tarqalgan usulini ko‘rib chiqaylik. Ulardan foydalanish bevosita talabaning ehtiyojlariga bog‘liq. Agar ma’lumot olish bilan birga talabalar o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirsa, bu holda matn original, moslashtirilmagan shaklda taqdim etilishi va tegishli topshiriqlar bilan birga bo‘lishi kerak.

Bu yerda, birinchi navbatda, kasb-hunar ta’limi muassasalari mutaxassislari va talabalari uchun ishonchli va dolzarb ma’lumotlarning eng muhim manbai bo‘lgan kitoblar, gazeta va jurnal maqolalari nazarda tutiladi. Gazeta va jurnallardagi autent matnlar bilan ishslash grammatik konstruksiyalarni o‘rganish, til va kasbiy so‘z boyligini yangi tushunchalar bilan boyitish, hikoya birliklarini qiyosiy va qarama-qarshi tahlil qilish ko‘nikmalarini egallash kabi til ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, yuqori o‘quv motivatsiyasi kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni belgilaydi, bu fikr almashish, jamoaviy muhokama va munozaralarda qatnashish, shuningdek, matnlar uchun ijodiy topshiriqlarni bajarish orqali yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda namoyon bo‘ladi.

Rasmlar, grafikalar, diagrammalar tilni o‘rgatishda ham foydali bo‘lishi mumkin, ayniqsa ma’lumotni vizual idrok etishga ko‘proq moyil bo‘lgan talabalar uchun. Bundan tashqari, bunday o‘quv vositalari talabalarning motivatsiyasini rag‘batlantirishi, ularni olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va sintez qilishga undashi va pirovardida ularda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini, o‘z nuqtayi nazarini diagrammalar va jadvallar orqali qisqa va ixcham ifodalash qobiliyatini shakllantirishi mumkin. Grafik va diagrammalardan foydalanish turli xil ma’lumotlarni taqqoslash, qarama-qarshi qo‘yish kabi hodisalarni chet tilida o‘zlashtirishga yordam beradi, bu bizning fikrimizcha, nafaqat kommunikativ, balki kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Ayniqsa, reklama e’lonlari bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda qo‘l keladi,

chunki ular, masalan, ingliz tilida ariza yoki rezyumeni qanday rasmiylashtirishni ko‘rgazmali tarzda taqdim etadi. Bundan tashqari, o‘zlari haqidagi ma’lumotlarni mustaqil taqdim etish talabalarga nafaqat bunday hujjatlarni tuzish ko‘nikmalarini egallashga imkon beradi, balki ularni o‘zlarining ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarini qulay nuqtayi nazardan taqdim etishga o‘rgatadi. Shunday qilib, reklama e’lonlaridan ko‘rgazmali vosita sifatida foydalanish ijodiy tashabbusni rag‘batlantirishga, shuningdek, yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bunday o‘quv vositalaridan rolli o‘yinlarni tashkil qilishda yoki talabalar potensial iste’molchilarining qiziqishini jalb qilishni talab qiladigan gipotetik yangi mahsulotni yaratishda samarali foydalanish mumkin, bu, albatta, bo‘lajak mutaxassislarning savdo va marketing sohasidagi kasbiy malaka ko‘nikmalarini shakllantiruvchi omillardan biriga aylanadi.

Voqelik – bu kundalik hayotda bizni o‘rab turgan narsa va hodisalardir. Bularga masalan har xil turdagи chiptalar, jadvallar, taomnomalar, ma’lumot bukletlari va boshqalar kiradi. Bunday manbalarni o‘rganish, garchi u bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirishga ta’sir qilmasa ham, ularni o‘rganilayotgan til mamlakatining kundalik voqeligi haqidagi bilimlar bilan boyitadi va bu bilan barkamol shaxs tuzilishining eng muhim elementi sifatida ijtimoiymadaniy kompetensiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Bunday manbalardan telefon suhbatlari, munozaralar jadvali va ijtimoiy omon qolish ko‘nikmalarini o‘rgatishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Motivatsion komponent sifatida ular turli kundalik mavzulardagi rolli o‘yinlarda samarali qo‘llanilishi mumkin.

2. Audio va video manbalar.

Autent audio va video materiallar yozma tildan ko ‘p jihatdan farq qiladigan og ‘zaki til modelini taqdim etadi. Biroq, o ‘quv kassetalaridagi yozuvlar ko ‘pincha tabiiy nutqni aks ettirmaydi va ko ‘p jihatdan yozma nutqqa o ‘xshaydi, chunki ular to ‘liq jumlalarni o ‘z ichiga oladi, ularda ishonchsizlik, uzilgan gaplar va grammatik xatolar, ya’ni oddiy so ‘zlashuv nutqiga xos bo ‘lgan barcha narsalar mavjud emas.

Practical outcomes	+	+	+	+

Kuzatishlarimiz natijasida shuni aytu olamizki, har bir mavzular o‘z ichiga nutq faoliyati turlarini qamrab olgan bo‘lib, lekin ayni vaqtida talabalarning bilimlarini takomillashtirish uchun soddalik qiladi. Guruhlarda, bugungi kunda bir qator talabalarning til bilish sertifikatlari mavjud va bu adabiyot mazmunan ularning bilimlarini takomillashtirish uchun yetarlicha yordam ko‘rsatmaydi, degan fikrdamiz.

Keyingi o‘rinda keltirilgan “Scale up” darsligida iqtisodga doir matn va mavzular deyarli yo‘q. Adabiyotdagi keltirilgan mavzular asosan kundalik hayot va umumiyligini qamrab oladi. Bu adabiyotning o‘zidan foydalanish bilan iqtisod sohasida til bilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni imkonsiz deb hisoblaymiz, mashg‘ulotlarni tashkillashtirish davomida qo‘srimcha iqtisodiy mavzularni qamrab olgan qo‘srimcha materiallardan foydalanishga ehtiyoj mavjud. Fikrimizning isboti sifatida tajriba-sinov oldidan o‘tkazilgan savolnomada talabalarning ko‘p qismi sohalariga oid qo‘srimcha adabiyotlar bilan ishlashi lozimligi, kelajakda sohalariga oid bilimlarni mukammal o‘rganish istaklari borligini bildirganlar.

An’anaviy o‘qitish metodlaridan voz kechish lozimligi va o‘z ustilarida mustaqil ishlay olishlari uchun qo‘srimcha vazifalar olish istaklarini bayon etishgan. Bugungi kunga OTMlarga kirish imtihonlarida chet tili bo‘yicha taqdim etilayotgan

imtiyozlardan kelib chiqib, ular mavjud bilimlarini takomillashtirishga ehtiyoj sezayotganlarini ta'kidlab o'tishgan.

O'quv adabiyotlari asosan kundalik mavzularni qamrab olgan bo'lib, nutq faoliyati turlarini takomillashtirishlarida ularga qo'shimchalar kiritilsa, maqsad muvofiq bo'lishi haqida o'z fikrlarida bayon etganlar.

Keyingi yuzaga kelgan muammo dars tahlillari shuni ko'rsatdiki, mavzularni hamma tomonlama o'zlashtirishda bir nechta qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Tinglab tushunish malakasi. Tinglovchi hech narsani o'zgartira olmaydi, so'zlovchi nutqini tinglovchining tushunish, darajasiga moslashtira olmaydi; Nutqni birinchi marta tushunishga to'sqinlik qiladigan bir qator obyektiv qiyinchiliklar mavjud: Tinglash shartlari tufayli qiyinchiliklar; Nutq manbasining individual xususiyatlari tufayli yuzaga keladigan qiyinchiliklar; Idrok qilingan materialning lingvistik xususiyatlari tufayli yuzaga keladigan qiyinchiliklar; Tinglab tushunishdagi qiyinchiliklarga tashqishovqin, shovqin, yomon akustika kiradi

Gapirish malakasi Gapirish jarayonida turli xil talaffuzdagi aksentlar, tillarni tarqalish va foydalanish o'rni (British, American, Australian, Indian), ushbu aksentlardagi mavjud qisqartirib aytishlar; Talaffuz jihatidan bir-biriga yaqin so'zlarni tinglab tushunish davomida teskari anglash yoki aksincha umuman yanglishtirish; Lug'at boyligining kamligi va tajriba yetishmasligi; Tinglab tushunish jarayonida berilgan mashqlardagi nutq tezligidan yaxshi anglamaslik yoki tushuna olmaslik; Mashqlarni uzunligi yoki matn(dialoglar)ning murakkabligi ko'zga tashlandi

O'qish malakasi o'qish jarayonida so'zlarni noto'g'ri o'qish; Talabaning darajasiga mos kelmaydigan material; Talabalarda o'qish ko'nikmasini shakllanmaganligi yoki yetarli darajada emasligi; Notanish kontekstni tarjima qilishda lug'at boyligining kamligi va shu holat ta'sirida matnni anglay olmaslik; Matnni o'qishda idiomalar va frazeologik birikmalarni tushunmaslik bilmaslik, lug'at yordamida tarjimalardagi xatoliklar orqali matn mazmunini anglay olmaslikni aytish mumkin.

Talabalarning bilim darajalarining har xilligi (mixed ability classes) har doim asosiy muammolardan hisoblanishi sir emas, lekin ularga mavzuni yetkaza olish mahorati ham alohida ahamiyat kasb etishini yodda tutish lozim.

Darslarda nutq faoliyati turlarini o‘qitishda yetarli darajada kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim berish kuzatilmadi. Darslarda qisman kommunikativ yondashuvdan foydalanilmoqda. Bu holatda mashg‘ulotlarda ko‘zlangan maqsadlarni to‘liq qamrab olinmasligi ko‘zga tashlandi. Talabalarning barchasini mashg‘ulotga qamrab olish, mavjud avvaldan shakllangan nutq faoliyati turlarini takomillashtirish jarayoni to‘liq tatbiq etilmagan. Tanlangan mashq va topshiriqlar bir-biriga bog‘lanmagan. Nutq faoliyati turlarini o‘qitish jarayonida bir-birini to‘ldirishda ayniqsa, biridan ikkinchisiga o‘tish davomida uzilishlar ko‘p, talabalarning til tajribalarini mustahkamlashda yetaricha qiyinchiliklar mavjud. Har bir dars uchun nutq faoliyati turlari qamrab olinmagani, shuningdek, vaqt teng taqsimlanmaganligi kuzatildi. Ingliz tili mashg‘ulotlarini integrativ tashkil etish va bunga kompetensiyaviy yondashuv asosida yondashish har bir mavzuni mohiyatini ochib berishda barcha nutq faoliyati turini amalga oshirish va ularni tenglikda olib borishni ta’minalash talabalarning kommunikativ qobiliyatini o‘sishiga olib keladi. Ta’lim jarayoni nofilologik yo‘nalishda filologik yo‘nalishdan tubdan va tamomila farq qilishini ham hisobga olish zarur. Mutaxassisligi moliya-iqtisod yo‘nalishi bo‘lgan talabalarni chet tilidagi nutq faoliyati turlarini takomillashtirishda kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq. Ularda ayni kunda o‘z fikrini erkin bayon eta olmaslik va buning uchun birgina mashg‘ulotning o‘zida natijaga erishish mushkul jarayondir. Ayni vaqtda har bir mashg‘ulot haftada bir marta olib borilishini hisobga olsak, kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish va to‘rtta nutq faoliyati turlarini bir tartibda takomillashtirish uchun integrativ mashqlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. “O‘qitish mazmuni metodikaning muhim masalalaridan biridir. Hozirgi davrda tillarga ixtisoslashmagan oliy ta’lim muassasalarida chet tili o‘qitish mazmuni deganda, talabalar oladigan tarbiyaning maqsad va vazifalari bilan aniqlanadigan bilimlar, materiallar, mashqlar va ko‘nikmalar xususiyati hamda hajmi tushuniladi”¹¹⁶.

To‘plangan ma’lumotlar va tahlillarni o‘rganib, shaxsiy fikrlarimizga tayangan holatda, o‘quv predmetning mazmunini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadigan jarayonlarni quyidagicha deb hisoblaymiz:

1.Tanlangan o ‘qitish mazmuni belgilangan o‘qitish maqsadiga muvofiq kelishi:

Xorijiy tilni o ‘qitishning maqsadi, o‘qitish mazmunining natijasiga va hajmigata’sir ko‘rsatadi.

2. O‘qitishning mazmun va maqsadini reallik, ijtimoiylik asosida uzviylashtirish:

Mazmun tanlanganda, belgilangan vaqt oralig ‘i uchun til materiali va nutq namunasi birga tanlanadi, chunki tilni o‘qitishni rivojlantirish ba takomillashtirish jarayoni aynan ушбу омиллар asosida uzviylashtiriladi. Mazmunni tanlashda o‘qitish, o‘rgatishni metodik tashkil qilish hisobga olinadi.

3. O‘qitish mazmuni va maqsadini amaliyatda qo‘llash jarayoni:

Nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv malakalari)inishakllantirish, o‘rgatish, o‘stirish;

Mustaqil ta’limni rivojlantirish, qo‘sishimcha adabiyotlar bilan ishslash ko‘nikmalarini o‘rgatish.

Bilimning mukammal berilishi mashg‘ulotning unumli umumlashgan, takomillashgan hamda optimallashgan bo‘lishiga bog‘liq. T.Karshieva ta’kidlaganidek, “Optimallashtirish chet tili o‘qitilayotgan vaziyat, sharoit, oliy o‘quv yurtlari talabalari va ularning tanlagen sohalariga mos, oson, qulay metod, yo‘l, usul, tizim, tamoyil, vosita, mashqlarni izlash va tanlay bilish, qo‘llashni nazarda tutadi. Optimallashtirish turli tipdagi oliy o‘quv yurtlari uchun o‘ziga xosdir, chunki dars soatlari turlicha bo‘ladi, talabalarning ona tili xususiyatlari ham turlicha ta’sir qiladi. Hozirgi davr kommunikativ malaka, ko‘nikma chet tilida ma’lumot berish (gapirish, fikrni yozma bayon qilish orqali) va ma’lumot olish (o‘qish, tinglab tushunish orqali) malaka va ko‘nikmalarni yanada o‘stirishni, ta’lim bilan tarbiyani birga olib borishni talab qiladi.

Agar doimiy ta’lim nuqtayi nazaridan imkoniyatlarga qaralsa, chet tili

mashg‘ulotlari orqali talabalarni chet tilidagi qobiliyatlarini yanada kengaytirishga yoki keyinchalik bir yoki bir nechta xorijiy tillarni o‘rganishga yordam beradigan ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lishi mumkin. Agar chet tilini o‘qitish ijtimoiy kontekstda amalga oshirilsa, u talabalarning shaxsiy o‘zaro ta’sirning murakkabligini tushunishlariga yordam berishi mumkin; u ularni nafaqat chet tilida, balki ona tilida ham ijtimoiy aloqalarda yanada samarali ishlashga tayyorlashga xizmat qiladi. Ingliz tili mashg‘ulotlarida CEFR (B2) darajasida til ko‘nikmalarini egallashda talaba kundalik hayotda amaliy jarayonlarni o‘z ichiga olgan vaziyatlarga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- tilni oldindan taxmin qilish; shaxsiy xatti-harakatlar bilan bog‘liq vaziyatlar.
- talabalarga ijtimoiy aloqalarni, shu jumladan, biznesni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini berish;
- yozma yoki og‘zaki matnlarning mohiyatini yoki tegishli tafsilotlarini tushunish.

Bu holatni yanada tushunarli bo‘lishi uchun misollarga murojaat qilamiz (ingliz tili mashg‘ulotlari bo‘lgani uchun misollar inglizchada keltiriladi):

- procurement: purchase of consumer goods;
- advertisements in newspapers, magazines, etc. for shops and consumer goods

Students, in turn, have the following information;

- know the basic concepts of the nature of goods, the conditions of their use and sale;
- reading publications in markets, supermarkets, shops, etc .;
- know the availability of products and where to find them;
- discuss the nature and relative advantages of certain variants of goods;
- Negotiate prices and understand the terms of sale;
- making payments and, if necessary, requesting prices, bills, etc .;
- incorrect, incorrect or redundant things should be discussed and returned;

In the field of B a n k:

- *public notifications (especially inquiries on cash payments, currency rules and banknote exchange rates / travel checks);*
- *create opportunities for requesting, setting up and using bank accounts (for temporary residents).*

Kompetensiyaviy yondashuv talabalarga chet tilini o‘z maqsadlari uchun ishlatishga imkon berishga qaratilgan. Ushbu maqsadlar talabalarining shaxsiyatiga, sharoitiga, ehtiyojiga va manfaatiga bog‘liq. Ular hech qachon to‘liq taxmin qilinmaydi, lekin ma’lum bir vazifa, har qanday holatda, ularning barchasini, hech bo‘lmaganda, chet tilida ishslash zarurati paydo bo‘lishi yoki xohlagan narsalarni aniqlashga yo‘naltiriladi. Har qanday tarzda buni amalga oshirish uchun, biz chet tilini ishlatish ehtimoli bo‘lgan vaziyatlarni aniqlashga harakat qilishimiz kerak..

II bob bo‘yicha xulosalar

Chet tilida nutq malakalarini shakllantirish talabalarining barcha darajadagi nutq faoliyati turlarini rivojlantirishga yordam beradi: Talabalar har bir harakatning maqsadlarini ifodalangan mazmun va mavjud til vositalari bilan bog‘lab, nutq xattiharakatlarini rejashtirishni o‘rganadilar. Bu esa talaba ega bo‘lgan bilim miqdorini emas, balki uning shaxsiyatini tarbiyalash va madaniyatlararo o‘zaro munosabatlar uchun malaka va qobiliyatlarni rivojlantirishga va takomillashtirishga xizmat qiladi. Tilda nutq malakalarini takomillashtirish albatta amaliy mashqlar yordamida amalga oshiriladi. Nutq faoliyati turlarini teng ko‘rinishda shakllantirish va takomillashtirishda ayni vaqtda yetarlicha muammolar uchramoqda va ushbu muammolarni yechish uchun avvalgi mavjud mashqlardan voz kechish, qo‘srimchalar kiritish yoki tamoman yangi mashqlar tizimini yaratishga ehtiyoj mavjud. O‘qitish jarayonini tashkillashtirishda, o‘rganishning boshlang‘ich bosqichida darsda muloqot o‘qituvchi va talaba, talaba bilan talaba o‘rtasidagi dialog shaklida quriladi, yangi o‘rganilgan ibora va yangi so‘zlar orqali muloqot kuchayadi va asta-sekin murakkablashadi. Bu jarayonda ko‘proq “pastdan” “yuqoriga” ko‘tarilish samaralidir.

Yuqorida keltirilgan manbalarga asoslanib tadqiqotimiz mavzusidan kelib chiqqan holda metodologik yondashuvda shaxs faoliyati nazariyasini tahlil qilsak, bunda ingliz tilini o‘rganishning predmet mazmunini tanlash va umuman, moliya-iqtisod yo‘nalishi diskursdagi xorijiy tilda ta’lim profilidan birini tanlab olgan soha yo‘nalishida tayyorlanayotgan talabalarning aniq bir guruhining qiziqish va ehtiyojlariga asoslanishi lozim. Shaxsiy faoliyat yondashuvining “faoliyat” tarkibiy qismi shuni anglatadiki, moliya-iqtisod yo‘nalishi diskursda ingliz tilida B2 darajasini qo‘lga kiritish jarayonida talabalar o‘quv-anglash faoliyatida o‘ta faol ishtirok etadilar. Bular ushbu jarayonda passiv axborotni iste’mol qiluvchi retsipyentlar sifatida emas, balki uning faol yaratuvchisi va joriy qiluvchisi sifatida namoyon bo‘ladilar.

Shu munosabat bilan, shaxsiy-faoliyat yondashuvi ta’limda kompetensiyaviylik yondashuvi bilan kesishadi. Uning o‘ziga xos va boshqalardan ajralib turadigan xususiyatlaridan biri ta’lim natijasini alohida, muhim natijalarni taqdim etishga emas, balki talabalarning amaliy faoliyatni amalga oshirishiga qaratishidir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, tilni o‘qitish murakkab jarayon, shu bilan birga doimiy ravishda yangilanishni va izlanishlarni ham talab etadi. Bo‘lajak mutaxassislarni faqatgina sohalari bo‘yicha bilimlarni egallashlari va faqatgina dasturga tayanib qolishlari noto‘g‘ri fikrdir.

Har bir soha rivojlanishida e’tibor qaratsak, u o‘zida bir qator fanlarning jamlanmasini ifoda etgan. Har bir soha jamiyat rivojida alohida o‘rin tutadi. Shular qatorida moliya-iqtisod yo‘nalishini ham aytib o‘tish mumkin. Til asosiy ta’lim sohasi bo‘lgan filologiya yo‘nalishlarida xorijiy tilni o‘qitish jarayoni va qo‘llaniladigan metodlar nofilologik yo‘nalishlarda o‘rgatiladigan xorijiy til o‘qitish jarayonidan umuman farq qiladi. Filologik ta’lim yo‘nalishlaridan farqli nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida xorijiy til mashg‘ulotlari uchun ajratilgan soatlar orasida farqlanishlar mavjud. Bo‘lajak iqtisodchilar va moliyachilarda xorijiy til ta’limi sifatli bo‘lishida qaysi metodlar va dasturlardan foydalanish kerak yoki anchagina foydalanib hozirgi vaqtida o‘zgartirishni talab etayotgan metodlar va adabiyotlarni

o‘zgartirishda nimalarga e’tibor qaratish lozim, foydalanilayotgan adabiyotlarga qanaqa qo‘sishimchalar kiritish borasida izlanishlarni olib borishda izchillik bilan harakatlanishni hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonning o‘zi talab etmoqda

III BOB. BO‘LAJAK IQTISODCHILARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIK DARAJASI

3.1. Bo‘lajak iqtisodchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari metodikasi

Ilmiy tadqiqot davomida ilgari surilgan ilmiy-nazariy fikrlarni amaliyotga joriy qilish va hamda ularni dalillash maqsadida 2019-2020, 2020-2021 o‘quv yillari davomida tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishda, nofilologik OTMlarning moliya-iqtisod yo‘nalishi talabalarining kompetensiyaviy yondashuv asosida nutq faoliyati turlarini B2 darajasida takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan mashqlar va topshiriqlar tizimi sinovdan o‘tkazildi.

Tajriba sinov ishlari 4 bosqichda, boshlang‘ich (maqsad, bosqich va vazifa), shakllantiruvchi (tashxis va bashorat qilish, tashkiliy-tayyorgarlik), asosiy va yakunlovchi bosqichlarda tashkil etildi. Ushbu bosqichlar quyidagicha tashkil etildi:

boshlang‘ich bosqich, tajriba-sinov ishlari olib borishdan asosiy ko‘zlangan maqsad;

mutaxassisligi chet tili bo‘lmagan nofilologik (moliya-iqtisod) sohasida tahsil oluvchi talabalarga kompetensiyaviy yondashuv asosida nutq faoliyati turlarini B2 darajasida yanada takomillashtirishdir.

Olib borilayotgan ilmiy izlanish uchun to‘plangan materiallar va manbaalarni yanada real hayot bilan bog‘lash uchun tajriba-sinov maydonchalari tanlab olindi. Ular Farg‘ona Politexnika Instituti, Guliston Davlat Universiteti, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti va Toshkent Moliya instituti bakalavriat 2-3 bosqich, moliya-iqtisod yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar qamrab olindi;

Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish bosqichlari belgilab olindi;

Tanlab olingan tajriba maydonchalarining 2,3-bosqich talabalarini tajribajalb qilishdan asosiy maqsad belgilangan OTMlarda 1-kursslarni to‘liq qamrab olish imkonи yo‘qligidir, 2020-2021 o‘quv yilida Toshkent Moliya institutida sinov tariqasida boshqa xorijiy tillar tanlab olingani (fransuz, ispan, nemis tillari);

Nutq faoliyati turlarini takomillashtirish jarayonida ularda dastlabki mavjud ko‘nikmalarни qay holatda ekanligini aniqlashtirib olish ehtiyoji borligi, 2- va 3-bosqich talabalari 1-bosqichdan boshlab har kursda taqdim etilgan materiallar asosida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratilishi, nutq faoliyati turlarini takomillashtirishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan holatlarni aniqlashtirish maqsadida yuqori kurslar tanlab olindi.

Tajriba-sinov bosqichi o‘z oldiga bir qator vazifalarni belgilab oladi;

Nofilologik OTMlarning moliya-iqtisod yo‘nalishida ingliz tili mashg‘ulotlarida nutq faoliyati turlarini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish holatini aniqlash maqsadida so‘rovnomalari, testlar o‘tkazish va ularning natijalarini tahlil qilish;

Nofilologik OTMlarning moliya-iqtisod yo‘nalishida ingliz tili mashg‘ulotlarida CEFR (B2) talablari asosida nutq faoliyati turlarini tenglikda rivojlanmasligining mavjud sabablari, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarga aniqlik kiritish hamda uni tahlil qilish;

Nofilologik OTM talabalariga soha yo‘nalishlariga doir manbaalar taqdim etish, ularni o‘z yo‘nalishlariga oid lug‘at boyligini oshirish, nutqiy malakasini takomillashtirish;

talabalarning mashg‘ulot hamda mustaqil ta’limda doimiy faol ishtirokini ta’minlash;

to‘plangan bilim va malakalarni qo‘llay olishi;

moliya-iqtisod yo‘nalishinofilologik OTM talabalarining nutq faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida B2 darajasida takomillashtirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimini tajriba guruhlarida sinovdan o‘tkazish;

Maqsad va vazifalarni belgilangan so‘ng dars mashg‘ulotlarini talabalar uchun odatiy mashg‘ulotlardan farq qilishi uchun avval ulardan so‘rovnomalari o‘tkazish, ularni fikrlashlari, dunyoqarashlari va chet tili fani haqidagi fikrlari bilan tanishish ko‘zda tutildi.

Shu o‘rinda tanlangan universitet-institut o‘qituvchilarining dars o‘tish metodlari, tajribalari bilan tanishish va ularning fikrlarini bilish uchun

so‘rovnomalar olish rejalashtirildi. Hozirgi kunda dars mashg‘ulotini tashkil etishda o‘qituvchining mahorati va tanlagan metodi muhim ahamiyat kasb etadi. Nofilologik OTMlarda chet tili mashg‘ulotlari Filologik OTMlardagi mashg‘ulotlardan bir muncha farq qiladi. Nofilologik o‘quv muassasalarining moliya-iqtisod yo‘nalishlarida olib borilishi ko‘zda tutilgan tajriba-sinov davomida ularni sohalariga doir bo‘lgan ma’lumotlarni berish, tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun metod-usullarni qo‘llash, materiallardan foydalanish ko‘zda tutilgan.

Tajriba-sinov bosqichlari quyidagi tartibda olib borildi:

Shakllantiruvchi bosqichda, quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Tashxis va bashorat qilish bosqichi;

Mavzu doirasida olib borilgan izlanishlar, xorijiy tajribalar, OTMlarning o‘quv-uslubiy ta’minoti;

O‘quv reja, namunaviy dastur ishchi o‘quv dastur, ayni paytdagi o‘qitilayotgan adabiyotlar o‘rganib chiqildi va tahlil qilindi. Dars mashg‘ulotlari kuzatildi (pandemiya sharoitida online ko‘rinishda).

Talabalarning mashg‘ulot jarayonidagi qiziqishlari o‘rganish maqsadida, ularga yo‘naltirilgan xorijiy til (ingliz tili) bo‘yicha bilimlarini takomillashtirishga doir metod va usullarni yaratish, kompetensiyaviy yondashuv haqidagi fikrlarini bilish uchun so‘rovnoma ishlab chiqish.

Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichida, shakllantiruvchi bosqichda amalga oshirilgan va to‘plangan ma’lumotlar asosida, tanlab olingan oliygochlarning, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan professor-o‘qituvchilaridan kompetensiyaviy yondashuv va chet tiliga oid islohotlarga tegishli so‘rovnomalar o‘tkazildi.

O‘tkazilgan so‘rovnomalarda belgilangan tajriba-sinov maydonlaridan jami

90 ga yaqin professor-o‘qituvchilar qatnashdilar. Aynan shu professor-o‘qituvchilardan tajriba-sinov ishlari uchun ma’sul ishchi guruhlar ham belgilab olindi. Keyingi jarayon talabalar bilimini nazorat qilish bo‘lib, tajriba-sinov ishimizning asosiy mavzusi takomillashtirish bo‘lganligi bois biz so‘rovnoma olish jarayonida dastlab 2-, 3-bosqich talabalarini qamrab oldik. Sababi, 1-bosqich

talabalari maktab, litsey va professional ta'lif jarayonidagi dunyoqarash va tushunchalarini o'rganish bo'lsa, 2-3-bosqich talabalarining xorijiy til bo'yicha o'rgangan bilim va ko'nikma va dunyoqarashlarini o'rganishdan iborat bo'ldi. So'rovnomalarda tajriba maydonchalaridan jami 512 nafar talaba ishtirok etdi.

Tajriba-sinov mashqlar tizimini sinovdan o'tkazish uchun bakalavriat 2-3-bosqich, moliya-iqtisod yo'nalishida ta'lif olayotgan 350 nafar talabalar qamrab olindi.

Asosiy bosqich; Moliya-iqtisod yo'nalishi talabalarining nutq faoliyati ko'nikmalarini qay darajada ekanligini tekshirish maqsadida ulardan dastlab test ko'rinishida nazorat tahlillar olindi.

Ushbu tahlillar, tanlab olingan bakalavriat 2-3 bosqich nazorat va tajriba-sinov guruhi talabalaridan olindi. Eksperimental va nazorat guruhlarida jami 350 nafar, II bosqich 179 nafar, III bosqich 171 nafar talabalar ishtirok etdilar.

Tanlab olingan tajriba maydonchalaridagi nazorat guruhlari o'zлари o'quv dasturlaridagi berilgan adabiyotlar asosida, tajriba guruhlarida esa moliya-iqtisod sohasiga doir ma'lumotlar bilan boyitilgan materiallar bilan o'qitildi. ("Define it, Memory story, Running dictation, Word by word story, Case-study, Wordwall, Who wants to be millionaire?, Google, Jeopardy" metod va texnologiyalari uzviyligida mashg'ulotlarda foydalanildi.

Tajriba-sinov materiallarini o'zlashtirish jarayonida tajriba guruhlaridan yozma ish va testlar olib bilimi tekshirib turildi.

Tajriba-sinov ishlari 2019-2020, 2020-2021 o'quv yillari davomida o'tkazildi.

Yakunlovchi bosqichda, tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifalari, tajriba-sinov ishlarining maqsadi tavsiya qilingan texnologiyalarning yutuq va kamchiliklarini aniqlash hamda takomillashtirish yo'llarini tatbiq qilishdan iborat.

Belgilangan maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar amalga oshirildi: tajriba va nazorat guruhlari talabalarining nazorat ishlari va so'rov-javoblari natijalarini taqqoslash va xulosa berish;

yaratilgan texnologiya hamda mashqlarni yangi natijalar asosida boyitish;

olib borilgan tajriba-sinov ishlari bo‘yicha umumiy tahlil berish. Dastlabki tajriba-sinov maydonlarida ishtirok etgan talabalar soni (3.1-jadval).

3.1-jadval

Tajriba-sinovning so‘rovnomasida ishtirok etgan respondentlar soni


Tajriba-sinov maydonchalar	Qatnashgan respondentlar soni	2-bosqich	3-bosqich
TMI	123 ta (24 %)	60 ta (11.7 %)	63 ta (12,3 %)
TDIU	121 ta (23,6 %)	59 ta (11,6 %)	62 ta (12,1 %)
GulDu	151 ta (29,5 %)	72 ta (14 %)	79 ta (15,4 %)
FarPI	117 ta (22,9 %)	61ta (12 %)	56 ta (10,9 %)
Jami:	512 ta (100 %)	252 ta (49,2 %)	260 ta (50,7 %)

Tajriba-sinovning so‘rovnomasida 512 ta respondent ishtirok etib, respondentlarning bilim va ko‘nikmalari darajasi o‘rtacha hisobda, umumyevropa shkalasiga (CEFR) ko‘ra B1 - B2 darajani tashkil etdi. Universitetlar bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalar bilim va malakalari so‘rovnomasi asosida quyidagi ko‘rsatkichi aniqlandi:

Taqdim etilgan 1-savol, a-javobga – 100 ta (19,5 %), b-javobga – 320 ta (62,5 %), c-javobga – 92 ta (18 %), 2-savol, a-javobga – 65 ta (12,7 %), b-javobga – 31 ta (6%), c-javobga – 47 ta (9,2 %), d-javobga – 29 ta (5,7 %), e-javobga – 187 ta (36,5 %), f-javobga – 153 ta (29,9 %), 3-savol, a-javobga – 105 ta (20,5 %), b-javobga – 58 ta (11,4 %), c-javobga 43 ta (8,4 %), d-javobga 25ta (4,9 %), e-javobga-17 ta (3,3%), f-javobga-156ta(30,4%), g-javobga 39 ta (7,6%) h-javobga-69 ta (13,5%), 4-savol, a-javobga -317ta (62%), b-javobga-106 ta (20,7%), c-javobga 89 ta (17,3%), 5-savol, a-javobga - 89ta (17,3%), b-javobga-286 ta (56%), c-javobga 137 ta (26,7%), 6-savol, a-javobga -281 ta (55 %), b-javobga-175 ta (34,1 %), c-javobga-56 ta (10,9 %), 7-savol, a-javobga-286 ta (55,8 %), b-

javobga-42 ta (8,2 %), c-javobga-184 ta (36 %), 8-savol, a-javobga -140 ta (27,3 %), b-javobga-189 ta (36,9 %), c-javobga 183 ta (35,8 %), 9-savol, a-javobga -169 ta (33 %), b-javobga-120 ta (23,5 %), c-javobga 223 ta (43,5 %), 10-savol, a-javobga -201 ta (39,3 %), b-javobga-137 ta (26,7 %), c-javobga 174 ta (34 %) talabalar javob berishgan.

Nutq faoliyati turlari bo‘yicha yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar haqida so‘ralganda, tinglab tushunishda 6 %, gapishtish malakasida yuzaga kelayotgan muammolar haqida respondentlarning 12,7 %’i, 9 % talabalar o‘qish malakasi bilan muammolari borligini aytishsa, 5,7 % talabalar yozuv bilan, 36,5 % kishi ularni bir-birisiz o‘rgatib bo‘lmaydi degan fikrdalar (3.1-rasm).



3.1-rasm. Nutq faoliyati turlarini o‘qitishda mavjud qiyinchiliklarni foizda ifodalanishi


So‘rovnama natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning tilga bo‘lgan qiziqishlari va uning bilish darajalari turli tumandir. Aynan shu o‘rinda barcha ishlab chiqilgan va taqdim etilgan mashq-topshiriqlarni tayyorlashda ushbu so‘rovnomaning natijalarining ahamiyati yuqoridir (3.2-rasm).

3.2-rasm.

Til bilish bo‘yicha sertifikat mavjudligi haqida ko‘rsatkichlarning foizlarda ifodasi

3.2-rasm.

Til bilish bo‘yicha sertifikat mavjudligi haqida ko‘rsatkichlarning foizlarda ifodasi



3.2-rasm. Til bilish bo‘yicha sertifikat mavjudligi haqida ko‘rsatkichlarning foizlarda ifodasi

Keyin umumiylar tanlab olingan respondentlar tajriba guruhi Tg va nazorat guruhi Ng ko‘rinishida ajratib olindi. Nazorat guruh Ng larda ko‘rsatkichlar kuzatib borilgan bo‘lsa, tajriba guruh Tg larga biz tomonimizdan ishlab chiqilgan sohalariga oid nutq faoliyati turlarini o‘zida mujassamlashtirgan materiallar asosida o‘qish jarayoni olib borildi va umumiylar har ikki holatdagi guruhlarda ko‘rsatkichlar belgilab borildi.

Dastlabki savol-javoblar va kuzatuvlardan shu ko‘zga tashlandiki, talabalarning aksariyatida grammatik bilimlar yaxshi shakllangan lekin, gapirish ko‘nikmasida tajriba yetarli bo‘lmagani bois qiyinchiliklar mavjud.

Tajriba-sinov ishlarida dastlabki nazorat Ng va tajriba Tg guruhlarining natijalari bilan tanishamiz; har bir tajriba OTM miqyosida 2-3-bosqich talabalari qamrab olingan bo‘lib, ular baho, ya’ni 5-a’lo, 4-yaxshi, 3-qoniqarli va 2 qoniqarsiz ko‘rinishida keltiriladi. Dastlabki 2019-2020 o‘quv yilida taqdim etilgan materiallarni o‘zlashtirishni tekshirish uchun olingan yozma ish natijalariga ko‘ra tajriba maydonchalaridagi alohida ko‘rsatkichlar quyida keltirilgan. Tajriba-sinov jarayonidagi nutq faoliyati turlarining amaliyotdagi holatini aniqlashga, dastlabki o‘zlashtirish natijalarini olish uchun berilgan test javoblarining foizda ko‘rsatkichi quyidagi jadvalda keltirib o‘tildi (3.2-jadval)

Talabalarning 5-a’lo (30 balldan 31 ballgacha ko‘rsatkichlar) -50 ta talaba – 13 %ni, 4-yaxshi (30 balldan 25 ballgacha ko‘rsatkichlar) -160 ta talaba - 43 %ni, 3-qoniqarli (24 balldan 20 ballgacha) - 97 ta talaba - 31 %, 2-qoniqarsiz - 43 ta talaba (19 balldan 0 ballgacha) -13 %ni tashkil etdi. Shundan nazorat Ng guruhlarida umumiy ko‘rsatkichlar bilan tanishamiz; 5-a’lo –19 ta, 4-yaxshi – 76 ta, 3-qoniqarli – 52 ta, 2-qoniqarsiz – 24 tani tashkil etdi. Biz tajriba uchun belgilagan guruhlarning umumiy natijalari bilan tanishamiz; 5-a’lo – 31 ta, 4-yaxshi – 84 ta, 3-qoniqarli – 45 ta, 2-qoniqarsiz – 19 tani tashkil etdi.

Yakuniy natijaga kelib Ng tajriba guruhlarida talabalarning umumiy baho 5-a’lo, 4-yaxshi, 3-qoniqarli, 2-qoniqarsiz ko‘rinishida quyidagicha ko‘rsatkichlarni ko‘rsatdi:

5-a’lo – 24 ta talaba, 4-yaxshi – 95 ta talaba, 3-qoniqarli – 37 ta talaba, 2-qoniqarsiz –15 tani tashkil etgan bo‘lsa, Tg guruhida 5-a’lo – 58 ta talaba, 4-yaxshi – 97ta talaba, 3-qoniqarli – 18 ta talaba, 2-qoniqarsiz – 6 tani ko‘rsatdi.

Respondentlar quyidagi mezon asosida baholandi (3.2-jadval).

3.6-jadval

Talabalarning nutq malakalari darajalarini baholovchi mezon va ko'rsatkichlar

Nº	Mezonlar	Baho	Ko'rsatkichlar
1.	35-31	5	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega
2.	30-25	4	Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega
3.	24-20	3	Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega
4.	19-0	2	Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas

Ushbu ko'rsatkich va mezonlar asosida mashq va topshiriqlar quyidagicha baholandi. (3.3- jadval).

3.7-jadval

Baholash mezonlari
LISTENING: 15-13 excellent (a'lo) 12-10 good;(yaxshi) 9-5 satisfactory (q-li) 5-0awful (q-siz)
READING; 10 excellent (a'lo) 6- satisfactory (q-li) 8 good (yaxshi) 4-2 awful (q-siz)

WRITING:

10-9 ball student creativity and grammar is perfect (talaba ijodiy fikrlay oladi va grammatic xatolar mavjud emas)

8-6 ball students can try to become creative but there are grammar mistakes(talaba ijodiy fikrlashga harakat qilgan, lekin grammatic xatolar mavjud)

6-5 ball student try to become creative but mixed meaning and grammar mistakes (talaba ijodiy fikrlashga uringan lekin barcha ma'lumotlar chalkash, qisman ma'no bor va grammatic muammolar mavjud)

5-0 ball there no meaning and a lot of grammar mistakes; (ma'nosiz yozilgan va grammatic xatolar juda ko'p)

SPEAKING;

5 ball student can speak fluently; (talaba ravon gapira oladi)

3 ball student has problem with pronunciation (talaffuzda ozgina muammo mavjud)

4 3-2 ball student has barrier (gapirishda tutilish, to'siqlar bor)

0 ball problem with speaking (gapira olmaslik)

Keltirib o'tilgan baholash mezoni asosida har bir OTMdan ishtirok etgan respondentlar baholandilar.

3.2. Bo'lajak iqtisodchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalari va samaradorlik darajasi

Tajriba-sinov ishlarining tahlillariga o'tsak, Tajriba-sinov ishlari uchun tanlab olingan nazorat va tajriba-sinov guruhining tadqiqot doirasiga jalb etilishiga qadar, dastlabki ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan; Keling har bir OTMdan belgilangan guruhlarning ko'rsatkichlari bilan tanishamiz (3.3-jadval).

3.3-jadval

Dastlabki natijalar 2- va 3-bosqich talabalarining tahlil natijalari

jadval 1

Toshkent Moliya Instituti		Talabalar soni	Ko'rsatkichlar tajribada ishtirok etguncha							
Guruhrar			5	4	3	2	O'rtacha ball			
II kurs										
Nazorat guruhi	22	3	13,6 %	9	40,9%	7	31,82	3	13,64 %	3,55
Tajriba-sinov guruhi	21	4	19,0 %	10	47,6%	5	23,81	2	9,52 %	3,76

jadval 2

Toshkent Moliya Instituti		Talabalar soni	Ko'rsatkichlar tajribada ishtirok etguncha							
Guruhrar			5	4	3	2	O'rtacha ball			
III kurs										
Nazorat guruhi	22	2	9,1%	7	32%	9	40,91	4	18,18 %	3,32
Tajriba-sinov guruhi	21	4	19,0 %	11	52%	6	28,57	0	0,00%	3,90

jadval 3

Toshkent Iqtisodiyot universiteti		Talabalar soni	Ko'rsatkichlar tajribada ishtirok etguncha							
Guruhrar			5	4	3	2	O'rtacha ball			
II kurs										
Nazorat guruhi	20	1	5,0 %	10	50,0 %	6	30	3	15,0 0%	3,45
Tajriba-sinov guruhi	23	4	17,4%	11	47,8%	7	30,4	1	4,35 %	3,78

jadval 4

Toshkent Iqtisodiyot universiteti		Talabalar soni	Ko'rsatkichlar tajribada ishtirok etguncha							
Guruhrar			5	4	3	2	O'rtacha			

									ball
III kurs									
Nazorat guruhi	18	1	5,6 %	9	50%	4	22,22	4	22,22 % 3,39
Tajriba-sinov guruhi	20	3	15,0 %	1	55%	5	25	1	5,00 % 3,80

jadval 5

Guliston Davlat Universiteti	Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar tajribada ishtirok etguncha							
Guruhlar		5	4	3	2		O‘rtacha ball		
II kurs									
Nazorat guruhi	23	4	17,4 %	8	34,8%	8	34,78	3	13,04 % 3,57
Tajriba-sinov guruhi	28	5	17,9 %	1	46,4%	6	21,43	4	14,29 % 3,68

jadval 6

Guliston Davlat Universiteti	Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar tajribada ishtirok etguncha							
Guruhlar		5	4	3	2		O‘rtacha ball		
III kurs									
Nazorat guruhi	23	4	17,4%	11	48%	7	30,43	1	4,35% 3,78
Tajriba-sinov guruhi	24	5	20,8%	10	42%	6	25	3	12,50% 3,71

jadval 7

Farg‘ona Politexnika instituti	Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar tajribada ishtirok etguncha							
Guruhlar		5	4	3	2		O‘rtacha ball		
II kurs									
Nazorat guruhi	24	3	12,5%	12	50,0 %	6	25	3	12,50% 3,63
Tajriba-sinov guruhi	22	4	18,2%	9	40,9 %	5	22,73	4	18,18% 3,59

jadval 8

		Ko'rsatkichlar tajribada ishtirok etguncha							
		Talabalar soni	5	4	3	2	O'rta cha ball		
III kurs									
Nazorat guruhi	19	1	5,3%	10	53%	5	26,32	3	15,79%
Tajriba-sinov guruhi	20	2	10,0%	9	45%	5	25	4	20,00%
									3,47
									3,45

Tadqiqot maqsad va vazifalardan kelib chiqib, ishlangan materiallar 2-bosqichga bo'lib taqdim etildi. 1-bosqichdan keyin har bir tanlab olingan eksperimental va nazorat guruhlari talabalarining har bir semestr uchun tajriba-sinovgacha bo'lgan o'zlashtirishi va tajriba-sinov yakunidagi o'zlashtirilish jarayonlari tahlil qilib borildi. Tajriba-sinovning tashxis va bashorat qilish bosqichida so'rovnomalariga ko'ra, o'tkazilgan mashq va topshiriqlar tizimi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari yetarlicha nazorat qilinmayotganini, nutq faoliyati turlari bo'yicha mavjud va egallanayotgan bilimlarida bo'shliqlar mavjudligi, nutq faoliyati turlari uchun berilayotgan mashqlar tizimi va mavjud adabiyotlar yetarli darajada integratsiyalashmagani, ko'proq kompetensiyaviy yondashuv va bilimlarni real hayot bilan uyg'unlashtirishga ehtiyoj mavjudligi ko'zga tashlandi. Tajriba-sinov tashkil etilmasdan avval barcha guruhlar anketa-so'rovnomada faol bo'ldilar. Keyin ularning bilimlari umumiy tahlil qilindi. Natijalar to'plangach, ayni vaqtdagi mavjud adabiyot, materiallar bilan ishlovchi nazorat guruhi va biz yaratgan va boyitgan mashq-topshiriqlar tizimi bilan ishslash uchun tajriba-sinov eksperiment guruhiga ajratdik (3.4-jadval).

3.4-jadval

jadval 2

Toshkent Moliya Instituti	Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar yakuniy natijada							
Guruhlari		5	4	3	2				O‘rtacha ball
III kurs									
Nazorat guruhi	22	2	9,09 %	9	40,91 %	8	36,36	3	13,64% 3,45
Tajriba-sinov guruhi	21	8	38,10 %	13	61,90 %	0	0	0	0,00% 4,38

jadval 3

Toshkent Iqtisodiyot universiteti	Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar yakuniy natijada							
Guruhlari		5	4	3	2				O‘rtacha ball
II kurs									
Nazorat guruhi	20	3	15,00 %	11	55,00 %	4	20	2	10,00% 3,75
Tajriba-sinov guruhi	23	8	34,78 %	13	56,52 %	2	8,696	0	0,00% 4,26

Yakuniy natijalar. 2- va 3-bosqich talabalarining tahlil natijalari

jadval 1

Toshkent Moliya Instituti	Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar yakuniy natijada							
Guruhlari		5	4	3	2				O‘rtacha ball
II kurs									
Nazorat guruhi	22	4	18,18 %	12	54,55 %	4	18,18	2	9,09% 3,82
Tajriba-sinov guruhi	21	7	33,33 %	12	57,14 %	2	9,524	0	0,00% 4,24

jadval 4

Toshkent Iqtisodiyot universiteti	Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar yakuniy natijada							
Guruhlari		5	4	3	2				O‘rtacha ball
III kurs									
Nazorat	18	1	5,56 %	13	72,22 %	2	11,11	2	11,11% 3,72
jadval 5									

Guliston Davlat Universiteti	Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar yakuniy natijada							
Guruhanlar	5	4	3	2	O‘rtacha ball				
II kurs									
Nazorat guruhi	23	4 %	17,39 %	11	47,83 %	6	26,09	2 8,70%	3,74
Tajriba- sinov guruhi guruhi	28	8 %	28,57 %	16	57,14 %	3	10,71	1 3,57%	4,11
Tajriba- sinov guruhi	20	7 %	35,00 %	11	55,00 %	2	10	0 0,00%	4,25

jadval 6									
Guliston Davlat Universiteti		Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar yakuniy natijada						
Guruhanlar			5	4	3	2	Guruhanlar		
III kurs									
Nazorat guruhi		23	5 %	21,74 %	15	65, 22 %	3	13,04 %	0 0,00%
Tajri- ba- sinov guruhi	24	8 33 %	33 %	13	54,17 %	2	8,3 %	1 4,17%	4,17

jadval 7									
Farg‘ona Politexnika instituti		Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar yakuniy natijada						
Guruhanlar			5	4	3	2	O‘rtacha ball		
II kurs									
Nazorat guruhi		24	12,50 %	14	58,33 %	5	20,83	2 8,33%	3,75
Tajriba- sinov guruhi		22	31,82 %	10	45,45 %	3	13,64	2 9,09%	4,00

jadval 8

Farg‘ona Politexnika instituti	Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar yakuniy natijada								
		5		4		3		2		O‘rtacha ball
III kurs										
Nazorat guruhi	19	2	10,53 %	10	52,63 %	5	26,32	2	10,53%	3,63
Tajriba- sinov guruhi	20	5	25,00 %	9	45,00 %	4	20	2	10,00%	3,85

Tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan talabalarning tajriba sinov guruhi va nazorat guruhi natijalari bo‘yicha o‘zlashtirishining o‘rtacha ko‘rsatkichini quyidagi formulalar orqali aniqlashga harakat qilamiz:

$$\bar{x} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^N n_i x_i, \quad \bar{y} = \frac{1}{m} \sum_{i=1}^M m_i y_i,$$

Bu yerda N = 160, M=156 uchun hisoblaymiz:

$$\bar{x} = \frac{1}{160} \cdot (88 \cdot 5 + 49 \cdot 4 + 23 \cdot 3) = \frac{440 + 196 + 69}{160} \approx 4.4$$

$$\bar{y} = \frac{1}{156} \cdot (36 \cdot 5 + 42 \cdot 4 + 78 \cdot 3) = \frac{180 + 168 + 234}{156} \approx 3.7$$

Demak, talabalar tomonidan o‘zlashtirishning o‘rtacha ko‘rsatkichi “5 baholi” baholash tizimi bo‘yicha (tajriba guruhi amaliy topshiriqlar, testlar bo‘yicha) foizlarda $x_0 = \frac{4.4}{5} \cdot 100 \% = 88 \%$ va (nazorat guruhi amaliy topshiriqlar, testlar bo‘yicha) $y_0 = \frac{3.7}{5} \cdot 100 \% = 74 \%ni$ tashkil etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, tajriba guruhi natijalarining

o‘rtacha ko‘rsatkichi yuqoriroq ekanligini ko‘rsatmoqda. Tajriba guruhi va nazorat guruhi natijalari bo‘yicha hosil qilingan ma’lumotlar uchun $1 = \bar{x} - \bar{y} = 14\%$ transregressiya tenglamasi kelib chiqadi. Bundan shuni tushunish kerakki, tajriba guruhi va nazorat guruhi amaliy topshiriqlar, test natijalari farqi 14 %ni tashkil etadi. Keyingi bosqichda nazorat guruhi va tajriba guruhi amaliy topshiriqlar, testlar natijalarining aniqlik ko‘rsatkichlarini quyidagi formula bilan hisoblaymiz:

$$C_{Sx} = \frac{s_x}{\bar{x}} \cdot 100\% \quad \text{va} \quad C_{Sy} = \frac{s_y}{\bar{y}} \cdot 100\%$$

Bu yerda $S_{\bar{x}}$ va $S_{\bar{y}}$ o‘rtacha qiymatlarning xatoligi quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{\bar{x}} = \sqrt{\frac{s_x^2}{n}} \quad \text{va} \quad S_{\bar{y}} = \sqrt{\frac{s_y^2}{m}}$$

Bu yerda s_x^2 va s_y^2 tanlama dispersiyalar bo‘lib, quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$s_x^2 = \frac{1}{n} \cdot \sum_{i=1}^N (x_i - \bar{x})^2 \cdot n_i$$

va

$$s_y^2 = \frac{1}{m} \cdot \sum_{i=1}^M (y_i - \bar{y})^2 \cdot m_i$$

Eng avvalo s_x^2 va s_y^2 larning qiymatlarini hisoblab chiqamiz:

$$\begin{aligned} s_x^2 &= \frac{1}{160} \cdot (88 \cdot (5 - 4,4)^2 + 49 \cdot (4 - 4,4)^2 + 49 \cdot (3 - 4,4)^2) \\ &= \frac{88 \cdot 0,36 + 49 \cdot 0,16 + 23 \cdot 1,96}{160} \approx 0,53 \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} s_y^2 &= \frac{1}{156} \cdot (36 \cdot (5 - 3,7)^2 + 42 \cdot (4 - 3,7)^2 + 78 \cdot (3 - 3,7)^2) \\ &= \frac{36 \cdot 1,69 + 42 \cdot 0,09 + 78 \cdot 0,49}{156} \approx 0,65 \end{aligned}$$

Ushbu vaziyatda standart xatolarni, ya’ni o‘rtacha kvadratik chetlanishlarni topamiz va buning natijasida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining tarqoqligini aniqlaymiz:

$$S_x = \sqrt{S_x^2} = \sqrt{0.53} \approx 0.72 \quad \text{va} \quad S_y = \sqrt{S_y^2} = \sqrt{0.65} \approx 0.80$$

o‘rtacha aniqlik ko‘rsatkichlarini yuqorida keltirilgan formula orqali hisoblaymiz:

$$C_{Sx} = \frac{0.53}{\sqrt{160}} \cdot \frac{100\%}{4.4} \approx 0.95\% \quad \text{va} \quad C_{Sy} = \frac{0.65}{\sqrt{156}} \cdot \frac{100\%}{3.7} \approx 1.4\%$$

Shunday qilib, $C_{Sx} < C_{Sy}$, ya’ni tajriba guruhi amaliy topshiriqlarda, testlarda talabalarning o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhi amaliy topshiriqlardan, testlardan aniqroq ekanligi kelib chiqadi. Endi nazorat va tajriba guruh natijalarining taqsimot qonunini aniqlash uchun tegishli chastotalar poligonini tuzamiz. Chastotalar poligoni diagrammalaridan ularning modal va deyarli simmetrik ekanligini ko‘ramiz. Shuning uchun $n = 160$; $m=156$ ning x va y bir xil hajmlari bo‘yicha statistik tanlanmalarga mos $N(\alpha_1 ; \beta_1^2)$ va $N(\alpha_2; \beta_2^2)$ normal taqsimotlarga ega bo‘lgan umumiy yig‘indidan olinadi.

Binobarin, bizga faqat bu taqsimlashlar mos parametrlarining to‘g‘ri kelishi haqidagi gipotezani tekshirish lozim bo‘ladi.

Avvalo, Fisherning F-mezoni bo‘yicha dispersiyalarning tengligi haqidagi gipotezasini tekshiramiz. Ushbu gipotezani tekshirish uchun Fisher Snedekor mezonidan foydalanib, mezonining kuzatilayotgan qiymatini

$$F_{kuzat} = \frac{S_y^2}{S_x^2}$$

formula orqali hisoblaymiz, bunda S_y^2 - tuzatilgan dispersiyalardan kattasi, S_x^2 - tuzatilgan dispersiyalardan kichigi olinadi.

$$\text{Demak, } F_{kuzat} = \frac{0.65}{0.53} = 1.22 \text{ kelib chiqadi.}$$

Fisher-Snedekor taqsimotining kritik nuqtalari jadvalidan foydalanish uchun, $\alpha = 0,05$ qiymatdorlik darajasida berilgan taqsimotni 10:1 nisbat bo‘yicha

hisoblaymiz, ya’ni $\frac{160}{10} = 16.0$ tanlanma uchun $\frac{\alpha}{2} = \frac{0.1}{2} = 0.05$ va $k_1 = 16 - 1 \approx 15.0$; $k_2 = 15.6 - 1 \approx 14.6$ ozodlik darajalari soni bo‘yicha $F_{kr}(0.05; 16; 14.6) = 2.44$ kritik nuqtani topamiz.

Ma’lumki, $1.22 < 2.44$ bo‘lganligi sababli mos ravishda dispersiyalarning tengligi haqida H_0 gipotezasi rad qilishga asos yo‘q va 95 % ishonch bilan H_0 gipoteza qabul qilinadi, ya’ni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining aniqligi haqida gap ketganda, kichik dispersiyaga ega bo‘lganini ma’qul ko‘rish lozim. Demak, bosh dispersiyalari bir xil degan farazda tajriba va nazorat guruhi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tengligi haqidagi $H_0: M(X) = M(Y)$ nolinchi gipotezani konkurent gipoteza $H_1: M(X) \neq M(Y)$ bo‘lganda tekshirish uchun Styudent taqsimoti statistikasidan foydalananamiz.

Fisher taqsimlash jadvalidan foydalanganimizda, Styudent taqsimotining ikki taraflama tanlash statistikasi uchun ham bir xil sonlarning bir xil nisbatda qiymatlari bir xil bo‘lganligini hisobga olib, 10:1 nisbat asosida $T_{n,m}$ ni topamiz:

Mezonning kuzatilayotgan qiymati:

$$T_{kuzat} = \frac{(x - y)}{\sqrt{(n - 1)S_x^2 + (m - 1)S_y^2}} \cdot \sqrt{\frac{nm(n + m - 2)}{n + m}}$$

$$= \frac{(4.4 - 3.7)}{\sqrt{15 \cdot 0.53 + 14.6 \cdot 0.65}} \cdot \sqrt{\frac{15 \cdot 14.6(15 + 14.6 - 2)}{15 + 14.6}} \approx 2.39$$

Endi Styudent taqsimotining quyi darajasini topish uchun K ni aniqlab, ozodlik darajalari sonini topamiz: $k = n + m - 2 = 16.0 + 15.6 - 2 \approx 29.6$

$t_{0.85}(29) = 1.3$ ga teng bo‘lganda, $1.3 < T_{kuzat} = 2.39$ bo‘lganligi sababli H_0 rad qilinadi va 90 % ehtimollik bilan H_1 gipoteza qabul qilinadi, ya’ni o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari farqi muhim hisoblanadi.

O ‘tkazilgan tajriba-sinov ishlaringning statistik natijalari

Nº	Ko ‘rsatkichlar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1.	O ‘zlashtirishning o ‘rtacha ko ‘rsatkichi (x, y)	4.4	3.7
2.	Samaradorlik ko ‘rsatkichi	14%	
3.	O ‘rtacha qiymat ishonch oralig ‘i a_x, a_y	88%	74%
4.	O ‘rtacha qiymat standart xatolik (S_x, S_y)	0.53	0.65
5.	Aniqlanish ko ‘rsatkichi (C_x, C_y)	0.72	0.80
6.	Styudent statistikasi (T)	2.39	
7.	Ko ‘rsatkichlar xulosasi	H_1 gipoteza qabul qilinadi	

Olib borilgan tadqiqot natijasida talabalar o ‘rtasida o ‘tkazilgan nazorat guruhi va tajriba guruhi natijalarining farqlari aniq bo ‘ldi. Hisob natijalari asosida yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar tajriba guruhi amaliy topshiriqlari testlari uchun yuqori bo‘lganligi sababli $\bar{x} > \bar{y}$ ekanligi isbotlandi.


Stata dasturi asosida hisoblangan holda korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.85 ga teng chiqdi. Demak, tajriba sinovi va undan keyingi natijalar o‘zaro kuchli va to‘g‘ri bog‘langan.

Tajriba sinov guruhining Toshkent Moliya institutining 2-bosqich nazorat guruhi natijalarini umumiy tahlil qilinsa, tajriba-sinovdan keyin o‘quv yili holatida o‘zlashtirish 7,7 % o‘sgan, biz tanlab olgan eksperiment guruhda esa 12,7 %ga oshdi. Institutning 3-bosqich nazorat guruhi talabalari 4,1 % o‘sishni, eksperiment guruhining natijalari esa 12,2 %ga o‘sidi. Har ikki kursning natijalariga e’tibor qaratilsa, eksperiment uchun tanlab olingan guruhlarning natijalari yuqoriroqligi ko‘zga tashlanadi. TDIU 2-bosqich nazorat guruhi talabalarida 8,7 %, tajriba guruhida 12,6 % ko‘rsatkichni qayd etdi. 3-bosqich nazorat guruhi talabalar 9,8

%ni, tajriba-sinov guruhi esa 11,8 % o'sish qayd etildi. GulDuning 2-bosqichlarida nazorat guruhida 4,9 % va tajriba sinov guruhida 11,7 % bo'lsa, 3-bosqichda nazorat guruhi 8 %, tajriba guruhida 12,4 % ko'rsatkich qayd etildi. FarPining 2-bosqich nazorat guruhi 3,4 %ni, tajriba guruhi 11,4 %ni yakunda natija ko'rsatdi. 3-bosqichda nazorat guruhining umumiy ko'rsatkichi 4,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba guruhida 11,6 % natija kuzatildi. E'tibor berib qaralsa, tajriba-sinov guruhining umumiy ko'rsatkichlari barcha tajriba maydonlarida nazorat guruhlariga qaraganda bir muncha yuqori farqlanishni ko'rsatmoqda.


Yuqorida keltirilgan matematik tahlil va keyingi o'rinda berilayotgan statistik o'sishni o'zida mujassamlashtirgan jadvalda har bir belgilangan o'quv yili uchun ko'rsatkichlarning umumiy natijalari va tahlillari yuqorida keltirilgan.

Agar har bir berilgan jadval va diagrammaga e'tibor berilsa, talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari tajriba (eksperiment) guruhida yuqoriq natjalarga erishilganligini ko'rsatmoqda (3.3-rasm)



3.3-rasm. Samaradorlik ko'rsatkichlari

Natjalarga ko'ra o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi, bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligi aniqlandi. Natjalarga asosan nazorat guruhidan tajriba sinfidagi o'zlashtirish yuqoriligi ko'rindi. Endi yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz (3.4-rasm).



3.4-rasm. O‘qitish samaradorligini baholash mezoni

Ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhidagi talabalar o‘zlashtirishining o‘rtacha qiymatini nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi. Demak, olib borilgan tadqiqot ishlari samarali ekanligi isbotlandi.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlariga ko‘ra, OTM talabalari nutqiy bilim, ko‘nikma va malakasini takomillashtirish bosqichida chet tilini o‘qitishda talabalarning nutq faoliyati turlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishga doir mashq va texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning quyidagi yantuqli jihatlarini qayd etish lozim.

Tajriba-sinov guruhlarida tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodika asosida mashg‘ulotlar tashkil etildi. Ushbu metodlarning samaradorlik mexanizmi pedagogik-psixologik, psixolingvistik hamda lingvovidaktik jihatdan aniqlandi, ya’ni:

- kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilingan darslar samaradorligini oshirish zarurati metodik va pedagogik muammo sifatida isbotlandi;
- OTMlarda chet til o‘qituvchilari kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan texnologiyalarni to‘liq darslarda qo‘llash samarali ekanligiga erishdilar;
- talabalar uchun texnologiyalar asosida ingliz tilini o‘rganishga oid tinglab

tushunish, gapirish, o‘qish va yozuvga tegishli bilimlarni mustahkam egallash imkoniyatlari yaratildi;

- o‘qituvchilarga chet til o‘qitish metodikasidagi mavjud ingliz tilini o‘rgatishga oid nazariy bilimlarni takomillashtirishga erishildi;

